# *ONA TILI VA ADABIYOT 2015* *2 VARIANT*

1. Qaysi asardagi personaj haqida «mehnat bilan yashab, yetti-sakkizni tug'ib, yoshi ham qirqlarg'a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo'lib qolg'an, shuning uchun birartaga tegib olishi to'g'risida o'ylash ham behuda» degan jumlalar keltirilgan?
A) «Mehrobdan chayon»da Anorbibi
B) «Kecha va kunduz»da Enaxonning onasi
C) «0'tkan kunlar»da Jannat opa
D) «0'tkan kunlar»da To'ybeka

2. Vatanni himoya qilish uchun jon fido etgan o'g'lonlarimizning onalarini achchiq iztirob, ayriliqlar qiynasa ham,ular istiqlolga erishish maqsadida ko'ksini qalqon qilgan farzandlari haqida faxrlanib gapiradilar. Ushbu gapda ko'makchilar qaysi gap bo'laklarini shakllantirgan?
A) vositali to'ldiruvchi, maqsad holi, vositali to'ldiruvchi
B) sabab holi, sabab holi, vositali to'ldiruvchi
C) sabab holi, maqsad holi, kesim, vositali to'ldiruvchi
D) maqsad holi, maqsad holi, vositali to'ldiruvchi

3. Qaysi gap tarkibida imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'z mavjud?
A) Anvar bu yerga xalloslab kirib keldi.
B) Bunday yangicha fikrlashni hozirda hayotning o'zi taqozo etmoqda.
C) Bu asarni keng ommaga tatbiq etish uchun juda ko'p yelib-yugurdi.
D) Yigitlarimiz o'z baynalmilal burchini bajarish uchun harbiy xizmatga olindi.

5. «Alpomish» dostonida Barchin «Saman otli, sarjig'ali bek yigit»ga murojaat qilib nimani so'raydi?
A) poygada g'olib bo'lishini so'raydi
B) to'rt shartini bajarishini so'raydi
C) olti oyga muhlat so'raydi
D) olishmasdan siltab otishini so'raydi

7. Vatan! Taqdiringning toshi bemiqdor,
Aytgin,fido bo'lay qaysi bir toshga?
(Usmon Azim)
Ushbu she'riy parchada nechta sodda yasama so'z qatnashgan?
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2

8. «Husayn Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan, yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi». Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapda muallif gapidan keyin qaysi tinish belgilari qo'llanadi?
A) vergul, tire B) ikki nuqta
C) tire D) nuqta, tire

9. Jomiy «Xamsa»si haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.
1) Dehlaviy «Xamsa»sidan qariyb 100 yil keyin yaratilgan; 2) 7 ta dostondan iborat; 3) beshinchi dostonni «Iskandarnoma» deb nomlagan; 4) birinchi dostonni «Tuhfatul-ahror» deb nomlagan.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4

10. Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
She'riy parchada ishtirok etgan olmoshlarning sintaktik vazifasini belgilang.
A) ega, to'ldiruvchi, hol
B) kesim, ega, aniqlovchi
C) kesim, ega, to'ldiruvchi
D) kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi

11. Quyidagilardan qaysi biri tasavvufiy adabiyotda vasl sarxushligi,ya'ni mastligini anglatadi?
A) ko'zB) Ko'hkan tog'i
C) Xizr suvi D) Jomi Jam

12. Men gilosman, quloq sol, Rangim ol va totim bol.
Topsang qo'shalog'imni, Qulog'ingga taqib ol.
(E. Vohidov)
She'riy parchada qaysi turkumlarga xos birliklar o'rtasida shakldoshlik yuzaga kelgan?
A) ot va sifat B) sifat va fe'l
C) ot va fe'l D) ot, sifat, fe'l

13. «Boburnoma»da «latif shahr» sifatida ta'riflangan shaharni toping.
A) Samarqand B) Andijon
C) Buxoro D) Hirot

14. Quyidagi qaysi gaplarda ravish asosli sodda yasama fe'l ishtirok etgan?
1) Bugun sen ataylab ishga kechikding. 2) Daryo bo'lsang oqqan hayqirib, Kechik bo'lib qolar ekansan. 3) Birov suv topolmaydi ichgani, birov kechik topolmaydi kechgani. 4) Bu yil bahor kechikib keldi.
A) 1, 4 B) 1, 3, 4
C) 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

15. *Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.* Berilgan parchada nechta fe'l tarkibida nisbat qo'shimcha(lar)i so'z yasovchi qo'shimchadan so'ng qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

18. Zamon menga juda qimmat nasihat etdi (1).
Agar bilsang, zamon to'la nasihat erur.
Ajratib ko'rsatilgan so'zlar haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
A) 1-to'ldiruvchi kesim, 2-murakkab ot kesim
B) 1-murakkab ot kesim, 2-murakkab fe'l kesim
C) 1, 2-qo'shma fe'l
D) 1-qo'shma fe'l, 2-bog'lamali ot kesim

19. Turkiston o'lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk - o'zbekdur.
Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) 2 ta sodda gapdan iborat bog'lovchisiz qo'shma gap
B) uyushiq va ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan sodda gap
C) 3 ta sodda gapdan tashkil topgan,ajratilgan bo'lak qatnashgan murakkab qo'shma gap
D) uyushiq bo'lakli sodda gap

20. Tarkibida sifat ishtirok etmagan qo'shma otlarni aniqlang.
1) mingoyoq; 2) achchiqtosh; 3) qizilishton; 4) havorang; 5) oybolta; 6) karnaygul; 7) olaqarg'a.
A) 1, 4, 5, 6 B) 1, 5, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4, 7

21. Quyidagi qaysi gapda vazifadoshlik asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?
A) Bosh omon bo'lsa,do'ppi topiladi.
B) Stol oyog'i pishiq yog'ochdan qilingan.
C) Qozonning qulog'i qiyshayib qolgan ekan.
D) Rentgen apparati natijalarini kutyapmiz.

22. Berilgan qaysi so'zlarda so'zning ma’noli qismlari tartibi odatdagi tartibda joylashmagan?
1) oshirma (sifat); 2) isitma (fe’l); 3) yeyishli (sifat); 4) yoqilg‘i; 5) qaynatma (fe’l); 6) qizg‘anchiq; 7) suyanchiq.
A) 2, 3, 4, 5, 6 B) 2, 5, 6
C) 1, 3, 4, 7 D) 1, 3, 4, 6, 7
23. Sharob ichishni odat qilmaki, u behushlik va g'ofillikka olib boradi.
Ushbu gap yuzasidan bildirilgan qaysi hukm noto‘g‘ri?
A) gapda nomustaqil to‘ldiruvchi ishtirok etgan
B) gapda ikkita yasama fe’l mavjud
C) gapda nomustaqil kesim ishtirok etgan
D) gapda uyushgan bo'lak mavjud
24. Siz bilan bizga Alloh 0‘zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog‘i bor, bog’ desa bog‘i bor, har tongda bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o'zimizni baxtli deb bilmog‘imiz kerak. (O. Sharafiddinov)
Ushbu gapdagi uyushgan bo‘laklarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) kesim B) aniqlovchi
C) to'ldiruvchi (aniqlovchi) D) hol
25. Sharob ichishni odat qilmaki, u behushlik va g‘ofillikka olib boradi, har doim bu odatdan qutilishga harakat qil.
Ushbu gapdagi yasama so‘zlar sonini aniqlang.
A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
26. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.
1) Qofiyalarda, asosan, turkiy so‘zlar qo‘llangan. 2) Asarda faqat to‘q qofiyalar uchraydi. 3) Ba’zan shoir radifdan oldin qofiya keltirib o‘tirmaydi. 4) Asarda misralarni o‘zaro ohangdosh so‘zlar bilan yakunlashga qat’iy amal qilingan.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4
27. Bu bog‘da qushlarning chug‘ur-chug‘uri eshitilmasdi.
Ushbu gapda nechta so‘z hokim bo‘lak vazifasini bajara olmaydi?
A) 4 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 3 ta
28. «Ravshan» dostonida Qoraxon podsho kimdan qo‘rqar edi?
A) Hasanxondan B) Ravshandan
C) Kampirning olti o‘g‘iidan D) to'rtta polvondan
29. Qiz hozirgina o‘zi tanishgan qush bilan so'zlashmoqchi bo‘ldi: - Turnajon, turnajon! Bu yerda nima qilib turibsan? Kechagi turnalar ichida sen ham bormiding? Menga aytib ber-chi, qayerdan kelib qolding?
Ushbu matnda ravishning qaysi ma’no turi qatnashmagan?
A) holat,o‘rin,maqsad-sabab, daraja-miqdor
B) holat,o‘rin,payt,daraja- miqdor
C) holat,maqsad-sabab, daraja- miqdor
D) holat,o‘rin,maqsad-sabab
30. Qaysi so‘zlarda so'zga yangi ma’no beruvchi ikkita qo‘shimcha ishtirok etgan?
1) tunamoq; 2) asabiylashtirmoq; 3) umumiylikda; 4) shildiroq; 5) yasovchi.
A) 2,3,4 B) 1,4,5 C) 2,3 D) 2,4,5
31. Quyidagi gapda kesimga bevosita bog‘langan gap bo‘laklari nechta?
Yosh olim Behbudiyning so‘nggi izlarini do‘stlari bilan boshqa shaharlardan ham qidirgandi.
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta
32. «Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, go‘yat nozli lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg‘otuvchi tashbehlar, o‘tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlardir».
(A. Oripov)
Ushbu e’tirof qaysi o‘zbek shoiri haqida aytilgan?
A) Saida Zunnunova B) G‘afur G‘ulom
C) Hamid Olimjon D) Erkin Vohidov
34. Sening tug‘ilib o‘sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko‘zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilar edim.
Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so‘zlarda necha o'rinda portlovchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?
A) 5 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 4 ta
36. Qadimgi turkiy tilda «To'nyuquq» so‘zi qanday ma’noni anglatgan?
A) ulug‘ xoqon B) to‘ng‘ich shahzoda
C) to‘ng‘ich javhar D) ulug‘ sarkarda
1. Qaysi qatorda qo'shma gapning ikkinchi qismida keladigan vazifadosh bog‘lovchi(lar) qo'llangan?
A) balki B) balki, yoxud, na ... na
C) ammo, lekin, biroq, hamda D) balki, na ... na
2. “Bilimli kishi o‘lsa ham, uning nomi o‘chmaydi, ilmsiz kishining o‘zi hayot bo‘lsa ham, oti o‘likdir”.
Mazkur ibratomuz fikrlar kimning qaysi asarida bayon etilgan?
A) Abay. «Naqliya so‘zlar»
B) Ahmad Yugnakiy. «Hibat ul- haqoyiq»
C) Yusuf Xos Hojib. «Qutadg‘u bilig»
D) Abu Mansur As-Saolibiy. «Yatimat ad-dahr»
3. Baytlari o‘zaro chambarchas bog'liq bo‘lgan, ma’no-mantiq jihatidan kuchli tarzda biri ikkinchisini taqozo etib keladigan g'azallar qanday ataladi?
A) yakpora g'azallar B) voqeaband g'azallar
C) musalsal g‘azallar D) parokanda g‘azallar
4. Chiqimingiz kirimingizdan ortiq bo‘lmasin, chunki chiqimingiz ortiqcha bo‘lsa, qayg‘u keltiradi.
Berilgan gapda egalik qo'shimchalari necha o‘rinda qo'llangan?
A) 6 B) 3 C) 2 D) 5
5. Qaysi shoir bir qozining kirdikorlarini o‘z tilidan aks ettiruvchi g‘azal yozgan?
A) Avaz 0‘tar B) Turdi Farog‘iy
C) Gulxaniy D) Maxmur
6. Quyida berilgan qaysi g‘azal vazni aruzning mafoiylun-mafoiylun-faulun (yoki mafoiyl) vaznida yozilgan?
A) “Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro” kelmadi...»
B) «Jong‘a chun derman: «Ne erdi o’lmakim kayfiyati?...»
C) «Qaro ko‘zum, kelu mardumlig’ emdi fan qilg‘il...»
D) «Ayoqingga tushar har lahza gisu...»
7. Quyidagi qaysi so'zlarda portlovchi tovushning sirg‘aluvchiga o'zgarishi nisbat o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin?
1) bezanmoq; 2) kiyinmoq; 3) tug‘ilmoq; 4) ajratmoq; 5) o‘tkazmoq.

A) 1, 2, 4 B) 2, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 5

8. «Bu yerda yigirmaga yaqin hammol o‘tiradi. Oralarida o‘n to‘rt-o‘n besh yoshli xasta kabi rangsiz, oriq bolalar; yuk ko‘tarish u yoqda tursin, aftidan, o‘zini bazo‘r eplab yuradigan tinka-madorsiz, yelkasi chiqiq, beli bukik chollar ham bor. ... Kimda poxol tiqilgan yaramas kavush yoki tushib qolmasin uchun kanop bilan oyoqqa chandib bog‘langan eski kalish, yo shunga o‘xshash bir narsa».
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Qutlug‘ qon» B) «Mehrobdan chayon»
C) «Me’mor» D) «Kecha va kunduz»

9. Nega yapon yuz yil yashar-u, 0‘zbek buncha yoshga bormaydi? (E. Vohidov)
Ushbu she’riy parchada -u yuklamasi qanday vazifada qo‘llangan?
A) zidlov bog‘lovchisi B) biriktiruv bog'lovchisi
C) inkor bog‘lovchisi D) ayiruv bog‘lovchisi

10. Quyidagi gapda yasama so'zlar soni nechta?
Hamdardlik bir odamning qayg‘u-hasratlariga achinib, o‘zida ham qayg’u hosil qilishidir, lekin quruq va yuzaki hamdardlikning foydasi yo‘q.
A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2 ta

11. «Husayn Voiz Koshifiy Sharqda ma’lum va mashhur shaxs, - deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. - U Navoiyga bag‘ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi».
Berilgan ko'chirma gapli qo‘shma gapning muallif gapi qismida kesim qaysi zamon ma’nosini anglatgan?
A) hozirgi zamon B) kelasi zamon
C) hozirgi-kelasi zamon D) o‘tgan zamon

12. Cho‘lquvarlarni na issiq.na suvsizlik yenga oladi,balki ular o‘z jasoratlari,mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar.
Gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang.
A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

13. O’lmas Umarbekovning qaysi asari detektiv yo'nalishda yozilgan asar hisoblanadi?
A) «Oq qaldirg'och» B) «Odam bo‘lish qiyin»
C) «Urush farzandi» D) «Yoz yomg‘iri»

14. Gap bo‘laklari tartibi haqida berilgan quyidagi fikrlarning nechtasi to‘g‘ri?
1) ilmiy asarlar uslubi uchun gap bo'laklarining odatdagi tartibi mos; 2) badiiy uslub uchun gap bo'laftlarining o‘zgargan tartibi mos; 3) gapdan ko‘zda tutilgan umumiy fikrga qo‘shimcha ma’no, uslubiy yuk berish uchun gap bo‘laklari tartibi o‘zgarishi mumkin; 4) gapda kesimning o‘rni o'zgaymaydi.
A) 3 tasi B) 4 tasi C) 1 tasi D) 2 tasi

15. Jarangsiz jufti mavjud bo'lgan til oldi jarangli undoshlarni aniqlang.
A) d, b, z B) g, d, z, j C) t, s, ch, sh D) z, j, d

16. Qaysi qatordagi xatolik paronimlarni qo'llash bilan bo‘g‘liq xatolik emas?
A) Qanday aytilishidan qat’i nazar bir xil yoziladi.
B) Lahm go'shtlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.
C) To'nning adibini chiroyli qilib tikdi va onasiga ko‘rsatdi.
D) Ta’magir odamlar hayotda faqat o‘zini o‘ylab yashaydi.

17. Soch timsoli tasavvufiy ma’no kasb etgan Navoiy g'azalini aniqlang.
A) «Bo‘ldim sanga» B) “Qilg'il”
C) «Jong‘a chun derman: Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?»
D) «Deyin»

18. Och-yalang‘och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman.
Gap tarkibida nechta so‘z birikmasi mavjud?
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta

19. Qofiya she’riy asarning ohangdorligi va ta’sirchanligini kuchaytiradi, asarning yod olinishini osonlashtiradi.
Ushbu gapda so‘z yasovchi qo‘shimchalar necha o‘rinda ishtirok etgan?
A) 5 B) 6 C) 8 D) 7

20. 1) tunamoq; 2) asabiylashtirmoq; 3) umummiylikda; 4) shildiroq; 5) yasovchi.
Qaysi so‘zlarda so'zga yangi ma’no beruvchi ikkita qo'shimcha ishtirok etgan?
A) 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5

21. Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan, //Ichida chichqonlar bolalab yotgan. // Izidan tushgan pishak oltoyda yetgan, // Munday qalmoq qo‘lin bulg'ab keladi. // «Alpomish» dostonidan olingan ushbu parchada kimning ta’rifi berilgan?
A) Qo‘shquloq B) Boyqashqa
C) Ko‘kaldosh D) Ko‘kaman

22. Qaysi gapda faqat so‘z qo‘llash bilan bog'liq xatolik mavjud?
A) Haq yo'linda kim sanga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
B) U avvaliga biroz hayajonlandi-yu, ammo keyin ravon gapira boshladi.
C) Shunda shoh adolatli farmon chiqaribdi.
D) Uyishiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi.

23. 0‘zbekiston - go‘zal diyor,
Saodatga mehnati yor.
0‘zgacha bir hikmati bor,
Halollikka aytar alyor.
Ushbu she’riy parchadagi otlar haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ikki o‘rinda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajargan
B) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ikki o‘rinda kesim vazifasida kelgan
C) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar faqat bosh bo‘lak vazifasini bajargan
D) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar to‘rt o‘rinda ega vazifasida kelgan

24. Asarning bosh g'oyasi atrofida markazlashgan davlat qurish, insonparvariik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, adolat, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli janglarni qo‘zg‘ash, yovuzlik, munofiqlikni qoralash g‘oyalari ham ilgari suriladi. Ushbu gapda nechta yasama ot mavjud?
A) 8 B) 9 C) 7 D) 10

25. Qaysi maqolda antonim sifat qo‘llangan?
A) Bilgan topib gapirar, bilmagan qopib.
B) Bir azobning bir rohati bor.
C) Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin!
D) Olqish olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir.

26. Har xil so‘z turkumi bilan ifoda qilingan payt holi

uyushgan gapni aniqlang.
A) Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo‘liga olar, suyar
va yuzlarini, sochlarini silab qo‘yar edi.
B) Siz ertalab, tushlikdan so‘ng bu dorini iste’mol qiling.
C) Oradan ikki yil o‘tgandan keyin, oltmish yoshga yetgandan keyin, eski kasali yana qo‘zg‘adi.
D) Salima kecha ertalab biznikiga kelib ketdi.
27. Mirmuhsinning «Degrez o‘g‘li» asari qaysi janrda yozilgan?
A) roman B) hikoya C) qissa D) doston
28. Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko‘z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o‘quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.
Berilgan parchada nisbat qo'shimchalari olgan fe’llar haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
A) 3 ta fe’l orttirma nisbatda, 2 ta fe’l majhul nisbatda
B) 5 ta fe’l orttirma nisbatda
C) 2 ta fe’l orttirma nisbatda, 3 ta fe’l majhul nisbatda
D) 3 ta fe’l orttirma nisbatda, 1 ta fe’l majhul nisbatda, 1 ta fe’l aniq nisbatda
29. Mehnat kishini uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan,muhtojlikdan. Berilgan gapda fe’llarning asosidagi sirg‘aluvchi undosh tovushlar miqdori nechta?
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 6 ta
30. Qaytar bo‘lsam quruq qo‘l ovdan,
Qora qozon qolsa qaynovdan,
Ham ayrilib o‘lja, ulovdan,
Qarzga botar bo‘lsam birovdan,
Taskin berib onam yig'laydir,
Qolganlari yolg‘on yig'laydir. (To‘ra Sulaymon)
Ushbu she’riy parchadagi fonetik o'zgarishlar haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
A) 1 o‘rinda tovush almashishi, 3 o‘rinda tovush tushishi sodir bo‘lgan
B) 2 o‘rinda tovush almashishi, 3 o‘rinda tovush tushishi sodir bo‘lgan
C) 2 o'rinda tovush almashishi, 2 o'rinda tovush tushishi sodir bo‘lgan
D) 3 o‘rinda tovush almashishi, 2 o‘rinda tovush tushishi sodir bo‘lgan
31. <u>Shirin-shirin</u> gap o‘rnida shirin-shirin ashuladan bo‘lsin,opa. Berilgan gapda ajratib ko‘rsatilgan so'zlar ma’nosi qaysi usulda ko‘chgan?
A) metafora B) metonimiya
C) vazifadoshlik D) sinekdoxa
32. «Nima bo‘ldi bu juvonga? Ertadan kechgacha kundoshlari bilan o‘pishadi,gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi. Qor yoqqandan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqdi ... Uchtasi bilan qorxat o‘ynab yutdi ... Nima balo bo‘ldi bu juvonga».
Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu fikrlar kim haqida yozilgan?
A) Xadichaxon B) Poshshaxon
C) Zebi D) Sultonxon
33. Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi tinish belgilarining qo‘llanish sabablari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
Shirinsuxan,oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
1) uyushiq bo‘laklarning oldidan umumlashtiruvchi so‘z kelgani uchun ikki nuqta qo‘yilgan; 2) uyushiq bo‘laklar qo’llangani uchun vergul ishlatilgan; 3) sodda gaplarda mazmunan unchalik yaqin bo‘lmagan voqea-hodisalar ifodalanganligi uchun ular orasiga ikki nuqta qo‘yilgan; 4) gapda ajratilgan bo‘lak qatnashgani uchun vergul qo'llanilgan; 5) bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari o‘rtasida izohlash munosabati ifodalangani uchun ikki nuqta qo‘yilgan.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 2, 5
34. Miqdor-daraja ravishi qatnashmagan gapni toping.
A) Kunduzi o‘ralashib yurganlardan bu yerda qittay ham qolmagan.
B) Qaddini rostlab, eshikni uch marta taqillatdi.
C) Chol va kampir behad sevinishibdi.
D) Bo‘ying sal cho‘zilsin, bironta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshirardim.
35. *Jahonda nimaiki oq bo‘lsa, unga* ona suti *timsol; nimaiki jo'shqin bo‘lsa, unga ham* ona mehri *timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo‘lsa,* ona irodasi *timsol; kimki pok muhabbat da’vo qilsa,* onaning pok qalbi *timsol.* Berilgan gapda nechta moslashuvli so‘z birikmasi mavjud?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 2
36. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan?
Shabistonida tug'di bir yangi oy, Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.
A) tajnis B) istiora
C) tarse’ D) harfiy san’at
1. Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida portlovchi tovush tushishi kuzatilgan?
A) Sovuqning shashti pasayib, quyosh yana nur sochdi.
B) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo‘lmaydi.
C) Mehnat qilsang,ko‘nglingga yorug'lik tushadi.
D) Odamlar chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas,balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.
2. «Ayamning hadeganda tilga chiqavermaydigan allanechuk og‘ir pinhoniy bir dardi bor edi. Ko'pincha ishdan qaytib, huzurlariga kirsam,ko'zlari namiqqan,yuzlari tund bo‘lar edi. - Yana yig‘ladingizmi, aya? - Yo'q, bolam, nega yig‘lay? Shunchaki siqildim-da, - derdilar ayam shikasta ovozda».
Ushbu tarjimayi hol qaysi adib hayotiga aloqador?
A) O‘tkir Hoshimov B) Tohir Malik
C) Ozod Sharafiddinov D) Shukur Xolmirzayev
3. Qizil poyandoz to‘shalgan keng xonaga kirishgach,to‘rga yotqizib qo‘yilgan bemorga yaqin borishdi,bir ayol bemorning og‘ziga suv tomizib turardi. Ushbu gapda qo‘llangan fe’lning nisbat qo'shimchalari haqida berilgan to‘g‘ri hukmni toping.
A) 1 o‘rinda o'zlik, 1 o‘rinda majhul, 2 o‘rinda orttirma, 2 o‘rinda birgalik nisbat qo‘shimchasi qo‘llangan
B) 2 o'rinda majhul, 2 o'rinda orttirma, 2 o'rinda birgalik nisbat qo‘shimchasi qo‘llangan
C) 2 o‘rinda o‘zlik, 2 o‘rinda orttirma, 2 o'rinda birgalik nisbat qo‘shimchasi qo'llangan
D) 2 o'rinda majhul, 1 o'rinda orttirma, 2 o'rinda birgalik

nisbat qo'shimchasi qo'llangan
4. Quyida berilgan so'zlardan so'z ma’nosini jarangsiz undosh o'rnida jarangli sirg'aluvchi til undoshi orqali farqlash mumkin bo'lganlarini aniqlang.
1) dars; 2) abzal; 3) yaroqli; 4) siqim; 5) soliq.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 5
C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4
5. Takabburlik va zulm - ulug'likning ofati,muloyimlik va tavoze - insonning ziynati,sharm- hayo uning go‘zal,yoqimli libosidir. Berilgan gapda yasama otlar qaysi so'z turkumidan yasalganligini aniqlang.
A) faqat sifat B) fe’l, ot, sifat
C) ot va sifat D) fe’l va sifat
6. Qaysi javobdagi gapda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalarga rioya qilingan?
A) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.
B) Do'sting mingta bo'lsa ham oz: dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.
C) Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi - yulduzlar o'z rangida xira miltirab turaverdi.
D) Mard bir o'lar, nomard ming.
7. Quyidagi qaysi ijodkorning ilk asari hikoya janrida yozilgan?
A) Oybek B) O’lmas Umarbekov
C) Turob To‘la D) Mirmuhsin
8. Men chekib anduh, o‘lay, el joni bo'lsin ul Masih, Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo‘l.
Berilgan baytda qo‘llangan she’riy san’atlarni toping.
A) ruju‘, tashbeh B) talmeh, tazod
C) tanosib, irsoli masal D) kitobat, muammo
9. Cho‘lponning tarjimalari to‘g‘ri ko'rsatilgan qatorni toping.
A) «Dubrovskiy», «Ona», «Yevgeniy Onegin»
B) «Tergovchi»,«Feruza», Osilgan yetti kishining hikoyasi»
C) «Tergovchi», «Boris Godunov», «Otello»
D) «Haqiqiy kun qachon keladi», «Osilgan yetti kishining hikoyasi», «Dubrovskiy»
10. Agar ko'chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, ko‘chirma gapdagi qaysi sintaktik birlik to'ldiruvchi vazifasini bajaradi?
A) ega B) undalma
C) aniqlovchi D) to‘ldiruvchi
11. She’rlaridan birida nonning azizligiga olov sababchiligi bilan insonning azizligiga yerga to‘kilgan manglay teri sabab ekani borasidagi parallel tasvirlarni ifodalagan ijodkorni aniqlang.
A) Ibroyim Yusupov B) Mirtemir
C) Xayriddin Saloh D) Saida Zunnunova
12. Qaysi javobda keltirilgan gapda narsa otlari yasovchi qo'shimcha mavjud?
A) Zargarlik tarozisi ota meros aslida.
B) Mashinada kichkina sovitkich ham bor edi.
C) Opasi savatda olma,behi, anor olib kirdi.
D) Baqqollar.nosvoychilar jazirama oftob tig‘ida o'tirishardi.
13. Taqillaydi eshik nogohon,
Kimsan?- deyman tugab sabotim.
- Ochgil, - deydi. - Bu - men, qadrdon.
Bilmoq bo'lsang, Bardoshdir otim.
Ushbu gap haqidagi noto‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) beshta egasi yashiringan gap bor
B) to‘rtta fe’l kesimli egasi yashiringan gap bor
C) bitta fe’l kesimli gap tarkibida ega qatnashgan
D) ikkita ot kesimli egasi yashiringan gap bor
14. Do‘stlikni e’zozlashning zarur shartlaridan biri do‘stlar bilan uchrashib turishdir. Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug'ilgan kunlar, to‘ylar bilan bir qatorda, do'stona yig'inlar ham bu munosabatlarni mustahkainlaydigan vositadir. Berilgan parchada nechta so‘z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
A) 6 B) 5 C) 7 D) 4
15. «...kambag‘allik tufayli o‘zi orzu qilmagan diniy maktabga o'qishga kirishga majbur bo‘ladi. Chunki bu yerda o‘quvchilarga ovqat va kiyim-kechak tekin berilar edi. Shunday bo‘lsa-da, ... bu maktabda ikki yildan ortiq o‘qiy olmaydi».
Ushbu ma’lumot quyidagi qaysi ijodkor hayoti haqida?
A) Vilyam Shekspir B) Janni Rodari
C) Jonatan Svift D) Hans Kristian Andersen
16. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.
Otli so‘z birikmalari nechta?
A) 3 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 4 ta
17. Sifat va ravish yasovchi sifatida o‘zaro omonimlik xususiyatini namoyon qila oladigan qo'shimchalarni aniqlang.
1) -siz; 2) -lab; 3) -in; 4) -chak.
A) 1, 3 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
18. Jahon adabiyoti namoyandasi Ernest Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo‘rg‘a» asarida kim «yovvoyi yo‘rg‘ani tutib kelgan odamga ming dollar beraman», deb va’da beradi?
A) Foster B) Berns
C) Jo Kalon D) Montgomer
19. Shunisi xarakterliki, shimpanze oqqushni ko‘rganda beixtiyor «suyuqlik» va «qush» ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga «kalit- ochish-ovqat» ishoralari bilan murojaat qilganligi aytiladi. Berilgan gapda fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so'zlar miqdori nechta?
A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta
20. Tug‘ilib o‘sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko‘zim yetmasdi,buni hammadan ham men juda yaxshi bilardim. Ushbu gapda fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so'zlarda necha o'rinda sirg‘aluvchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?
A) 7 ta B) 9 ta C) 10 ta D) 8 ta
21. Quyidagi she’riy parcha qaysi vaznda yozilganligini aniqlang.
Qayu begda bo‘lsa bu arquq qilinch,
Ishi barcha tetru sevinchi saqinch.
A) ramali musammani mahzuf
B) mutaqoribi musammani maqsur
C) hazaji musaddasi mahzuf
D) mutaqoribi musaddasi maqsur
22. Shabistonda tug‘di bir yangi oy,
Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.
Ushbu parcha Navoiy «Xamsa»sidagi qaysi qahramon haqida, baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan?

A) Farhod haqida, istiora
B) Shirin haqida, istiora
C) Mehr haqida, ishtiqoq
D) Dilorom haqida, tashbeh

23. Ogahiyning «Dahr uyi bunyodkim,suv uzadir mahkam emas» tarji'bandining har bir bandi necha misradan iborat?
A) olti misra B) besh misra
C) yetti misra D) to'rt misra

24. Qaysi gap(lar)da yuklamaga xos birliklar bog'lovchi vazifasida kelmagan?
1) Xullas,hammasi ko'ngildagidek borayotgan edi-yu,to'satdan ikkovlari ham shaharga,o'z uylariga qaytish fikriga tushib qolishdi.
2) Cheksiz,adabiy makon-u zamon ichra mavjudlik ulug' baxtim va olam-u o'zni anglamaslik ulug' dardimdir.
3) Sekin unga yaqin bordim: bu manzara bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon!
4) Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib,sahnaning o'rtasiga keldi-da,nimanidir e'lon qildi.
A) 2,3,4 B) 1,2,3,4 C) 3 D) 2,3

25. Boyvachcha o'z ishidan uyalib,tavba qilibdi va keksa ota-onasini rozi qilish uchun o'sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi.
Ushbu gapda nechta yasama fe'l ishtirok etgan?
A) 1 B) 2 3 D) 4

26. Lutfiy g'azallaridan qaysi biriga Nodira o'xshatma yozgan?
A) «Xoh inon, xoh inonma» radifli g'azaliga
B) «Ayoqingga, tushar har lahza gisu» g'azaliga
C) «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» radifli g'azaliga
D) «Ne bo'lursan» radifli g'azaliga

27. Shermuhammad Munis qalamiga mansub asarlar berilgan javobi toping.
A) «Arnalar», «Savodi ta'lim»
B) «Saodat ul-iqbol», «Munis ul-ushshoq»
C) «Gulshani davlat», «Munis ul-ushshoq»
D) «Savodi talim», «Ta'viz ul-oshiqin»

28. «Alpomish» dostonida «...Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, chovkar otli...» ta'rifi kimga nisbatan ishlatilgan?
A) Ko'kaldoshga nisbatan B) Yortiboyga nisbatan
C) Qorajonga nisbatan D) Alpomishga nisbatan

29. Oybek qalamiga mansub tarjimalarni toping.
A) «Yevgeniy Onegin», «Dubrovskiy», «Zamonamiz qahramonlari»
B) «Dubrovskiy», «Maskarad», «Yevgeniy Onegin»
C) «Maskarad», «Sosunli Dovud», «Yevgeniy Onegin»
D) «Boris Godunov», «Yevgeniy Onegin», «Sosunli Dovud»

30. Qo'shimchasi yordamida sifat yasash mumkin bo'lgan so'zni aniqlang.
A) tinch B) jannat
C) boy D) do'st

31. Choyni nari-beri ichib, otxonaga yugurdim.
Berilgan gapda qanday so'z turkumlariga oid so'zlar ishtirok etgan?
A) 1 ta ot, 3 ta ravish, 2 ta fe'l
B) 1 ta ot, 2 ta ravish, 2 ta fe'l
C) 2 ta ot, 1 ta ravish, 2 ta fe'l
D) 2 ta ot, 2 ta ravish, 2 ta fe'l

32. Qaysi maqolda to'rt o'rinda yasama so'z qo'llangan?
A) Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.
B) Birni ko'rib, fikr qil,
Birni ko'rib, shukur qil.
C) Nonni katta tishlasang ham, gapni katta, gapirma!
D) 0'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.

33. Qaysi adibning birinchi qissasi «Tengdoshlar» nomi bilan nashr etilgan?
A) Pirimqul Qodirov B) Odil Yoqubov
C) 0'lmas Umarbekov D) Said Ahmad

34. Qaysi gapda mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan?
A) Yuragiga go'zallikdan bahra olish tuyg'usini quydi.
B) Bizga va sizga bu hayotni mustaqillik berdi.
C) 0'z tilini sevgan inson uning kelajagi uchun qayg'uradi.
D) Buni sizga qanday aytishni bilmadik.

35. Otaga shunday o'g'il zarurki,u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin.
Ushbu ergashgan qo'shma gap turini toping.
A) ega ergash gapli qo'shma gap
B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

36. Men titrog'imni bosolmasdim, yuragim o'ynab ketayotgan edi. Suhbatdoshim esa mening bu ahvolimga parvo ham qilmasdi, mudroq kayfiyat bilan o'tirardi.
Ushbu matndagi so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?
A) 10 B) 13 C) 12 D) 11

1. Bizgacha qaysi shoir turkiy (o'zbekcha) devonining XVI - XX asrlar mobaynida ko'chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan?
A) Atoiy B) Lutfiy
C) Gadoiy D) Navoiy

2. Qaysi gapda ham yetakchi fe'l qismi ham ko'makchi fe'l qismining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan yetakchi va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
A) Taxtga chiqqach, adolat bilan ish tutibdi.
B) Ko'klamning daragi kelmasdan ayvonga ko'chib o'tdi.
C) Qo'qonga nonushta mahali yetib keldik.
D) Dadasining qo'lidan ushlab, dikir-dikir sakrab o'ynoqlab keta berdi.

3. Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov. She'riy parchada ishtirok etgan olmoshlarning sintaktik vazifasini belgilang.
A) kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi
B) ega, to'ldiruvchi, hol
C) kesim, ega, to'ldiruvchi
D) kesim, ega, aniqlovchi

4. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
Ushbu baytda tushum kelishigi qay tarzda qo'llangan?
A) bir o'rinda belgili, bir o'rinda belgisiz
B) ikki o'rinda belgili, ikki o'rinda belgisiz
C) bir o'rinda belgili, ikki o'rinda belgisiz
D) ikki o'rinda belgili, bir o'rinda belgisiz

5. A. Borovkovning e'tirof etishicha, qaysi asar eski o'zbek tilining eng yorqin namunasi hisoblanadi?
A) «Qissasi Rabg'uziy» B) «Xusrav va Shirin»
C) «Tafsir» D) «O'g'uznoma»

6. Sohibqiron ayol qadriga, go'zalligiga samimiy muhabbat bilan qaragan.

Ushbu gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?
A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 8 ta

7. Qaysi dostonda ota o'z o'g'lini «nor kalla qo'chqor» deb ataydi?
A) «Ravshan» B) «Kuntug'mish»
C) «Alpomish» D) «Rustamxon»

8. Qaysi javobdagi gapda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalarga rioya qilinmagan?
A) Quyoshning uyg'onishi sen ta’riflagandan ham antiqa: tong nihoyatda go'zal bo'ladi.
B) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, barchamiz bitta, yurtning farzandlarimiz.
C) Uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik - hammasini eplaydi.
D) Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi.

9. Quyidagilardan teng munosabatli bo'g'lanishda bog'lovchi vosita sifatida ishtirok eta oladigan vosita(lar)ni toping.
1) bilan; 2) -u(-yu); 3) balki; 4) -im; 5) -di; 6) -miz.
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 4 D) 1, 2

10. Esib keldi Sharqdan bahorning yeli,Jahon ko'rki- chun ochdi firdavs yo'li. Ifor to'ldi bo'z yerga kofur ketib, Bezanmoqchi dunyo chiroy kasb etib. Ushbu misralar orqali bahorni madh etgan shoir nomini toping.
A) Yusuf Xos Hojib B) Ogahiy
C) Mahmud Koshg'ariy D) Rabg'uziy

11. Baytlari mantiqan ketma-ketlikka ega bo‘lgan g‘azallar qanday ataladi?
A) yakpora g‘azallar B) parokanda g‘azallar
C) voqeaband g‘azallar D) musalsal g‘azallar

12. Nuqtalar o‘rniga chuqur til orqa undoshi yoziladigan so'zlar to‘liq ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) a..loq; 2) hol-a..vol; 3) ..atti-harakat; 4) ..okkey; 5) ..ushyorlik; 6) ..iylakor.
A) 1, 3 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4, 5, 6

13. Ergash gapi egasi noma’lum gap bo'lgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
A) Dushman oz deb g‘ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko‘p o‘tinni ozgina o‘t kuydiradi.
B) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa,aybni o‘zingizdan qidiring.
C) Odamning shunday do‘stlari bo‘ladiki, ularning har biri bilan fe’liga qarab gaplashishga to‘g‘ri keladi.
D) Har kishi el uchun topsa agar ranj,
Oqibat muyassar bo‘lar unga ganj.

14. To‘plamda ko‘p rivoyat qilgan sahobalar alohida beshlikni tashkil etadi.
Gapdagi mustaqil so'zlar miqdorini aniqlang.
A) 6 ta B) 9 ta C) 8 ta D) 7 ta

15. «Yulduzim», “Yo‘l», «Tug‘ilish» kabi she’rlar muallifini toping.
A) Saida Zunnunova B) Zulfiya
C) Asqad Muxtor D) Erkin Vohidov

16. Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,
0‘zbegim, jon o‘zbegim.
Ushbu parchada nechta sodda gap ishtirok etgan?
A) 5 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

17. Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur,
Mino tog‘idin akkasifat hakkalab o‘ttum.
Ushbu misralarda qo‘llangan she’riy san’atlarni aniqlang.
A) tashbeh, tarse’ B) mubolag‘a, tazod
C) mubolag‘a, tashbeh D) tanosib, tazod

18. Qadim zamonda kushoniylar davlatida pahlavon Shukriolloh ismli sarkarda yashagan va uning dovrug'i ellarda doston ekan. Sarkarda jangga sovut- dubulg‘asiz, qalqonsiz kirar hamda bu jangda uning qo‘shini hamisha g‘alaba qilarkan. Bir kuni temirchi sarkardaning iltimosiga ko‘ra unga qalqon, sovut yasab beribdi va u navbatdagi jangda hammani hayron qoldirib, qalqon, sovut kiygan holda qilich bilan paydo bo‘libdi. Shunda atrofdagilar ajablanib: «Ey sarkarda, bu holda hech jangga kirmas edingiz-ku?!» - deyishibdi.
Sarkarda bir xo‘rsinib javob beribdi: «Janglarda meni duo qilib turguvchi onaizorim olamdan o‘tdilar. U kishining duolari menga qalqon, sovut, dubulg‘a edi. Endi u kishi yo‘qlar...».
Berilgan matnda qaysi bo‘lak uyushish holati kuzatilmaydi?
A) to'ldiruvchi B) ega C) hol D) kesim

19. Qaysi qatorda yasama fe’l vositasiz to‘ldiruvchiga bog’lanib kelgan?
A) Bu ovoz hali mag‘zi ilimagan dalalarga, osmondagi oqimtir yulduzlarga tegib aks-sado berayotgandek edi.
B) U o‘z savollariga javob beradigan odamni kutib kunni kech qildi.
C) Yoqimli yoz shabadasi endigina unib chiqqan yosh nihollarga huzur bag‘ishlardi.
D) Bola boshini qo‘llari orasiga to‘yib, Boysun tog‘i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi.

20. Vatan mening jon-u tanim, sajdagohimdir,
U mening to‘lin oyim, tinch- omonim,
Izzatim, sharafim, Ka’bam, qiblam hamda gulistonimdir.
(A. Fitrat) Berilgan she’riy parchadagi yasama so‘zlar haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.
A) 1 ta ot, 2 ta sifat B) 2 ta ot, 2 ta sifat
C) 2 ta ot, 3 ta sifat D) 2 ta ot, 1 ta sifat

21. «...shu qadar qizg‘in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar «...»ni yozib bitirdi».
Adabiyotshunos olim Homil Yoqubov ushbu parchada qaysi ijodkor asari yaratilishi haqida fikr bildirgan?
A) Shuhrat, «Oltin zanglamas»
B) Abdulla Qodiriy, «0‘tkan kunlar»
C) Cho‘lpon, «Kecha va kunduz »
D) Oybek, «Qutlug’ qon»

22. Ayiruv bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog‘lamagan gapni aniqlang.
A) Men kuyladim goh dilda kadar,Goh sevinib she’r to‘qiyman men.
B) Yo urug‘ aynigan,yo agrotexnika qoidalari buzilgan.
C) Polvonlar epchillikda bir- biridan o‘tadi,goh unisi,goh bunisi yutadi.
D) Har kuni oqshomda bu yo‘ldan goh paxta dalasidan qaytayotgan terimchilar o‘tib qoladi,goh paxta ortgan traktorlar и yoqdan bu yoqqa g'izillaydi.

23. Toshkentda «Mustaqil 0‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an‘anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur gapda ikki nuqta qo'yilish sababini toping.
A) izohlash ma’nosida
B) shaklan tugallangan gap bo‘lganligi uchun
C) ravonlik,muxtasarlikni ta’minlash maqsadida
D) ma’lumotlar bir-biriga yaqin bo‘lmaganda

24. Bolalikdan boshlangan do‘stlik insonning keyingi ulg‘aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do‘stlari orasida alohida ahamiyatga ega.
Gapdagi yasama so'zlardan nechtasi faqat til undoshlari va unli tovushlardan tashkil topgan?
A) 5 B) 3 C) 2 D)4

25. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostoni haqidagi qaysi ma’lumotlar to‘g‘ri emas?
1) Asarning Vena nusxasi Hirotda ko‘chirilgan. 2) Asarning Vena nusxasini sharqshunos Valizoda fanga ma’lum qilgan. 3) Asarning Namangan nusxasi qo‘lyozmasini atoqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat Muhammad hoji Eshon Lolareshdan olishga muyassar bo‘lgan. 4) Asarning Vena

nusxasini Jaubert Amadee sotib olib, Venadagi saroy kutubxonasiga keltirgan.
A) 3, 4 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 4
26. Quyida berilgan qo‘shimchalardan nechtasi turli so‘z turkumi doirasida omonimligini namoyon qila oladi?
-i, -chi, -miz, -ng, -choq, -ik, -qin
A) 4 tasi B) 7 tasi C) 6 tasi D) 5 tasi
27. 1) Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduradi. 2) Zaharli kinoyalar bilan suhbatdoshini chaqib ola boshladi. 3) Yaxshi emas danakni tishda chaqmoq.
Ushbu gaplarda ishtirok etgan chaqfmoq) so‘zi haqida berilgan to‘g‘ri hukmni toping.
A) 2- va 3-gaplardagi chaqmoq so‘zi bir so‘zning turli ma’nolar: bo‘lib, 1-gapdagi chaqmoq so‘ziga, nisbatan shakldosh so‘zlar sanaladi.
B) “Barcha gaplarda chaqmoq so‘zi bir so‘zning turli ma’nolar: sifatida qo‘llangan.
C) Har uchala gapdagi chaqmot; so‘zi o‘zaro shakldosh so‘zlar sanaladi.
D) 1- va 2-gapdagi chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma’nolar: bo'lib, 3-gapdagi chaqmoq so‘ziga nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi.
28. Nodira qaysi g‘azalida yorining tik qomatini yoki, aksincha,ishqiy iztiroblari oqibatida o‘zining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mumtoz she’riyatimizda an’anaviy bo'lgan daraxtlar («sarvi ozod», «sarvi noz», «naxli oh», «shoxi shamshod») timsollaridan mahorat bilan foydalanadi?
A) «Vasl uyin obod qildim...»
B) «Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...»
C) «Kel, dahrni imtihon etib ket...»
D) «Doda, keldim...»
29. Qaysi so‘roq gap tarkibidagi barcha yasama, so'zlarning yasalish asosi yasama sifatdan iborat?
A) To‘g‘riso‘zlik, poklik va muloyimlik deganda nimani tushunasiz?
B) Mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, samimiylikning nima ekanligini bilish muhim.
C) Yoshlar ziyraklik, shirinso‘zlik, yumshoqlik kabi xislatlarni qabul qilyaptilarmi?
D) Bunyodkorlik, yaratuvchanlik, sofdillikning ma’nosi nima?
30. Qilichlarning tillarida qizil qon,
Buloqlarning suvi yanglig’ toshdimi?
Yalang bola, yalang go‘dak - ma’sum jon Nayzalarning boshlaridan oshdimi?
degan misralar Cho‘lponning qaysi she’ridan o‘rin olgan?
A) “Yong‘in” B) «Vijdon erki»
C) «Kishan» D) «Qalandar ishqi»
31. Qaysi so'zga fe’l yasovchi qo‘shimcha qo'shilganda so‘z imlosida fonetik hodisa kuzatilmaydi?
A) yig‘i B) qiyin
C) ong D) yalt
32. Cho'lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o‘z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar.
Gapdagi sodda yasama so‘zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) to‘ldiruvchi, ega, kesim B) ega, kesim
C) to'ldiruvchi, ega, hol D) ega
33. Faqat ochiq bo‘g‘inlardan iborat bo‘lgan so‘zni aniqlang.
A) orfografiya B) monografiya
C) dangasalik D) suverenitet
34. «Mehrobdan chayon» romanida «Qarg'a qarg'aning ko‘zini cho‘qur ekanini?» maqoli kimlar haqida aytilgan?
A) Anvar va Sultonali haqida
B) mulla Abdurahmon, Kalonshoh va Shahodat mufti haqida
C) Xudoyorxon va Anvar haqida
D) Solih maxdum va Anvar haqida
35. Qaysi javobda g'azal va qit’a janriga xos xususiyatlar noto‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1) g'azal a-a, b-a, c-a... tarzida, qit’a esa a-b, c-b, d-b... tarzida qofiyalanadi; 2) qit’aning hajmi ham, g‘azalning hajmi ham qat’iy belgilangan; 3) g‘azalda mavzu chegaralanganroq, qit’ada esa shakl va mazmun jihatidan erkinlik ko‘p, mavzu doirasi chegaralanmagan; 3) qit’ada shoir taxallus qo‘llashi umuman uchramaydi, g'azalda esa shoir har doim taxallus qo‘llashi shart.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 2
36. Alisher Navoiyning qaysi g'azali maqta’sida «Navoiy» so‘zi bilan o‘zakdosh so‘z vositasida ishtiqoq san’ati yaratilgan?
A) «Bo‘l» radifli g‘azalida
B) «Qilg‘il» radifli g‘azali
C) «Bo‘ldum sanga» radifli g‘azali
D) «Kelmadi» radifli g‘azali
1. 0‘zlik nisbat qo‘shimchasi ta’sirida o'timsiz fe’lga aylangan fe’llar qatorini aniqlang.
A) kiyindi, tarqaldi B) yuvildi, cho'zildi
C) yuvindi, tarandi D) quvontirdi, jilmaytirdi
2. Qaysi javobda noto‘g‘ri fikr berilgan?
A) Fe’l nisbati qo‘shimchalari ta’sirida so‘zda tovush tushishi mumkin.
B) Sonning ma’no turini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.
C) -v, -q, -qi qo'shimchalari fe’lga qo‘shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.
D) Asos tarkibidagi unli tovush tushishi faqat egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda kuzatiladi.
3. 0‘n oykim, so'nmishdir u tanish na’ra.
Hamon firog'ida fig‘on chekar Shosh.
Bahor kelayotir, bosh ko'tar, qara,
Falak ishiga boq: bir haftada gul
Chiqdi, g‘unchaladi, kuldi, to‘kildi...
Ushbu she’riy parchada ikki nuqta qo‘yilish sababi to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.
A) bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘lmagani uchun
B) bog‘lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganligi uchun
C) gapdagi uyushiq bo‘laklardan oldin umumlashtiruvchi bo‘lak qo‘llanganligi uchun
D) bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalganligi uchun
4. Tinish belgisining qo‘yilish qoidalariga rioya qilingan bog'lovchisiz qo‘shma gapni aniqlang.
A) Oyim endi o‘rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi.
B) Ilmsiz inson - mevasiz daraxt, shuning uchun bilganlaringni kelgusi avlodga yozib qoldirishga harakat qil.
C) Qor yog‘di, go‘yo don yog‘di.
D) Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling - odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin.
5. To‘dalab, guruhlab ko‘rsatuvch oraonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan o‘lchov so'zlarni aniqlang.
A) og‘iz, tilim, chaqmoq B) qisim, bo‘lak, chimdim
C) to‘p, bog‘, tilim D) to‘p, bog‘, dasta
6. Quyidagi gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?
Ishlarni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bog'liq.
A) 8 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 6 ta
7. U o‘z vataniga muhabbatni va yurt taqdiri haqida yozilgan fikrlarni, falsafiy-badiiy mushohadalarni she’riy satrlarda ushbu to‘plamga jamlagan.
Ushbu gapdagi moslashuv usuli bilan bog‘langan tobe

bog'lanishlar sonini toping.
A) 1 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta
8. Qaysi javobda orttirma nisbat qo‘shimchasi o‘timsiz yasama fe’llarga qo‘shilgan?
A) ta’mirlatmoq, sarflatmoq B) o‘xshatmoq, sakratmoq
C) kiyintirmoq, bezantirmoq D) kuchaytirmoq, changitmoq
9. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo‘lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, Babr-toqatli bo‘lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da’vo qilsa, onaning pok qalbi timsol.
Berilgan gapda olmoshlarning sintaktik vazifasini ko‘rsating.
A) aniqlovchi, to‘ldiruvchi B) ega, hol
C) ega, to'ldiruvchi D) hol, aniqlovchi
10. Qaysi gapdagi xatolik tinish belgisi bilan bog‘liq emas?
A) Respublikaning Ma’naviyat va ma’rifat kengashi, hozirda Inson huquqlari milliy markazi, Oila markazi, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar bilan birga mafkuraviy ishlarni kuchaytirmoqda.
B) Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib Xamsa yozgan ijodkor Imyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir.
C) Polyak olimi Yer, Quyosh ntrofida aylanishiga doir nazariyaga asos soldi.
D) 31 avgust kuni Toshkent shahridagi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida qatag‘on qurbonlarini yod etish inarosimi o‘tkazildi.
11. Qaysi maqolda sinonim qo‘shimchalar ishtirok etgan?
A) Nomard bo‘lib ko‘pga kirguncha, mard bo‘lib o‘lgan yaxshi.
B) Befoyda so‘zni aytma, foydali so‘zdan qaytma.
C) Benuqson do‘st axtargan do‘stsiz qolar.
D) Bevafo do‘stdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq yaxshi.
12. Zolimmi, ablahmi otasi Nasibaga har yili kiyim xarid qiladi, o‘g‘lim bo‘lsa pochasi ilma-teshik shim kiyib yuribdi.
Gapda ishtirok etgan yasama so‘zlar soni va turkumi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
A) 1 ta ravish, 1 ta sifat, 1 ta ot
B) 1 ta ravish, 1 ta sifat, 1 ta fe’l, 1 ta ot
C) 1 ta ravish, 2 ta sifat, 1 ta ot
D) 2 ta sifat, 2 ta fe’l, 1 ta ravish, 1 ta ot
13. Yeseninning «Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan» she’rida kimga «mezbon» deb murojaat qilinadi?
A) choyxonachiga B) ohu ko‘zli gulruxsorga
C) karvonsaroy egasiga D) soqiyga
14. Navoiyning «Xamsa» asaridagi «Sab’ai sayyor» dostonida Bahrom oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirdan qaysi hikoyatni tinglaydi?
A) Mehr va Suhayl haqidagi
B) Muqbil va Mudbir haqidagi
C) Sa’d jasorati haqidagi
D) Zayd Zahhob haqidagi
15. Sultonxon Rustamxon haqida «Oti Rustam, o‘zi nor kalla qo'chqor» deb kimga aytadi? («Rustamxon» dostoni)
A) Huroyimga B) Ximcha kanizga
C) qalandarlarga D) Oftoboyga
16. Sharob ichishni odat qilmaki,u behushlik va g‘ofillikka olib boradi.
Ushbu gap yuzasidan bildirilgan qaysi hukm noto‘g‘ri?
A) gapda nomustaqil to‘ldiruvchi ishtirok etgan
B) gapda ikkita yasama fe’l mavjud
C) gapda nomustaqil kesim ishtirok etgan
D) gapda uyushgan bo‘lak mavjud
17. Qaysi javobda ega qatnashmagan undalmali gap berilgan?
A) 0,Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?
B) Yetar,ey cholg‘uvchi,bas qil sozingni.
C) 0‘sha damgi iqbolim ham, onajonim, sengadir.
D) Nechun kerak,rubob,senga shuncha g‘am?
18. Me’yorni ko‘p buzar odam bolasi,
Uning kattasidan kichigigacha...
Ushbu she’riy parchadagi munosabat shakliga ega otlar miqdorini aniqlang.
A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 1 ta
19. Qaysi gapdagi yasama so‘z uchun yasama ot yasashga asos bo‘lib kelgan?
A) Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo‘ldi.
B) 0‘qituvchi boiish uchun chidam bilan o‘qiladi.
C) Munkayib qolgan Oyxol momo Akromni quchoqlab bag'riga bosdi.
D) So'rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.
20. Qaysi javobda quyida berilgan gap turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
U yig'lamsirab turarmidi, ko'rinishi shundaymi,hech kim bilolmadi.
A) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap
B) bog‘langan qo'shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap
D) aralash turdagi murakkab qo‘shma gap
21. Qaysi gap ega + aniqlovchi + aniqlovchi + to'ldiruvchi + kesim qolipida hosil bo'lgan?
A) Atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi.
B) Jannat xola shoshib, hansirab yo‘lakka yugurdi.
C) Anvar do‘stining gap boshlaganidan quvonib ketdi.
D) Sham zo‘r mo'jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi.
22. Bobolarning buyuk ishlarin ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtlisan.
Ushbu gapdagi ismlar guruhiga kirmaydigan so‘zlar tarkibida nechta ko‘makchi morfema qatnashgan?
A) 9 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 6 ta
23. Kishiga ishq o‘tidin zarraye yetsa bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat,yurak-bag‘ri chunon o‘rtar.
Ushbu misralarda qo‘llangan .she’riy san’atlarni aniqlang.
A) mubolag‘a,ruju B) talmeh,istiora
C) tashbeh,tajnis D) tanosib.tadrij
24. 0‘lmaslikka ishora - o‘langa oshiqligim,
Saodatga ishora - zamonga oshiqligim,
Teranlikka ishora,- ummonga oshiqligim,
Go'zallikka ishora - bo‘stonga oshiqligim
Bahor, ketma, mening bog‘imdan.
(To‘ra Sulaymon)
Ushbu she’riy parchada fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘zlar necha o'rinda ishtirok tgan?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
25. Hozirgi Xo‘jand hududidagi Kengko‘l qishlog‘ida yashovchi cho‘pon oilasida dunyoga kelgan ijodkor kim?
A) Tog‘ay Murod B) Mirtemir
C) Odil Yoqubov D) Pirimqul Qodirov
26. Bir kishi bir hakim huzurida befoyda so‘zlarni haddan ortiq ko‘p gapirdi va so'z orasida:
«Ko‘p so‘zladim. Endi so'zlashni bas qilay»,- dedi. Hakim unga e’tiroz bildirdi: «Yo‘q,sen hali so‘z so‘zlaganing yo‘q!»
Berilgan parchaning ko'chirma gap qismida nechta yasama so‘z mavjud?
A) 5 B) 2 C) 4 D) 3
27. Keng unlilar o‘rni almashtirilganda yangi so‘z hosil

bo‘ladigan so‘z ishtirok etgan gapni ko‘rsating.
A) Bunday xulosaga kelishingizga nima majbur qildi?
B) Xonadagi gullarni shamollatish uchun derazani ochdim.
C) Hammaning jahlini chiqargan bu bola Rahimjonning o‘g‘li - Salim.
D) Ko‘chada devonaning ovozi goh-goh eshitilardi.

28. Shu kunlarda keng jahonda, oqib keldi e’tirof,
Istiqlolning jamoliga boqib keldi e’tirof.
She’riy parchada jarangsiz til undoshi + unli + jarangli til undoshi qolipidagi bo‘g‘inlar soni nechta?
A) 4 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta

29. Sanodin o‘zga nav atlas to‘quyin,
Qish o‘rtada bahoriyot o‘quyin.
Kim ujmoh tur sening bazming binosi,
Hamisha yoz erur, jannat havosi.
Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolag'aviy tasvirlar yaratdi?
A) Xorazmiy Muhammad Xo‘jabekka
B) Sayfi Saroyi Batxasbekka
C) Xo‘jandiy Mahmudxonga
D) Rabg'uziy Nosiriddin To‘qbug‘aga

30. Qaysi javobda quyidagi gapdagi sifatlar haqida noto‘g‘ri fikr bildirilgan?
Bu bog‘lar ichida qizg‘ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko‘rkam binolar, ko‘shklar, kichik saroylar ko'zga tashlanadi.
A) gapda sifatlarning tuzilishiga ko‘ra ikkita turi ishtirok etgan
B) gapda bitta qo‘shma sifat, to‘rtta sodda sifat mavjud
C) gapdagi uchta sifat rang-tus bildiradi
D) gapda beshta sifat qatnashgan

31. 0‘tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki
bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qoldirishgan.
(O. Sharafiddinov)
Gapda qo'llangan yordamchi so‘z turkumlariga xos birliklar haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
A) 1 ta bog‘lovchi,2 ta ko‘makchi, 1 ta yuklama qo‘llangan
B) 1 ta bog‘lovchi,l ta ko‘makchi,l ta yuklama qo‘llangan
C) 1 ta bog‘lovchi, 1 ta ko'makchi, 2 ta yuklama qo'llangan
D) 2 ta bog‘lovchi, 1 ta ko'makchi, 1 ta yuklama qo'llangan

32. Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanida qaysi qahramon o‘zini «bu chappa dunyodan haqiqat izlab topolmagan, adashgan bandadurmen» deya ta’riflaydi?
A) Mirzo Ulug‘bek B) Qalandar Qarnoqiy
C) Ali Qushchi D) Abdulatif

33. Qaysi gap(lar)da ham paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq,ham imloviy xatoliklar mavjud?
1) Haq yo‘linda kim sanga bir harf o'qutmish ranch ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganch ila.
2) Ikki dugona mayizni bir qismdan bolalarga ulashib chiqdi
3) Anvar xalloslab yugurib ketdi.
4) U avvaliga biroz hayajonlandi-yu, ammo keyin rovon gapira boshladi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3 C) faqat 1 D) 1, 4

34. Oybekning bir xil janrda yozilmagan asarlari berilgan qatorni toping.
A) «Nur qidirib», «Bola Alisher», «Bolalik»
B) «Ulug‘ yo‘l», «Oltin vodiydan shabadalar», «Quyosh qoraymas»
C) «Baxtigul va Sog‘indiq», «0‘ch», «Navoiy»
D) «Qutlug* qon», «Dilbar - davr qizi», «Nur qidirib»

35. Haynrix Haynening qaysi kitobi ocherklardan iborat?
A) «Yo‘l lavhalari» B) «Qullar kemasi»
C) «E’tirof» D) «Qo‘shiqlar kitobi»

36. Nodiraning qaysi she’rida tarso qizga ishqi tushgan Shayx Sa’non va payg'ambar Sulaymon tilga olinib, talmehning go‘zal namunalari yaratilgan?
A) «Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorindin...
B) «Kel, dahrni in tihon etib ket...»
C) «Doda keldim...»
D) «Vasl uyin obod qildim...»

37. «Abulfayzxon» fojiasida Rahimbiy Abdumo minxonga kimlarga yigirma ming tangadan pul berishini aytadi?
A) Hakimbiy va Ibrohimbiyga
B) qozi Nizom va Xo‘ja Kalonga
C) Doniyolbiy va Oxunga
D) Eron sardorlariga

1. Qaysi javobda noto‘g‘ri fikr berilgan?
A) Fe’l nisbati qo‘shimchalari ta’sirida so‘zda tovush tushishi mumkin.
B) Sonning ma’no turini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.
C) -v, -q, -qi qo'shimchalari fe’lga qo‘shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.
D) Asos tarkibidagi unli tovush tushishi faqat egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda kuzatiladi.

2. 0‘n oykim, so'nmishdir u tanish na’ra.
Hamon firog'ida fig‘on chekar Shosh.
Bahor kelayotir, bosh ko'tar, qara,
O, surur kuychisi, dongdor zamondosh.
Abdulla Oripovning «Bahor» she’ridan o‘rin olgan ushbu misralarda qaysi ijodkor ko‘zda tutilgan?
A) Hamid Olimjon B) Oybek
C) Maqsud Shayxzoda D) G‘afur G'ulom

3. Ishonch ma’nosini ifodalovchi sof modal so‘z qatnashgan egasi noma’lum gap keltirilgan javobni aniqlang.
A) Albatta, o'ylamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas.
B) Siz bilan suhbatlashishdan oldin shu qarorga kelgan edim.
C) Demak,tushuntirishga hojat yo‘q.
D) Avvalo, topshiriqni vijdonan bajar.

4. Qaysi asarda qora boshning yovi qizil til ekanligi yozilgan?
A) Alisher Navoiy; «Mahbub ul-qulub»
B) Sa’diy Sheroziy; «Gulistoni bit-turkiy»
C) Yusuf Xos Hojib; «Qutadg‘u bilig»
D) Gulxaniy; “Zarbulmasal”

5. Lekin kun isishini kutish haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas, chunki havoga ishonish qiyin, eng muhimi, qor ustiga qor yog‘ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoldan xoli emas. Ushbu gapda ishtirok etgan yordamchi so‘zlarga mansub birliklar sonini toping.
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta

6. Uch o’rinda omonim bo‘la oladigan qo'shimchalar to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) -im; 2) -ik; 3) be-; 4) -a; 5) -ar; 6) -oq.
A) 1, 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5, 7
C) 1, 5 D) 1, 2, 4, 5

7. Berilgan qaysi so‘zlar to‘rtta ma’noli qismga

ajraladi?
1) go‘zallashtirmoq; 2) yonboshlab; 3) sanog‘ini; 4) surishtirmoq; 5) ta’mirlatmoq.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 5
8. **Bilimdon o‘z bilimi orqali ofatlardan omon qoladi. Uquvsiz kishining ishi unumsiz bo‘ladi. Ezguning har bir ishi chiroyli, har bir qadami go'zal bo'ladi.** Ushbu parchada tarkibidagi birinchi qo‘shimchasi shakl yasovchi bilan,ikkinchi qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo‘la oladigan so‘z,qanday sintaktik vazifa bajargan?
A) to‘ldiruvchi B) kesim C) ega D) aniqlovchi
9. «Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor» she’rida Muhammad Yusuf «jayrondek termulgan» sifatlashini qaysi shoirga nisbatan aytgan?
A) U. Nosir B) A. Qodiriy
C) Cho‘lpon D) Bobur
10. Qaysi asar qahramoni oilasiga zarar keltiradigan, xavf soladigan vaziyat haqida o‘rtoqlariga maqtanib gapirishni xohlaydi?
A) «Zulmat ichra nur» B) «Uloqda»
C) «Mening o‘g‘rigina bolam» D) «Helladоs»
11. Qaysi so‘z asosida ikki .jarangli undosh orasida keng unli kelgan?
A) bormoqda B) bilimdon C) puldor D) kitobxon
12. Boyvachcha o‘z ishidan uyalib, tavba qilibdi va keksa ota-onasini rozi qilish uchun o‘sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi.
Ushbu gapda nechta yasama fe’l ishtirok etgan?
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3
13. Abdulla Qahhor qalami bilan ming-minglab o'quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi.
Berilgan gapda ostiga chizilgan so‘zda qaysi usulda ma’no ko‘chgan?
A) metonimiya B) metafora
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik
14. Haq yo‘linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
Ushbu baytda tushum kelishigi qay tarzda qo‘llangan?
A) ikki o'rinda belgili, ikki o'rinda belgisiz
B) bir o'rinda belgili, ikki o'rinda belgisiz
C) ikki o'rinda belgili, bir o'rinda belgisiz
D) bir o'rinda belgili, bir o'rinda belgisiz
15. Demonkim ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok. Baytda qanday she’riy san’at qo'llangan?
A) takrir B) tazod C) tarse’ D) tajnis
16. «Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsaq, yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz».
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Qutlug' qon» B) «Kecha va kunduz»
C) «O'tkan kunlar» D) «Padarkush»
17. Mana menman,u isyonning o'lmas avlodi,
Mana menman,u qullarning hech so'nmas yodi,
Mana menman,falaklarga lov- lov o't qo'yib,
Otalarimning boshidan poydevor uyib,
Kelajagim obidasin qurgan insonman!
O'sha jonman,o'sha qonman va o'sha shonman!
(Usmon Nosir) Berilgan parchada qo'llangan olmoshlar haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
A) Kishilik olmoshlari kesim va ega vazifasida kelgan.
B) 5 o'rinda kishilik olmoshi, 6 o'rinda ko'rsatish olmoshi qo'llangan.
C) 3 o'rinda kishilik olmoshi, 8 o'rinda ko'rsatish olmoshi qo'llangan.
D) Ko'rsatish olmoshlari aniqlovchi va to'ldiruvchi vazifasida kelgan.
18. Qaysi gapda yetakchi qismi qo'shma fe’l bo'lgan ko'makchi fe’lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
A) Hayotdan saboq olib, yaxshilardan ibrat olib yasha, qizim!
B) U o'ziga berilgan savollarga tez-tez javob berib tashladi.
C) Birpasgina bo'Isa ham gaplashib,meni tinchitib qo'ysang bo'lgani.
D) Bu gaplarni eshitgach, indamay qo'ya qoldi.
19. Otamday rozi bo‘l, onamday sevgin,
Men ham senikiman,o‘ksik qizingman.
Bag'ringda ming yillik toshlar to‘sig‘in
Yorib chiqayotgan bir ildizingman! Berilgan she’riy parchada nechta sodda gap mavjud?
A) 4 B) 6 C) 3 D) 5
20. Payt ravishlarini aniqlang.
A) so'ngra, darrov, arang B) doim, biroz
C) tez, so‘nggi D) dastlab, hanuz
21. Go‘zallik nima? Go‘zallik biz uchun suyukli narsadir. Go‘zal - go‘zal emas, suygan go‘zaldir. Nega suygan go‘zal - hamma gap ana shunda. Berilgan gaplarda otlashgan so‘z bilan ifodalangan egalar miqdori nechta?
A) 2 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 3 ta
22. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u mehr kattalar ko‘nglida abadiy qoladi. (Alisher Navoiy)
Berilgan gapda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi necha o‘rinda belgisiz qo‘llangan?
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2
23. Qaysi javobda ot + ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma’nosini anglatuvchi qo'shma sifatlar ko‘rsatilgan?
1) ko‘zoynak; 2) sheryurak; 3) oybolta; 4) qo‘yko‘z; 5) shirinso‘z; 6) toshbag‘ir.
A) 1, 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 4, 6
C) 2, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6
24. Tarkibidagi bir tor unli fonema o‘rnida boshqa tor unli so‘z ma’nosini farqlashi mumkin bo‘lgan so'zlar to'liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) urush; 2) tiqmoq; 3) uzuk; 4) yumish; 5) molik; 6) jiyron.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5, 6 C) 1, 4 D) 2, 3, 4, 6
25. Quyidagi gapdagi yasama so‘zlar qaysi gap bo‘lak(lar)i vazifasida kelgan?
Birdan eshik ochildi. Chalqanchasiga yonboshlab,

bag‘rini sovuq ko'rpaga burkab yotgan cholning ko'zlari xira tortib qolgan,nursiz edi.
A) hol, aniqlovchi, kesim B) aniqlovchi, ega
C) hol, aniqlovchi, ega D) aniqlovchi, kesim, to‘ldiruvchi
26. **Nega kerak gapning nega- negasi**?
Ushbu gapdagi gap bo‘laklari tartibi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
A) to‘ldiruvchi, kesim, aniqlovchi, ega
B) kesim, aniqlovchi, ega
C) hol, aniqlovchi,ega,kesim
D) hol,kesim,aniqlovchi,ega
27. «Adolat manzili» asari muallifi kim va qaysi janrda yozilgan?
A) Chingiz Aytmatov, roman B) Odil Yoqubov, roman
C) Odil Yoqubov, qissa D) Pirimqul Qodirov, roman
28. Alisher Navoiyning qaysi g‘azali maqta’sidan «ishq o‘ti senga azalning qismati ekan» mazmunidagi misralar o‘rin olgan?
A) «Yo‘q» radifli g‘azali B) «Bo‘l» radifli g‘azali
C) «Jonga chun dermen: «Ne erdi o‘lmakim kayfiyati» g‘azali
D) «Bo‘ldum sanga» radifli g‘azali
29. Balki hamon tugamagan boshlangan doston,
Tanlariga tuproq emas, sog‘inchlar botar.
Hamon Sibir sovug‘iga ko‘nikolmasdan
Ular bir-birin quchoqlab, isinib yotar.
(H. Xudoyberdiyeva)
Ushbu she’riy parchadagi yasama so‘zlarning sintaktik vazifasini aniqlarig.
1) kesim; 2) ega; 3) toidiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
30. Ikki o‘rinda til orqa undoshi qatnashgan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) ko'ngil, go‘llik B) halovat, kabutar
C) gulqaychi, xalqum D) g‘urrak, xayrixoh
31. lmloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang.
1) sozovor; 2) talofat; 3) rahmat; 4) xoxlamoq; 5) taqdim; 6) taqdir.
A) 1, 2, 4, 6 B) 3, 4 C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 2
32. Quyidagi asarlarning qay birida «Har bir ishda bir yetuk ustoz istamakning bayoni» berilgan?
A) «Hayrat ul-abror» (Alisher Navoiy)
B) «Hibat ul-haqoyiq» (Ahmad Yugnakiy)
C) «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib)
D) «Sabot ul-ojizin» (So‘fi Olloyor)
33. Quyidagi so'zlardan nechtasi imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan?
Jaholat, hokisor, mutaxasis, hoxish, zahmat, aynala, taxsimot, asil, bepayon.
A) uchtasi B) to‘rttasi C) oltitasi D) beshtasi
34. Qaysi she’r tizimida misralardagi bo‘g‘inlar soni bir xil miqdorda takrorlanadi va bir xil guruhlanadi?
A) erkin vaznda B) sarbast
C) aruz vaznida D) barmoq vaznida
35. Bahor osmonida chaqnasa chaqin,
Ko‘ksingdan otilar olovli nafas. (A. Oripov)
Berilgan she’riy parchadagi so'zlar nechta tobe bog‘lanishni hosil qiladi?
A) 6 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 5 ta
36. Ovga kirishadigan qushlardan qarchig'ay miqqiy qirg'iy urishadigan qushlardan dakan xo‘roz kaklik bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib cho'pqafasda to'rqafasda saqlanadi) sayraydiganlardan sa’va bulbul mayna va boshqalar bor edi. Ushbu parchada qaysi tinish belgilari tushirib qoldirilgan?
1) vergul; 2) nuqtali vergul; 3) ikki nuqta; 4) tire.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 4
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 4
1. Aralash murakkab qo‘shma gaplarni aniqlang.
1) Agar traktor berilsa, yerlar . traktor bilan haydalsa, menhat unumli boiadi va hosil mo‘l bo'ladi. 2) Bilim shundayki.u yalang'och bo‘lganingda ham o‘zing bilan qoladi,uni suv bilan ham yo‘qota olmaysan. 3) Reja bajarilsa,dasturxon mo‘l bo‘lsa,yor-u do‘st,birodarlar qalin bo'lsa,tantanalar qishgacha davom etaveradi. 4) Shuni ta’kidlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi,mushakchalar bilan boyitib boradi. 5) 0‘ziga aytgisi keladi-yu,singlisi iymanadi,xafa qilib qo‘ysa-chi.
A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 5 D) 1, 5
2. Qaysi gap(lar)da ham paronimlami qo‘llash bilan bog‘liq, ham imloviy xatoliklar mavjud?
1) Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qutmish ranch ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganch ila. 2) Ikki dugona mayizni bir qismdan bolalarga ulashib chiqdi. 3) Anvar xalloslab yugurib ketdi. 4) U avvaliga biroz hayajonlandi-yu,ammo keyin rovon gapira boshladi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3 C) faqat 1 D) 1, 4
3. Ta’limni isloh qilishning bosqichlari ham bugun mamlakatimizda yaxshi borayotir va tegishli idoralar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu xayrli ishlar bugungi kunda davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda.
Berilgan gapda necha o‘rinda yasama so'zlar qatnashgan?
A) 10 B) 9 C) 8 D) 7
4. Qaysi asarda qora boshning yovi qizil til ekanligi yozilgan?
A) Gulxaniy; «Zarbulmasal»
B) Yusuf Xos Hojib; «Qutadg‘u bilig»
C) Alisher Navoiy; «Mahbub ul-qulub»
D) Sa’diy Sheroziy; «Gulistoni bit-turkiy»
5. Quyida berilgan tez aytishlarning qaysi birida sifat turkumiga oid so‘z egani aniqlab kelgan?
A) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.
B) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.
C) 0‘tkir o‘tkir o‘roqda o‘t o‘rdi
D) Norning nordon anori narida
6. Inkor bog‘lovchisi qaysi javobda uyushgan bo‘laklarni bog‘lamagan?
A) Ilmsiz odam yog‘och kabidir: undan na o‘ziga, na xalqiga foyda bor.
B) Bu ishingdan na menga, na boshqalarga manfaat bor.
C) Yalqov va besabr bo‘lma, u senga na obro, na baxt keltiradi.
D) Unga na bir gap yoqadi, na bir ish yoqadi.
7. Quyida berilgan gapdagi ko'makchi morfemalar sonini aniqlang.
Bugungi hayotimizni qog‘ozsiz tasavvur etish qiyindir.
A) oltitaB) beshta C) yettita D) to‘rtta

8. «0‘tkan kunlar» romanida Otabek «Xafa bo‘lma, o‘g‘lim», - deya unga tasalli bergan otasiga «Sizlarga o'xshab quvonaymi?» — deb javob beradi.
Bu holat qaysi voqea bilan bog‘liq edi?
A) Zaynabga unashtirilib qo'yilgani voqeasi bilan
B) qipchoqqa qilingan qirg‘in voqeasi bilan
C) Homid va uning hamtovoqlari voqeasi bilan
D) Kumushning zaharlanishi bilan
9. Jo‘shadi buloqning kumush yoshlari,
Ham mungli, ham shirin jildirashlari,
Buralib, ko‘katlar ustidan chopar,
Izilgan marvarid yarqirashlari...
She’riy parchadagi nechta fe’l tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud?
A) 5 B) 2 C) 3 D) 4
10. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning dastlabki kitobi qanday atalgan?
A) «Adabiyot - hayot darsligi»
B) «Zamon. Qalb. Poeziya»
C) «Go'zallik izlab»
D) «Birinchi mo‘jiza»
11. Bobur g'azalidan keltirilgan quyidagi parchada qo‘llangan badiiy san’at turini aniqlang. Qaro zulfing firoqida parishon ro'zgorim bor, Yuzingning ishtiyoqida ne sabr-u qarorim bor. Labing bag‘rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi, Nechun holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.
A) talmeh B) tanosub C) ruju D) tazod
12. Birovning narsasini so‘roqsiz olish kechirilmas gunoh sanalishini bilarding, ammo unga amal qilish lozimligini anglamaganing tufayli kulgili vaziyatga tushib qolishingni his qilmaganding. Ushbu gapda birgina portlovchi til undoshi bilan ifodalangan qo‘shimcha necha o‘rinda qatnashgan?
A) 2 B) 5 C) 1 D) 3
13. Ko‘kqamish ko'lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman. «Alpomish» dostonidan olingan ushbu so‘zlar kimning tilidan aytilgan?
A) Barchin B) Alpomish C) Qaldirg‘och D) Qultoy
14. Qaysi gapda ega omonim ot bilan ifodalangan?
A) Qalbimga o‘t yoqdi.
B) Bog‘imizning gavjumligi bejiz emas edi.
C) Onam har gal xokandozni bo'shatganida qop-qora chang ko‘tariladi.
D) Unisi o‘ziga bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o‘z qilig‘idan azob chekadi.
15. Qaysi so‘z to‘g‘ri yozilgan?
A) hokandoz B) istehzomuz
C) habash D) intelektual
16. Biringiz boqiysiz, biringiz - balki puch,
Biringiz shodliksiz, biringiz - o'kinch,
Biringiz baxtlisiz, biringiz - baxtsiz.
Biringiz yarador, o‘lgansiz vaqtsiz.
Ushbu she’riy parchada sifatdan yasalgan ot necha o'rinda qo‘llangan?
A) 2 B) 4 C) 3 D) 1
17. Qaysi she’riy janr g‘azal kabi qofiyalanish tizimiga o‘xshasa-da, unda taxallus kamdan kam qo‘llanadi, mavzu doirasi chegaralanmagan?
A) qit’a B) musaddas
C) ruboiy D) masnaviy
18. Qaysi so‘zlarda u unlisi noto‘g‘ri qo‘llangan?
1) unutmoq; 2) unumli; 3) unub- o‘smoq; 4) umumiylik; 5) umum; 6) umurguzaron.
A) 3, 4, 5 B) 3, 6 C) 1, 2, 4, 6 D) 2, 3, 5
19. Quyidagi gapdagi so'z birikmalari haqida to‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni aniqlang.
*Bu o‘lkada iqlim o‘rtacha, suv mo‘l, yer unumli, quyosh nuri yetarli.*
A) 1 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv munosabatli so‘z birikmasi bor
B) 2 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv munosabatli so‘z birikmasi bor
C) 5 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv munosabatli so‘z birikmasi bor
D) 4 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv munosabatli so‘z birikmasi bor
20. Xorazmiy zurriyodimiz, Navoiyning avlodimiz,
Yurtga tikib hayotimiz, Asragaymiz biz Vatanni.
Ushbu she’riy parchada nechta ot kesimli gap mavjud?
A) 4 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 2 ta
21. «Yevgeniy Onegin» (Pushkin) she’riy romanini o'zbek tiliga tarjima qilgan ijodkorlarni aniqlang.
A) Mirkarim Osim, Nosir Fozilov
B) Maqsud Shayxzoda, Mirza Kenjabek
C) Oybek, Mirza Kenjabek
D) Oybek, Asil Rashidov
22. Alisher Navoiyning qaysi g‘azalida har bir baytida kamidal bir tazod san’atiga duch kelamiz?
A) «Yo‘q» radifli g‘azalida
B) «Jonga chun dermen: Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..» g‘azalida
C) «Bo‘l» radifli g‘azalida
D) «Qilg‘il» radifli g‘azalida
23. Uyga qaytib kelganlaridan so‘ng Zuhra charchoqning zo'ridan darhol uxlab qoldi. Uyqusida tush ko‘rdi. 0‘sha turna bilan yana uchrashgan emish.
Ravishlar necha o‘rinda qo‘llangan?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
24. «0‘yla, o‘zing,
Gunoh kimda?
Kimdan oldim, tarbiyat?
Sen uyg‘otding yuragimda
Toj-u taxtga muhabbat.
Bu, tuyg‘uni berib, nega
Qaro qilding baxtingni?
Ko‘ng qarib ham,
Nechun menga
Bo‘shatmading taxtingni?..» Ushbu parcha qaysi qahramon tilidan kimga aytilgan?
A) Suhrob Rustamga (Firdavsiy, «Shohnoma»)
B) Avrangzeb Shohi Jahonga (Erkin Vohidov, «Ruhlar isyoni»)
C) Sheruya Xisravga (Alisher Navoiy, «Farhod va Shirin»)
D) Abdulatif Mirzo Ulug‘bekka (Maqsud Shayxzoda, «Mirzo Illug‘bek»)
25. Uyushiq bo‘laklarning har biri ta’kidlangan gap qaysi javobda berilgan?
A) U to‘qayzorda sassiq alaflarning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi o‘ng‘izlarning ko‘pligidan ajablanmadi.
B) Na unga, na bunga ko‘nasan.
C) Sizga, atlas ko‘ylakli qizga, luivasim keladi.
D) Nasiba goh Toshkent, goh Samarqandga safar qilib turardi.
26. «Avesto»da yigitlar kurash tushish, chavandoz bo‘lish, mol boqa olish, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan himoya qila bilishni o‘rganishlari shartligi aytiladi.
Yasalish asosi va yasalma bir so‘z turkumi doirasida bo‘lmagan yasama so‘zlar qatorini aniqlang.

1) oqarmoq; 2) tinchlik; 3) itoatkor; 4) g‘allakor; 5) notekis; 6) noo‘rin.
A) 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 3, 6 D) 2, 4
27. Ko‘makchi morfemasida quyi keng unlidan oldin ham, keyin ham jarangli til undoshi qatnashgan so‘zni toping.
A) oshpaz B) guldon
C) bormoqda D) kitobxon
28. Qaysi gapda ham yetakchi fe’l qismi, ham ko‘makchi fe’l qismining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan yetakchi va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan?
A) Taxtga chiqqach, adolat bilan ish tutibdi.
B) Ko‘klamning daragi kelmasdan ayvonga ko‘chib o‘tdi.
C) Qo‘qonga nonushta mahali yetib keldik.
D) Dadasining qo‘lidan ushlab, dikir-dikir sakrab o‘ynoqlab berdi.
29. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida uchraydigan quyidagi qaysi hikoyat qahramonlarning bir-biriga aytgan hikoyasi ichida hikoya tarzida berilgan?
A) Xolboqi miskar haqidagi hikoyat
B) Bozanda va Navozanda haqidagi hikoyat
C) Mu’tamir otlig‘ podshoh haqidagi hikoyat
D) Toshbaqa bilan chayon haqidagi hikoyat
30. Alisher Navoiy qaysi devoni haqida «yigitlig-u oshuftalig’ va shabob-u oliftalig’ yozi-
yu dashtida yuzlangan nodir vaqoye’ bila piyrosta bo‘lib erdi» deb yozadi?
A) «Favoyid ul-kibar» B) “Badoye ul-vasat”
C) «Navodir ush-shabob» D) «G'aroyib us-sig‘ar»
31. Bir so‘z turkumi doirasida ham, turli so‘z turkumi doirasida ham omonimlik xususiyatiga ega bo‘la oladigan so'zlar to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) ort; 2) o‘ch; 3) til; 4) suzma; 5) un.
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 4, 5
C) 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5
32. «Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq-
Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq». Ushbu go‘zal tashbeh muallifi kim?
A) Sh. Rahmon B) M. Yusuf
C) S. Sayyid D) T. Sulaymon
33. Kelgusi avlod zakovati va shijoatiga ishonmagan jamiyatning ichi mo'rtdir.
Ushbu gapda nechta so‘z hokim qismga moslashuv usulida bog‘langan?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
34. Qaysi gapda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi tufayli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z(lar) ishtirok etgan?
A) Ona Vatanidan ayrilgan mirzo Bobur bir umr Vatan sog‘inchi bilan yashadi, uni o‘z she’rlarida, tarannum etib yashadi.
B) Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi.
C) Vatan osmoni ko‘rpang, maysasi dimog‘ingni bosib yotadigan muattar bolishingdir.
D) Og‘zaki nutqingiz yaxshi bo‘lgani uchun davraga boshlovchilik qilish sizga topshirildi.
35. Toshkentda «Mustaqil 0‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur gapda ikki nuqta qo‘yilish sababini toping.
A) izohlash ma’nosida
B) shaklan tugallangan gap bo‘lganligi uchun
C) ravonlik, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida
D) ma’lumotlar bir-biriga yaqin bo‘lmaganda
36. Xalqaro Bobur jamg'armasi tashabbusi bilan 2006-yili Hirotda qaysi ijodkorning qabri aniqlashtirilib, u yerda o'zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbara bunyod etildi?
A) Alisher Navoiy B) Jomiy
C) Husayn Boyqaro D) Lutfiy
1. A.S. Pushkinning she’ri berilgan javobni aniqlang.
A) «Dubrovskiy» B) «Singlimga xat»
C) «Erkinlik» D) «Sileziya to‘quvchilari»
2. Qaysi gapda tinish belgilarining qo‘llanish qoidalarga rioya qilinmagan?
A) Qo‘shning tinch - sen tinch.
B) Rang-tusni bildiruvchi Hifatlar qanday, qanaqa, qaysi, so‘roqlariga javob bo‘ladi.
C) Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa liam ko‘p.
D) 0‘zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.
3.Fan olami... shunday olimlar ijod qilib o'tganki, ular yaratgan ilmiy g'oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlar... paydo bo‘lishi... sababchi bo‘lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblari...
biri Albert Eynshteyndir. U... nomi zamonaviy fizika sohasi... ochilgan ko'plab qonuniyatlar bilan chambarchas bog'langan. Ushbu parchadagi nuqtalar o'rnida qaysi kelishik qo'shimchasini qo‘llab bo‘lmaydi?
A) qaratqich kelishigi B) tushum kelishigi
C) jo‘nalish kelishigi D) o‘rin-payt kelishigi
4. Tarkibida yordamchi so‘zlardan faqat sof yuklama qatnashgan gapni toping.
A) Kalta fahmlargina odamlarning kamchiligini ko‘radilar-da.
B) Faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ham ochamiz.
C) Bu ishlar faqat menga kerak emas.
D) Sen-chun jonim fido,aziz Vatanim!
5. Najmiddin Kubroning qaysi nomi (laqabi) «parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi» degan ma’noni anglatadi?
A) Najmiddin B) Tummat ul-kubro
C) Valiytarosh D) Abuljannob
6. Ko‘ksingda savoling bo‘lmasa,dunyoga nega kelding, otingdan aylanay,inson. Otga xos sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar miqdorini aniqlang.
A) 7 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta
7. Kuyi shunday bo‘lsa, g'amning o‘ziga
Qanday chiday oldi ekan odamzod?!
Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu misralarda qaysi kuy nazarda tutilgan?
A) «Cho‘li iroq» B) «Tanovar»
C) «Dilxiroj» D) «Munojot»
8. Qaysi maqolda otlashgan so‘z ega vazifasida qo‘llangan?
A) To‘qayga o‘t tushsa, ho‘l-u quruq baravar yonadi.
B) Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, yomondan burun o'lasan.
C) Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.
D) Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.
9. Qaysi asarda Shayxi Bahlulning xalifa Xorun ar-Rashid taxtiga chiqib o‘tirganligi haqidagi hikoyat keltirilgan?

A) «Hayrat ul-abror» B) «Guliston»
C) «Rohati dil» D) «Miftoh ul-adl»
10. Berilgan so‘z birikmalaridan nechtasida kelishik qoshimchalarini ko‘makchilar bilan almashtirish mumkin?
1) olchaning guli; 2) shoshmasdan yurmoq; 3) telefonda gaplashmoq; 4) mashinada kelmoq; 5) ukasiga olmoq; 6) tubdan o‘zgartirmoq.
A) uchtasida B) beshtasida C) oltitasida D) to'rttasida
11. Sen bo‘lmasang so‘zlarning
Bag‘ri ming tilim bo‘lar,
Onajon, ona tilim,
Mening shohona tilim.
(Barot Yarash)
She’riy parchada otlar tarkibida qatnashgan shakl yasovchi qo'shimchalar soni necha?
A) 7 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
12. Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanida Qalandar Qarnoqiy «u qari tulki bu sir-asrorlarni hazratga yetkazganlar» deganda xazina haqida sirlarni oshkora qilgan qaysi qahramon haqida so‘zlagan?
A) Sulton Jondor B) Xoja Salohiddin zargar
C) Temur Samarqandiy D) Ibrohim Po‘lat
13. «Ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir erdi, ammo turkiy devon tadviniga mayl qildilar va dilpazir abyot va benazir g'azaliyot tartib berdilar».
A. Navoiy ushbu fikrlarni quyidagi qaysi ijodkor haqida aytgan?
A) Husayniy haqida B) Xo‘jandiy haqida
C) Xorazmiy haqida D) Gadoiy haqida
14. Baytlari bir-biridan o‘ta mustaqil, o‘rni almashtirilsa ham, unchalar sezilmaydigan g‘azallar qanday ataladi?
A) parokanda g‘azallar B) musalsal g‘azallar
C) voqeaband g‘azallar D) yakpora g‘azallar
15. Paronimi mavjud so‘z berilgan javobni toping.
A) qasdB) najot C) ta’qib D) fidoyi
16. Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati jahonga to‘lg‘ay,
Turk eliga dog'i bahra bo‘lg‘ay. Ushbu misralar «Xamsa»ning qaysi dostonidan olingan?
A) «Saddi Iskandariy» B) «Sab’ai sayyor»
C) «Layli va Majnun» D) «Farhod va Shirin»
17. Usmon Nosirning «Nil va Him» she’rida tilga olingan Ro, Azirisa, Tifon qanday nomlar?
A) quldorlik davri Misr hukmdorlarining nomi
B) qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar nomi
C) qadimgi yunon lashkarboshilarining nomi
D) qadimgi Rim adabiyoti qahramonlarining nomi
18. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonga nisbatan «...zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo‘rg‘asi bor...» degan ta’rif qo'llangan?
A) Ko'kaman B) Alpomish
C) Ko‘kaldosh D) Rustam
19. Tikan kirsa kafingga kiynasidin,
Chiqarsam erdi kiprik ignasidin
Ko‘rib xor-u xas o‘rningda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni. Ushbu misralar orqali Navoiy quyidagi qaysi ma’shuqaning o‘z yoriga sadoqatini tasvirlagan?
A) Shirinning B) Diloromning
C) Laylining D) Mehrning
20. Qaysi gapda ma’no jihatdan ravishning ikki turi qatnashgan?
A) - Keyin u yoqqa o‘tamiz, - deb o‘ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi.
B) Ular yerni kovlab kirolmabdilar, allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.
C) Bular piyoda asta-sekin 0‘rdaga bordilar.
D) Shu payt uydan - yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi.
21. Qaysi javobda keltirilgan asardagi shohning taxti «Bir taxt edi, undan past kelardi Moh» deya tasvirlanadi?
A) «Saddi Iskandariy»da Iskandarning
B) «Shohnoma»da Kaykovusning
C) «Qutadg‘u bilig»da Kuntug‘dining
D) «Mirzo Ulug‘bek»da Amir Temurning
22. Qaysi qatorda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt, birlashgan fe’l shakli ishtirok etgan?
A) Ular uzoq suhbatlashgandan so‘ng o‘rinlaridan turdi.
B) Mehmonlar kechroq taklif etilgan edi.
C) Qiz turtinib xonaga kirib keldi.
D) Birdan havo bulut bo‘lib, momaqaldiroq gumburladi.
23. «Har qanday kishi o‘z ahvolidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin», degan oqilona o‘git Navoiyning qaysi asari zamirida yashiringan?
A) «Ulki, iflosdin ayog'inda...» deb boshlanuvchi qit’a
B) «Kamol et kasbkim...» deb boshlanuvchi qit’a
C) «G‘urbatda g‘arib...» deb boshlanuvchi ruboiy
D) «Jondin seni ko‘p sevarmen...» deb boshlanuvchi ruboiy
24. Biz so‘zning asosiy qismimiz, sizlar esa qo'shimchalarsiz.
Ushbu gapda nechta munosabat shakli omonimlik xususiyatiga ega?
A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta
25. Ogahiyning 1844-yilda yozishni tamomlagan, Xiva xonligi tarixining shu yilgacha boUgan voqealarini o‘z ichiga olgan asari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) «Shohidi iqbob B) «Ta’viz ul-oshiqin»
C) «Firdavs ul-iqbol» D) «Riyoz ud-davla»
26. Qaysi gapda o'zlik olmoshi predmetni ko‘rsatish uchun qo'llanilgan?
A) Soat o‘zi ishlab ketdi.
B) Biz o‘z tuprog'imizni ko‘z qorachig‘iday asraymiz.
C) 0‘zlik olmoshi predmetni ko‘rsatish uchun ishlatilmaydi.
D) Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman.
27. Daraxtni undiradigan, o‘stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo‘lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o‘stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir.
Ushbu gapda sifatlovchi aniqlovchi qaysi gap bo‘laklariga ergashgan?
A) ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
B) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
C) to'ldiruvchi, kesim
D) ega, to‘ldiruvchi, kesim
28. Quyidagi gapda moslashuvli tobe bog'lanish necha

o‘rinda qo‘llangan?
Ishlarni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bog'liq.
A) 3 B) 2 C) 2 D) 4
29. Bog‘lovchisi qaysi gap tarkibida uyushiq bo‘laklarnigina emas, sodda gaplarni ham bog‘lagan?
A) Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma’naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiradi.
B) Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir, o‘sha tafakkur va tuyg‘ular orqali so‘z yordamida mamlakat tabiati va xalq tarixi ifoda etilgan.
C) Odob va tavoze do‘stlik oynasiga jilo beradi va u ikki oraga yorug‘lik bag‘ishlaydi.
D) Ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o'rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta’sirchan so‘zlab, yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo'lgan har bir shaxsnini burchidir.
30. Ezgu insoniy tuyg'ulardan mahrum, odamning ko‘nglini his etmaydigan, bobolar qo‘llagan udumlami mensimaydigan, o‘zini uning qonuniyatlarini tushunadigan ziyoli hisoblaydigan badiiy qahramon kim?
A) Maxdum («Mehrobdan chayon»)
B) Sobitjon («Asrga tatigulik kun»)
C) Miryoqub («Kecha va kunduz»)
D) Jo‘lomon («Asrga tatigulik kun»)
31. Bir so‘z turkumi doirasida ham, turli so‘z turkumi doirasida ham omonimlik xususiyatiga ega bo‘la oladigan so‘zlar to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) ort; 2) o‘ch; 3) til; 4) suzma, 5) un.
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 4, 5
32. 0‘tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qilib qoldirishgan. (O. Sharafiddinov)
Gapdagi sodda yasama so‘zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) ega, to‘ldiruvchi B) to‘ldiruvchi, aniqlovchi
C) to‘ldiruvchi, kesim D) hol, to'ldiruvchi
33. Yozma nutqda so‘z asosida tovush tushish hodisasi qaysi qo‘shimchalar qo‘shilganda kuzatilishi mumkin?
1) fe’l yasovchi -ar; 2) sifat yasovchi -aki; 3) jo‘nalish kelishigi -ga; 4) fe’l yasovchi -a; 5) fe’l nisbati qo‘shimchasi -il; 6) fe’lning mayl shakli -ay.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5
C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 4, 5, 6
34. Ayo g‘uncha, qizil qonlar aro sen o‘zni tark etding,
Ayon etgil, nadir sevgi, nadir ul o‘zni tark etmoq.
(Rumiy)
Berilgan baytda necha o‘rinda yasama so‘z mavjud?
A) 4 B) 5 C) 2 D) 3
35. Murkarim Osimning «Zulmat ichra nur» asarida Alisher Shohrux mirzoning o‘limi haqida kimdan eshitadi?
A) tog‘asidan B) ko'chadagi devonadan
C) Husayndan D) otasidan
36. Berilgan so‘zlardan nechtasi imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan?
1) hasad; 2) nataruis; 3) bug‘doy rang; 4) tayziq; 5) talafot; 6) hasharot.
A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 5 ta
1. Muhammad Yusufning «Yurtim,ado bo‘lmas armonlaring bor...» she’rida «Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini, Olislarda qolgan» ta’rifi kimga berilgan?
A) Usmon Nosir B) Abdulla Qodiriy
C) Fitrat D) Cho‘lpon
2. Telefonda muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri kelib muhim ish borligini aytib qolsa, hamsuhbatingizni ranjitmasdan unga ma’lum vaqtdan keyin o‘zingiz qo‘ng‘iroq qilishingizni ayting va telefonni ohista qo‘ymg. Ushbu gapda ishtirok etgan yasama so‘zlar sonini toping.
A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 5 ta
3. Bog'lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi.
Berilgan qoidaga quyidagi maqollardan qaysi biri mos keladi?
A) Vataning tinch - sen tinch.
B) Suv keldi - nur keldi.
C) Bulbul chamanni sevar, Odam - Vatanni.
D) Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.
4. Vatanning bu asl farzandlari o‘z orzu-havaslari haqida emas, xalq hayoti, uning ijtimoiy ahvoli yaxshilanlanishi uchun qayg'urdilar, ularga juda ko‘p zug‘um qilsalar
ham, o‘z dunyoqarashlarini o'zgartirmadilar, hatto bu yo‘lda otlarini qurbon qildilar. Ushbu gapdagi sodda yasama so‘zlar sonini toping.
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 5 ta
5. Qaysi maqolda sifat harakat-holatning belgisini bildirgan?
A) 0‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.
B) Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!
C) Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.
D) Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar.
6. Quyidagi qaysi gaplarda ravish asosli sodda yasama fe’l ishtirok etgan?
1) Bugun sen ataylab ishga kechik. 2) Daryo bo‘lsang oqqan hayqirib, Kechik bo'lib qolar ekansan. 3) Birov suv topolmaydi ichgani, birov kechik topolmaydi kechgani. 4) Bu yil bahor kechikib keldi.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4
7. Insongagina xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko‘chirish san’ati qanday nomlanadi?
A) tashxis B) tanosib C) tashbeh D) timsol
8. Chingiz Aytmatovning qissa janrida yozilgan asarlarini toping.
1) «Qiyomat»; 2) «Alvido, Gulsari»; 3) «Yuzma-yuz»; 4) «Tog'lar qulaganda»; 5) «Birinchi muallim».
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4
9. Krepdishin, suverenitet, kariyes, volebol,

simpozum, abonement, kilovat, menejment. Ushbu so‘zlardan nechtasi to'g'ri yozilgan?
A) 4 tasi B) 2 tasi C) 3 tasi D) 5 tasi
10. Qaysi javobda keltirilgan so‘zlar tarkibida ikkita so‘z yasovchi ishtirok etgan?
A) yarqiroq, atama, qiynoq
B) eslaganlik, yamoqchilik, yig'loqi
C) changitmoq, tinchimoq, qiynoq
D) sanoqsiz, o'ynoqi, tinimsiz
11. Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik menga. Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga.
She’riy parchada olmoshlarning necha turi qo'llangan?
A) 4 B) 5 C) 3 D) 2
12. **Otam bizga suyak dastali, shisha ko‘zli pichoqni ko‘rsatdi.** Ushbu gapdagi ot so‘z turkumlari qaysi gap bo'laklari vazifasida kelgan?
A) ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi
B) ega, aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi, to‘ldiruvchi
C) ega, to'ldiruvchi
D) ega, aniqlovchi, aniqlovchi, to‘ldiruvchi
13. «Qissasi Rabg‘uziy»da sahobalar payg‘ambar (a.s) ning o‘z ummati uchun, butun insoniyat uchun qilgan xizmatlarini necha qismda, qaysi san’at asosida sanaydilar?
A) 19 qism, tadrij B) 20 qism, saj
C) 21 qism, hasbi hol D) 15 qism, tadrij
14. Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirig‘i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. (Jek London) Ushbu gapda so‘z yasovchi qoshimcha qo‘shilishi natijasida nechta so‘z tarkibida fonetik o‘zgarish yuz bergan?
A) 3 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 4 ta
15. Ko‘zimdan yomg‘irlar to‘kilar tinmay...
Ushbu gapda ma’no ko‘chishining qaysi turi kuzatiladi?
A) metonimiya B) vazifadoshlik
C) metafora D) sinekdoxa
16. Quyidagi berilgan nechta gapning egasi va kesimi tarkibidagi qo‘shimchalar ismning munosabat shakli va fe’lning munosabat shakli sifatida o‘zaro omonimlik hosil qilgan?
1) Bitta o‘g‘limni qoldirishga ko‘zim qiymayapti-yu, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz. 2) Yirtib tashlagandan ko‘ra yondirib tashlaganing yaxshidir. 3) Tananing zirqirab og'riyotganiga ham e’tibor bermadim. 4) Uchoving bu vazifani uddalading.
A) bitta B) uchta C) ikkita D) to'rtta
17. Kelgusi avlod zakovati va shijoatiga ishonmagan jamiyatning ichi mo‘rtdir.
Ushbu gapda nechta so‘z hokim qismga moslashuv usulida bog‘langan?
A) 1 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta
18. Qaysi asarda onasini ranjitgan yigitga qarata «Magar kichiklikni unuttingkim, ulug'liq etarsan» degan tanbeh uchraydi?
A) Firdavsiy «Shohnoma»
B) Sa’diy «Bo‘ston»
C) Sayfi Saroyi «Guliston bit- turkiy»
D) Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig»
19. Lekin kun isishini kutish haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas, chunki havoga ishonish qiyin, eng muhimi, qor ustiga qor yog‘ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoldan xoli emas. Ushbu gapda ishtirok etgan yordamchi so‘zlarga mansub birliklar sonini toping.
A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 5 ta
20. Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So‘ng nimanidir aytmoqchi bo‘lib taraddudlandi- yu, lekin aytmay, indamay qo‘ya qoldi. Ushbu gapdagi ravishlar sonini toping.
A) 1 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 3 ta
21. Qaysi xalq dostonida «Kaptarday bo‘b yurgan qizlar” tasviri berilgan?
A) «Alpomish» B) «Kuntug‘mish»da
C) «Rustamxon» D) «Ravshan»
22. Xo‘jandiyning «Latofatnoma» asari Xorazmiyning «Muhabbatnoma»siga javob- nazira tarzida yozgan bo‘lsa-da, ular keskin farq qiladi.
Ushbu farqni aniqlang.
A) «Latofatnoma» soqiynoma va g'azallardan tuzilgan
B) «Latofatnoma» boshdan-oyoq masnaviy shaklida yozilgan
C) «Latofatnoma» masnaviy va g‘azallardan iborat
D) «Latofatnoma» faqat g'azallardan iborat
23. Thokurning ilk she’riy to'plamini aniqlang.
A) «Oqshom qo'shiqlari» B) «Suratlar va qo‘shiqlar»
C) «Hisob-kitob» D) «Qo‘shiqlar kitobi»
24. Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz...
Ushbu misrada unlilar va hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir umumiy guruhga mansub bo‘lgan undoshlardangina tarkib topgan so'z necha o‘rinda qatnashgan?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
25. *Agar tenglik hukm sursa.hech qachon sotqinlik, aldamchilik, g‘am-g ‘ussa bo‘lmaydi.*
Ushbu gapda qo‘llangan gap bo‘laklarining kesimga 1) bog‘lanishi yuzasidan berilgan to‘g‘ri hukmlarni aniqlang. 2) barcha gap bo‘laklari kesim bilan bevosita bog‘langan; 3) barcha gap bo‘laklari murakkab kesimga bog‘langan; 4) ergash gap tarkibidagi uyushiq egalar kesim bilan yonma- yon kelgan; 5) uyushgan ega sodda kesim bilan grammatik munosabatga kirishgan.
A) 1, 4B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 1, 2
26. Mirtemir Samarqandda qaysi shoir bilan do'stlashib qoladi?
A) Hamid Olimjon B) Oybek
C) G‘afur G'ulom D) Abdulla Qahhor
27. Ikkita vositali, bitta vositasiz to‘ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Zebiga do‘stlik haqidagi suhbatlar ko‘proq yoqadi.
B) 0‘rtog‘im bilan do‘stlik haqida she’r yodladim.
C) Tadbirda maktab haqida, ustozlar haqida iliq fikrlar aytildi.
D) O‘rtog‘imdan futbol haqida barchamizga

ma’lumot berishini so‘radim.

28. Hamzaning qaysi she’ri «Do‘st mavlon-ey» kuyida aytiladi?
A) «Muxtoriyat» B) «Dardiga darmon istamas»
C) «Jonlarning jononi vatan» D) «Yig'la, Turkiston»

29. Qaysi gap(lar)da qo'shma ravish qo'llangan?
1) Shahzoda har kungi mahzun, ko‘ngilni ezuvchi tuyg‘ulardan qutula olmas edi. 2) Baribir bir kuni ketib qolishi mumkinlidan xavfsirab yashardi. 3) Bola nari-beri choy ichib ko‘chaga otlandi. 4) 0‘zbekiston istiqboli yildan yilga rivojlanib bormoqda.
A) 2 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2

30. Harakat nomi ishtirok etmagan gapni toping.
A) Boshqalarga salom berish insoniylik belgisi.
B) Xalqning o‘zingga xayrixoh bo‘lishini istasang, avval o‘zing xalqqa xayrixoh bo‘l.
C) Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.
D) Bilim o‘qish va takrorlash mevasidir.

31. «Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan, ... o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma’rifat suvi, ... chang va tuproqlar to'lgan ko‘zlarimizni artib, tozalaydurgan buloq suvi bo‘lganlikdan bizga g‘oyat kerakdur».
Ushbu fikr muallifi bo‘lmish katta aql va ulkan bilim egasi kim?
A) Behbudiy B) Abdulla Avloniy
C) Fitrat D) Cho'lpon

32. Tarkibidagi bir keng unli o‘rnida boshqa keng unli so‘z ma’nosini farqlashi mumkin bo‘lgan so‘zlar to‘liq ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) undosh; 2) jiyron; 3) tong; 4) malik; 5) xoni.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 5

33. Ul na gumbazdir, eshig-u, tuynugidan yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindirib gumbazni, qizlar holidan olsam, xabar,
Yuzlarig‘a parda tortig‘liq tururlar bag‘ri qon.
Ushbu chiston haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.
1) ushbu chiston oddiy chistonlar turiga kiradi; 2) ushbu chiston majoziy chistonlar turiga kiradi; 3) chistonning qofiyalarini muqayyad qofiya deb atash mumkin; 4) chistonning qofiyalarini mutlaq qofiya deb atash mumkin.
A) 1,3 B) 1,4 C) 2,3 D) 2,4

34. Odamlarning ma’naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish.har bir fuqaroning uni yoshidan qat’i nazar.shu maydonni qatnashchisiga aylantirish, bizni eng samarali yo‘limizdir. Berilgan gapda noo‘rin qo'llangan tushum va qaratqich kelishiklarining sonini toping.
A) 3 o'rinda tushum, 3 o'rinda qaratqich kelishigi
B) 3 o‘rinda tushum, 1 o‘rinda qaratqich kelishigi
C) 3 o'rinda tushum, 2 o‘rinda qaratqich kelishigi
D) 2 o'rinda tushum, 1 o'rinda qaratqich kelishigi

35. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devoniga necha xil lirik janrga oid asarlar kiritilgan?
A) 16 xil B) 21 xil C) 14 xil D) 18 xil

36. Xalqaro Bobur jamg‘armasi tashabbusi bilan 2006-yili Hirotda qaysi ijodkorning qabri aniqlashtirilib, u yerda o‘zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbara bunyod etildi?
A) Alisher Navoiy B) Jomiy
C) Husayn Boyqaro D) Lutfiy

1. Odil Yoqubov pyesalari nomi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) «Yurak yonmog‘i kerak», «Olma gullaganda».
B) «Izlayman», «Diyonat».
C) «Ilk muhabbat», «Tilla uzuk».
D) «Ko‘hna dunyo», «Ulug'bek xazinasi».

2. Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday oldi ekan odamzod?!
Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu misralarda qaysi kuy nazarda tutilgan?
A) «Munojot» B) «Dilxiroj»
C) «Cho‘li iroq» D) «Tanovar»

3. Quyida berilganlardan to‘g‘ri hukmni aniqlang.
A) mehnatkash so‘zi tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimcha o‘rnida -kor qo‘shimchasini qo‘llash mumkin
B) g‘allakor so‘zi tarkibidagi so‘z yasovchi qo'shimchaning omonimi -il sifat yasovchi qo‘shimcha bilan ma’nodosh bo‘la oladi
C) paxtakor so'zi tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimcha o‘rnida -li qo‘shimchasini qo‘llash mumkin
D) savlatli so‘zi tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimcha o'rnida -kor qo‘shimchasini qo'llash mumkin

4. Dam oladi kunduzi, xonadonning yulduzi.
Kechasi ochilur,osmonga sochilur.
Osmonda u yaraqlab kulib turar charaqlab.
Ushbu parchada ismlarning munosabat shakli necha o'rinda qatnashgan?
A) 8 B) 6 C) 4 D) 5

5. «Alpomish» dostonida Alpomish «...Men sachratib borsam minib bir tulpor, 0‘zima yor, bobo, senga xizmatkor...» deb kimga aytgan?
A) Boybo'riga B) Shohimardon pirga
C) Boysariga D) Qultoyga

6. «Savodi ta’lim» she’riy risolasi muallifi kim?
A) So‘fi Olloyor B) Munis
C) Ogahiy D) Furqat

7. Odil Yoqubovning mustaqillik yillarida yozgan romanining nomi qaysi javobda berilgan?
A) «Muzaffar Temur» B) «Diyonat»
C) «Ko‘hna dunyo» D) «Adolat manzili»

8. Alisher Navoiy inson umridagi qaysi davrni «tufuliyat avoni» deb atagan?
A) yigitlik davrini B) qarilik davrini
C) o‘rta yoshlik davrni D) bolalik davrini

9. Ochiq chehrangni to ko‘rdi dema, ey gul ochilmishdir,
Xijolat g‘oyatidin aylamish kulgu ayon g‘uncha.
Munis qalamiga mansub ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping.
A) husni ta’lil B) tarse’
C) ishtiqoq D) iyhom

10. Qaysi javobda harakat nomidan keyin qo‘shila oladigan qo‘shimchalar to‘g‘ri berilgan?
A) shaxs-son, zamon, mayl
B) egalik, kelishik, zamon, nisbat

C) nisbat, bo‘lishsizlik, mayl
D) egalik, kelishik, ko‘plik
11. Uning ayollarga ehtiromi ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rog‘lar va nodir me’moriy yodgorliklarda ham aks etadi. Ushbu gapda yasama fe’llar nechta gap bo'lagiga nisbatan hokim bo‘lak vazifasini bajargan?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta
12. Yeseninning «Dog‘lar ketmish majruh ko'ngildan» she’rida kimga «mezbon» deb murojaat qilinadi?
A) ohu ko‘zli gulruxsorga B) karvonsaroy egasiga
C) soqiyga D) choyxonachiga
13. Qaysi javobda imlo qoidasiga oid noto‘g‘ri fikr berilgan?
A) Qisqartma so'zlar har doim qo‘shib yoziladi.
B) Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo‘shib yoziladi.
C) Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi.
D) Oliy darajadagi unvon va mukofotlar aiomi tarkibidagi so'zlar har biri bosh harf bilan yoziladi.
14. Ko‘zlarim hali harf tanimas edi,
Qalam ushlolmasdi hali qo‘llarim.
Kapalak izidan quvib tinmasdim,
Yulduzlarni sanar edim tunlari. (M. Boboyev)
She’riy parchada necha o‘rinda qarashlilik ma’nosini bildirgan egalik qo‘shimchalari qo‘llangan?
A) 3 B) 4 C) 2 D) 5
15. Mehnat kishini uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan.
Berilgan gapda fe’llarning asosidagi sirg‘aluvchi undosh tovushlar miqdori nechta?
A) 6 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta
16. 0‘quv darsliklarida berilgan qaysi xalq dostonlari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan?
A) «Alpomish», «Rustamxon»
B) «Alpomish», «Rustamxon», «Kuntug‘mish»
C) «Rustamxon», «Kuntug'mish», «Ravshan»
D) «Kuntug‘mish», «Ravshan»
17. Qaysi maqol ergash gapli qo'shma gapdan iborat?
A) Qoqilsang, toshdan o‘pkalama!
B) Avval o‘yla – keyin so‘yla!
C) Sariyog' sasimas, asal aynimas.
D) Vaqting ketdi - naqding ketdi.
18. Qaysi gapda yasama so‘z fonetik o'zgarish asosida yozilgan so‘zga tobelanishi kuzatiladi?
A) Fevral oyiga kelib Sovuqning shashti xiyol pasaydi.
B) Tog‘liklarning biron to‘yi, ma’rakasi, gap-gashtagi usiz o‘tmaydi.
C) Suzma va qatiqning inson salomatligi uchun foydasi ko‘p.
D) Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi.
19. Alisher Navoiy Najmiddin Kubro haqida «Nasoyim ul-muhabbat» asarida shunday yozgan edi: «Alarg'a ... ondin laqab bo‘ldiki,har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish,ul kishi g‘olib bo‘lurlar ermish».
Nuqtalar o'rniga ul buyuk zotning mos nom (laqab)larini qo'ying.
A) Tummat ul-kubro B) Kubro
C) Valiytarosh D) Abuljannob
20. Tuyuq janrining asosiy qoidasiga aylangan 4 ta adabiy- badiiy talabni aniqlang.
1) tuyuq to‘rt misradan iborat bo‘ladi; 2) tuyuq sochma she’r tarzida bo‘lishi kerak; 3) a - a - a - a yoki a - a - b - a tarzida qofiyalanadi; 4) tuyuq ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilishi kerak; 5) tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli bo'lishi kerak; 6) tuyuq masnaviy tarzida yozilishi kerak; 7) tuyuq besh misradan oshmasligi kerak.
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 1, 3, 4, 7 D) 1, 3, 4, 5
21. Siz bilan bizga Alloh 0‘zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog’ desa tog‘ bor,bog‘ desa bog‘ bor, har tongda bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o‘zimizni baxtli deb bilmog'imiz kerak.
(O. Sharafiddinov)
Ushbu gapdagi uyushgan bo'laklarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) hol B) to‘ldiruvchi
C) aniqlovchi D) kesim
22. Tarkibida yordamchi so‘zlardan faqat sof yuklama qatnashgan gapni toping.
A) Bu ishlar faqat menga kerak emas.
B) Faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ham ochamiz.
C) Sen-chun jonim fido, aziz Vatanim!
D) Kaltafahmlargina odamlaming kamchiligini ko‘radilar-da.
23. Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,
Ichida chichqonlar bolalab yotgan.
Izidan tushgan pishak oltoyda yetgan,
Munday qalmoq qo‘lin bulg‘ab keladi.
«Alpomish» dostonidan olingan ushbu parchada kimning ta’rifi berilgan?
A) Qo‘shquloq B) Boyqashqa
C) Ko‘kaldosh D) Ko‘kaman
24. Qaysi maqolda ikki o‘rinda shaxs oti qo'llangan?
A) Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.
B) Mehmon otangdan ulug‘.
C) Zar qadrini zargar biladi.
D) Arslon izidan qaytmas, yigit - so'zidan.
25.Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg‘aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do‘stlari orasida alohida ahamiyatga ega.
Gapdagi yasama so‘zlar qaysi turkumlarga oidligini aniqlang.
1) ot; 2) sifat; 3) fe’l; 4) ravish.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4
26.*Buyuk olim, odamning nopok istaklari va tuban ehtiroslarini uyga qamab qo'yilgan uch maxluq: odam, to‘ng‘iz va arslonga o‘xshatgan ekan*.
Berilgan gapda ham hokim, ham tobe qismi yasama bo'lgan birikma haqida to‘g‘ri hukmni aniqlang.
A) holli so‘z birikmasi
B) aniqlovchili so‘z birikmasi
C) ega va kesim moslashuvi
D) to‘ldiruvchili so‘z birikmasi
27. Berilganlardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega?

1) bo‘shamoq; 2) ko‘nglini bo'shatmoq; 3) ko‘nglini ochmoq; 4) ko'ngildan o'tkazmoq; 5) boshga ko'tarmoq; 6) jon bermoq; 7) ko‘z yummoq.
A) 4 tasi B) 7 tasi C) 5 tasi D) 6 tasi
28. G‘azal janri haqida berilgan barcha to‘g‘ri fikrlarni aniqlang.
1) 7 va 9 baytli g'azallar eng mukammal hajmli g'azallar hisoblanadi. 2) G‘azalda taxallus qo'llash majburiy. 3) G'azalda bitta qofiya tizimiga amal qilinadi. 4) Bir g‘azal boshdan-oxir bir vaznda bitiladi.
A) 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4
29. Qaysi qatorda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt, birlashgan fe’l shakli ishtirok etgan?
A) Ular uzoq suhbatlashgandan so'ng o‘rinlaridan turdi.
B) Mehmonlar kechroq taklif etilgan edi.
C) Qiz turtinib xonaga kirib keldi.
D) Birdan havo bulut bo'lib, momaqaldiroq gumburladi.
30. Quyidagi gapda moslashuvli tobe bog'lanish necha o‘rinda qo'llangan?
Ishlarni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bog‘liq.
A) 3 B) 2 C) 2 D) 4
31. Bu yil bahorni juda-juda sog‘indik. Ayniqsa, yanvarning izg'irinli, ayozli kunlarida ko‘klamning qadri juda bilindi. Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar isiy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi. Odamlarning bahri-dili ochilib, kayfiyatlari ko‘tarilib, bahorgi tashvishlarga sho‘ng‘ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi ch*ulg‘ab olgan. Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog‘dagi qor zaxirasidan xursand - bu yil hosil mo‘I bo‘lishidan umidvor. (I. Normatov)
Berilgan parchada nechta gap tarkibidagi fe’l nisbat qo‘shimchasi bilan shakllangan?
A) 4 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 3 ta
32. «Ulug‘bek xazinasi» romanida Ulug‘bekka xiyonat qilgan Shohruhiya qal’asi boshlig'i kim edi?
A) Mironshoh B) Sulton Jondor
C) Ibrohim Po‘lat o‘g‘li D) Abu Said Mirzo
33. **Uning ayollarga ehtiromi ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rog‘lar va nodir me’moriy yodgorliklarda ham aks etadi.**
Ushbu gapda nechta so‘z faqat tobe bo‘lak vazifasini bajargan?
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 6 ta
34. Yasama fe’llar qatorini aniqlang.
1) qaltiramoq; 2) ko‘karmoq; 3) chiqarmoq; 4) irg'ishlamoq; 5) uyqusiramoq.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 4, 5
35. Qaysi gapdagi so‘zlar imlosida bir o'rinda fonetik o'zgarish kuzatiladi?
A) To‘polonda oyog‘im lat yeganga o‘xshaydi, shuning uchun darrov chiqolmadim.
B) Tabiatga bunday mehrni mening qalbimga onam solib qo‘ydi va qalbimda go‘zallikni sevish, xushfe’l bo‘lish kabi xislatlar uyg‘ondi.
C) Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko'ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta tugma sochilib yotibdi.
D) Bolalik inson hayotining shunday poydevoridirki, umr binosining bo‘y-basti, salobati unga bog‘liq bo‘ladi.
36. «Toshkentnoma» she’rida Maqsud Shayxzoda qaysi ijodkorni «asl shoir edi» deb aytadi?
A) Hamid Olimjonni B) Oybekni
C) Fitratni D) Usmon Nosirni
1. Belgisiz qo'llangan qaralmish ishtirok etgan gapni toping.
A) Ilm aqlning chirog'i hisoblanadi.
B) Bizning qishloq tog' bag'rida.
C) Daryo labida turib ko'klam quchog‘ida tovlanayotgan olmazor chiroyiga suqlanardim.
D) Qaralmish belgisiz qo‘llanmaydi.
2. Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz,
Yotishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.
She’riy parchadagi munosabat shakllari tarkibida uchramaydigan undoshni toping.
A) z B) y C) g D) n
3. *Kumush qishdan,zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati.*
Ushbu sodda gapda ishtirok etgan so'zlarning o'zaro grammatik bog'lanishi bo'yicha tahlili to‘g‘ri ko'rsatilgan qatorni toping.
A) gapda bitta teng bog'lanish, bitta moslashuvli, uchta bitishuvli, ikkita boshqaruvli tobe bog'lanish mavjud
B) gapda bitta teng bog'lanish, ikkita moslashuvli, ikkita bitishuvli, ikkita boshqaruvli tobe bog'lanish mavjud
C) gapda bitta teng bog'lanish, bitta moshlashuvli, ikkita bitishuvli, ikkita boshqaruvli tobe bog’lanish mavjud
D) gapda bitta moslashuvli, ikkita bitishuvli, ikkita boshqaruvli tobe bog'lanish mavjud
4. Bu gapning butun dahshati shu tobda bilindi.
Ushbu gapdagi olmoshlarning vazifasini toping.
A) aniqlovchi, ega, hol
B) aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi
C) aniqlovchi, aniqlovchi, hol
D) aniqlovchi, aniqlovchi
5. Navoiy «Xazoyin ul-maoniy»ga jami nechta qit’a kiritgan?
A) 250 ta B) 200 ta C) 180 ta D) 210 ta
6. Keltirilgan gap turini aniqlang.
Bahor osmonida chaqnasa chaqin,
Ko'ksingdan otilar olovli nafas.
A) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
B) aralash murakkab qo‘shina gap
C) ega ergash gapli qo‘shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap
7. To‘y xarjida yuzta boy yapon Bir kambag‘al o‘zbekcha yo‘qdir. (E. Vohidov)
Ushbu she’riy parchada urg‘u ajratib ko‘rsatilgan so‘zning nechanchi bo‘g‘iniga tushadi?
A) uchinchi bo‘g‘iniga B) bu so‘z urg‘u olmaydi
C) ikkinchi bo‘g‘iniga D) birinchi bo‘g‘iniga
8. Navoiyning qaysi asarida: «Agar bir go‘zal har qancha chiroyli va oy yuzli bo‘lsa-yu, lekin gapirmasa,devordagi suratdan farq qilmaydi» degan fikrlar berilgan?
A) «Farhod va Shirin» B) «Hayrat ul-abror»
C) «Mahbub ul-Qulub» D) «Layli va Majnun»
9. Qaysi so‘zlarga ikkita so‘z yasovchi morfema ketma-ket qo'shilganda ikki xil fonetik o‘zgarishni kuzatish mumkin?
1) taroq; 2) yig‘i; 3) qiyin; 4) tarqa; 5) o‘yin; 6) sariq.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

10. Sen bo‘lmasang so'zlarning
Bag‘ri ming tilim bo‘lar,
Onajon,ona tilim,
Mening shohona tilim. (Barot Yarash)
She’riy parchada otlar tarkibida qatnashgan shakl yasovchi qo'shimchalar soni necha?
A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta

11. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy va siyosiy atamalarni joriy etishni ta’minlaydi. Gapdagi yasama so‘zlarning yasalish asosi qaysi so'z turkum(lar)iga xos?
A) sifat, fe’l B) sifat, ot
C) faqat ot D) ot, sifat, fe’l

12. «0‘tkan kunlar» romanidan o‘rin olgan quyidagi parcha asardagi qaysi qahramon haqida) «O'choq boshida qo'polgina, 45 yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir».
A) To‘ybeka B) Oyshabibi
C) Hanifa D) Oybodoq

13. A. Muxtor pyesalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
1) «Mardlik cho‘qqisi»; 2) «Samandar»; 3) «Hamshaharlarim»; 4) «Zar qadri»; 5) «Yaxshilikka yaxshilik»; 6) «Kumush tola».
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 2, 4, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3

14. Muqimiy «Emdi sendek jono, jonon qaydadir» she’rini qaysi janrda yozgan?
A) muxammas B) murabba’
C) musallas D) musaddas

15. Shoshilish zo‘riqishga olib keladi. Qadamingni o'rinsiz tezlashtirsang,qoqilib yiqilishing mumkin.
Berilgan parchada fe’llar necha xil nisbat qo'shimchasini olgan?
A) 4 B) 3 C) 1 D) 2

16. Bu quvonchli xabarni sonadoshlariga yetkazish uchun yotoqxona tomon jo‘nashdi. Ushbu gapda omonimlik sususiyatiga ega ko‘makchi morfema(lar) qatnashgan nechta so‘z bor?
A) 7 ta B) 8 ta C) 5 ta D) 6 ta

17. Uyga qaytib kelganlaridan so'ng Zuhra charchoqning zo'ridan darhol uxlab qoldi. Uyqusida tush ko‘rdi. 0‘sha Inrna bilan yana uchrashgan finish.
Ravishlar necha o‘rinda qo‘llangan?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2

18. Qaysi baytda tashbehning o'xshamish, o‘xshatilmish vosita unsurlari qatnashgan?
A) Ermas alar tufrog‘-u, sen nuri pok,
Xilqat alarg‘a-u sanga - tiyra xok.
C) Pari ruxsoralarning ko‘rkaboyi, yuzing navro‘z-u, qoshing bayram oyi.
C) Sipehri husn ichindin moh, sen-sen,
Zamona xo‘blarig‘a shoh, sen-sen.
D) Quyosh yanglig’ yuzungizni yorutti,
Falakdek bizni sargardon yarotti

19. Muloqat, hatto, jaholat, tamosha, tadbiq, mabodo, afsuzlanmoq, tag‘dir.
Ushbu so‘zlardan nechtasi to‘g‘ri yozilgan?
A) 5 tasi B) hammasi to‘g‘ri yozilgan
C) 3 tasi D) 2 tasi

20. «Alpomish» dostonida Barchin «Saman otli, sarjig‘ali bek yigit»ga murojaat qilib nimani so'raydi?
A) olti oyga muhlat so‘raydi
B) poygada g'olib bo‘lishini so‘raydi
C) to‘rt shartini bajarishini so‘raydi
D) olishmasdan siltab otishini so‘raydi

21. Qaysi asar Misr amiri Batxasbekka bag‘ishlangan?
A) «Yatimat ad-dahr» B) «Hibat ul-haqoyiq»
C) «Latofatnoma» D) «Gulistoni bit-turkiy»

22. Quyidagi qaysi gapda o'zaro omonimlik xususiyatini namoyon qilgan qo‘shimchalar ishtirok etgan?
A) Sening qancha puling bor edi? - deb so‘radi mirshab sho‘rlik kosib yigitdan.
B) Terim sezuvchanligini aytganim uchun meni bu ishdan ozod qilishdi.
C) Kimdir ko'rmay ketgan baxtni ko‘rdim men, kimdir aytmay ketgan so‘zni aytdim men.
D) Meni kutayotir ajib kelajak, u mening iqbolim, mening baxtimdir. Men ko'rmagan baxtni ko'rajak kimdir, men aytmagan so‘zni aytajak kimdir.

23. Shu kunlarda keng jahonda oqib keldi e’tirof,
Istiqlolning jamoliga boqib keldi e’tirof.
She’riy parchada jarangsiz til undoshi + unli + jarangli til undoshi qolipidagi bo‘g‘inlar soni nechta?
A) 6 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 7 ta

24. Uning ayollarga ehtiromi ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rog‘lar va me’moriy yodgorliklarda ham aks etadi. Ushbu gapda nechta so‘z ham tobe, ham hokim bo‘lak vazifasini bajara oladi?
A) 3 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta

25. Har ikkala qismi ham yasama so‘zdan hosil bo'lgan juft sifatlar ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
1) ilmiy-ommabop; 2) aqlli-hushli; 3) uyma-uy; 4) meva-chevali; 5) qishin-yozin.
A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 2

26. Qaysi shoir maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug‘ullangan?
A) Muhammad Sharif Gulxaniy
B) Xo‘janazar Huvaydo
C) Turdi Farog'iy
D) Maxmur

27. Guli ruxsoringa qarshu ko‘zimdan qonli oqar su(v),
Habibim,fasli guldir bu, oqar su(v)lar bulanmasmi? (Fuzuliy)
Berilgan baytdagi tanosib san’ati asosida yana qaysi san’at vujudga kelgan?
A) talmeh B) ta’did
C) tashbeh D) tarse’

28. Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor anga ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g'amxor topilmas.
Ushbu baytda qaysi she’riy san’at qo‘llangan?
A) ruju B) tajnis C) tarse’ D) tardi aks

29. Mirtemir Samarqandda qaysi shoir bilan do‘stlashib qoladi?
A) Hamid Olimjon B) Oybek

C) G‘afur G‘ulom D) Abdulla Qahhor
30. Sabr - achitib gapiradigan nasihatgo'y, kishi tabiati undaJ ozor chekadi, lekin unga amal I qilgan oxirida so‘zsiz murodiga yetadi.
Ushbu gap turini aniqlang.
A) bog‘lovchisiz qo‘shma gap
B) bog‘langan qo‘shma gap
C) aralash murakkab qo‘shma gap
D) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma
31. Bolalikdan boshlangan do‘stlik insonning keyingi ulg‘aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do‘stlari orasida alohida nhamiyatga ega.
Gapdagi fe’lning vazifa shakllaridan nechtasi tarkibida nisbat qo‘shimchalari mavjud?
A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
32. Quyidagilardan jo‘nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shilib kela oladigan vazifadosh ko‘makchilar sonini aniqlang. Ko‘ra, asosan, qadar, muvofiq, yarasha, tomon, qaramay.
A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4 ta
33. Qaysi qatorda qo‘shma gap qismlari orasida tinish belgisi to‘g‘ri qo'yilgan?
A) Ruboiyni ichida o‘qidi: vuzini tabassum qopladi.
B) Bu dunyoda uning i|o‘lidan kelmaydigan ish yo‘q; duradgorlig-u, suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik - hammasini eplaydi.
C) Yozgan xatiga qarab bexato aytish mumkin: bu odam sermulohaza, latif, dono ishonuvchan, dilgir, kuyunchak, mehribon yo bo‘lmasa, shoshqaloq, ziqna, asabiy, dag‘al, dali-g‘uli va hokazo.
D) Kavushuni to‘g‘rilab qo‘yish kerak - qurilishni ham, jamoani ham sariq chaqaga sotadi.
34. Men chekib anduh, o‘lay, el joni bo‘lsin ul Masih,
Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo‘l.
Berilgan baytda qo‘llangan she’riy san’atlarni toping.
A) ruju‘, tashbeh B) talmeh, tazod
C) tanosib, irsoli masal D) kitobat, muammo
35. Alisher Navoiy qaysi ijodkorga «...bir necha matla’lari borkim, tab ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o‘qusa, bo‘lur», deya yuqori baho bergan?
A) Jomiy B) Atoiy
C) Husayn Boyqaro D) Lutfiy
36. «Farg'ona hikoyalari», «Muhabbat», «Cho‘l burguti» kabi kitoblar muallifi kim?
A) Turob To‘la B) Said Ahmad
C) O’tkir Hoshimov D) Odil Yoqubov
1. 0‘rin ravishi qaysi gapda ishtirok etgan?
A) Jiydazordan hozirgina keldim.
B) Yarim kechadan keyin bog’da yotgan Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi
C) Ular yerni kovlab kirolmabdilar, lekin bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.
D) Sherqo‘ziga nari ketishni buyurdi.
2. – Men ko‘rganman osmonlarning tinig'ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini.
Beshikdagi go‘daklarga tig‘ sanchdilar,
Shunda bildim mardlaringning qilig‘ini.
Fonetik o'zgarishga uchragan yasama so‘zlar sonini aniqlang.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3
3. «Man alarning kattasidurman. Ulug‘lar, raiyasiga base mehribon bo‘lur. Balog'a otlarini ro‘baro‘ qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidur».
Ushbu so'zlar qaysi qahramonga tegishli?
A) «Namrud hikoyati», Namrud
B) «Ilon va qarlug‘och hikoyati», qaldirg‘och
C) «Uzum hikoyati», Null alayhissalom
D) «Sulaymon va chumoli hikoyati», Manzara
4. Hozirgi Xo‘jand hududidagi Kengko‘l qishlog‘ida yashovchi cho‘pon oilasida dunyoga kelgan ijodkor kim?
A) Tog'ay Murod B) Mirtemir
C) Odil Yoqubov D) Pirimqul Qodirov
5. Bog'lovchi uyushiq bo‘laklarni bog‘lab kelmagan gapni toping.
A) Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma’rifatni, ya’ni bilishning eng oddiy martabasini ham o‘z ichiga oladi.
B) Ko‘ngil, sen munchalar nega kishanlar birla do'stlashding? Na faryoding, na doding bor, Nechun sen muncha sustlashding?
C) Unda yashash ishtiyoqi, pok bir muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi.
D) Menda na bol tayyorlamoq va na uya solmoq mashaqqati bor.
6. Kiyurdi ilgiga davron nigine,
Nigun o'rnida la’li otashine. Ushbu misralar Alisher Navoiyning qaysi qahramoni haqida.
A) Farhod B) Iskandar
C) Xusrav D) Bahrom
7. Quyidagi qaysi qo'shimchalar qo'shilganda so‘z asosidagi bir keng unli boshqa keng unliga almashadi?
1) ot va sifat yasovchi -q; 2) fe’l yasovchi -ar; 3) sifat yasovchi –qi; 4) fe’l yasovchi -a;5) shaxs oti yasovchi -vchi: 6) sifat yasovchi –k
A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
8. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida uchraydigan quyidagi qaysi hikoyat qahramonlarnina bir-biriga aytgan hikoyasi ichida hikoya tarzida berilgan?
A) Toshbaqa bilan chayon haqidagi hikoyat
B) Xolboqi miskar haqidagi hikoyat
C) Mu‘tamir otlig’ podshoh haqidagi hikoyat
D) Bozanda va Navozanda haqidagi hikoyat
9. Sof ilmiy uslub fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo‘llaniladi, shuning uchun bu uslubda fanning ma’lum sohasigagina doir atamalar keng qo‘llaniladi Ushbu gapda nechta ot va sifat turkumiga oid yasama so‘zlar ishtirok etgan?
A) 4 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 3 ta
10. Hamid Olimjon - buyuk shoir. U she’rlarida baxt va shodlikni kuylar, so‘zdan tanbur torlaridek turli pardalarda foydalanar, uni o'ynata, jaranglata bilardi. Ushbu gapda olmoshlar qaysi gap bo'laklari vazifasini bajargan so‘zlarga ishora qilgan?
A) ega, aniqlovchi B) ega, to‘ldiruvchi
C) aniqlovchi, to‘ldiruvchi D) ega, ega
11. Yusuf Xos Hojibning •Qutadg‘u bilig» asari haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.
1) Qofiyalarda, asosan, turkiy so'zlar qo‘llangan. 2) Asarda faqat to‘q qofiyalar nchraydi. 3) Ba’zan shoir radifdan oldin i|ofiya keltirib o‘tirmaydi. 4) Asarda misralarni o‘zaro uliangdosh so‘zlar bilan vnkunlashga

qat'iy amal qilingan.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4
12. Nodar Dumbadzening «Quyoshni ko'ryapman» nomli asari haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.
A) dastlabki yirik romani
B) II Jahon urushi yillarida gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi aks ettirilgan hikoyalar to'plami sanaladi
C) bu asar qissa janrida yozilgan
D) bu asar asosida o'zbek san'atkorlari tomonidan videofilm ishlangan
13. Qaysi maqolda antonim qo'shimchalar ishtirok etgan?
A) Befoyda so'znl aytma, foydali so'zdan qaytma.
B) Bevafo do'stdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq yaxshi.
C) Benuqson do'st axtargan do'stsiz qolar.
D) Nomard bo'lib ko'pga kirguncha, mard bo'lib o'lgan yaxshi.
14. Mumtoz she'riyatda qoilanadigan asosiy obrazlardan qaysi timsol(lar) baytda hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi?
A) oshiq B) ag'yor
C) ma'shuqa D) ag'yor va ma'shuqa
15. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?
A) Birozdan so'ng hamma tinchib, tashqaridan tanbur ovozi yangradi.
B) Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx ayonlariga qarab: «Qilichni emas, aqlni ishga solmoq kerak», - dedi.
C) Kech bo'lsa ham uyda yolg'iz qolgan onaizorini bir ko'rib ko'nglini xotirjam qilib ketishga ahd qildi.
D) 0'tmish merosimizni o'rganishga, ota- bobolarimizning boy tajribalarini ko'zdan kechirishga azm qildi.
16. Mustaqillik davrida yaratilgan «Tilsim saltanati», «Ovorani ko'rgan kechirganlari» romanlarining muallifi kim?
A) Salomat Vafo B) Omon Muxtor
C) Ulug'bek Hamdam D) Nazar Eshonqul
17. *0'qituvchilik* so'zida so'zga yangi ma'no beruvchi nechta morfema qatnashgan?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta
18. Qaysi shoir Navoiyni «... Manzuri shahanshohi Xuroson» deb ta'riflagan?
A) Munis B) Fuzuliy C) Bobur D) Ogahiy
19. «Yulduzim», «Yo'l», «Tug'ilish» kabi she'rlar muallifini toping.
A) Saida Zunnunova B) Zulfiya
C) Asqad Muxtor D) Erkin Vohidov
20. Usmon Nosirning «Nil va Rim» she'rida tilga olingan Ro, Azirisa, Tifon qanday nomlar?
A) qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar nomi
B) qadimgi yunon lashkarboshilarining nomi
C) qadimgi Rim adabiyoti qahramonlarining nomi
D) quldorlik davri Misr hukmdorlarining nomi
D) 0'zimcha hayronman // bu kishilar nega taraddudlanib o'tiribdi?
21. Berilgan gapda qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgisini toping.
A) ikki nuqta B) tire
C) nuqtali vergul D) vergul
22. Qaysi javobda vazifadosh biriktiruv bog'lovchilari keltirilgan?
A) -u, -yu, -da, ba'zan
B) -u, -yu, -da, bilan
C) -u, -yu, -da, na ... na
D) -u, -yu, -da, balki
23. Qaysi maqolda belgisiz qo'llangan kelishik qo'shimchaal uchramaydi?
A) Kishi yurtida shoh bo'lguncha o'z yurtingda gado bo'l!
B) Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma!
C) Birovga choh qazigan,o'zi yiqilar.
D) Qunt bilan o'rgan hunar, Hunardan rizqing unar.
24. Quyidagi she'riy parchada nechta sodda gap mavjud?
**Qancha tavallolar qilmay taqdirdan,// Sochilgan umrimdan bermas bir yilin. // Lek afsus, nadomat achchiq zahridan // Kashf etib bo'lmaydi ro'shnolik.**
A) 2 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
25. Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o'quvchilaming fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Berilgan parchadagi yasama fe'llar qaysi turkum(lar)dan hosil qilingan?
A) ot, sifat B) ot, olmosh
C) sifat, fe'l D) ot
26. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tmog'imiz lozimki, barcha inson o'z tilida aniq va sof, talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirmog'i lozim. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping.
A) 5 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 2 ta
27. Qaysi uslubda nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi?
A) oddiy so'zlashuv B) og'zaki publisistik
C) ilmiy-ommabop D) badiiy
28. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit-turk» asarida turklar asli nechta qabila ekanligi aytilgan?
A) 25 ta B) 20 ta C) 24 ta D) 30 ta
29. Madaniy axloq kishining yurishida,so'zlashishida, ovqatlanishida.odamlar bilan xayrlashishida,ularni raqsga taklif etishida aks etadi.
Berilgan gapdagi ismlar guruhiga kiruvchi yasama so'zlar tarkibida qo'llangan lug'aviy shakl yasovchilar sonini aniqlang.
A) 6 ta B) 11 ta C) 8 ta D) 5 ta
30. *Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo'lsa,unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa,ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da'vo qilsa.onaning pok qalbi timsol.*
Berilgan parchada necha o'rinda aniqlovchi to'ldiruvchiga tobelangan?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
31. 0'. Umarbekov tomonidan yaratilgan sahna asarlarini toping.
1) «Yigit va qiz»; 2) «0'zgalar uchun»; 3) «Komissiya»; 4) «Kuzning birinchi kuni»; 5) «Arizasiga ko'ra».
A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 5,
C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 3,
32. Ochiq chehrangni to ko'rdi dema,ey gul ochilmishdir, Xijolat g'oyatidin aylamish kulgu ayon g'uncha.

Munis qalamiga mansub ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping.
A) ishtiqoq B) husni ta’lil
C) iyhom D) tarse’
33. Anavini qara,o‘zimizning to‘pori Zebimi shu? Gapdagi olmoshlar tarkibida nechta ko'makchi morfema qo'llangan?
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3
34. Qaysi javobdagi gapda sifat asosli sodda yasama fe’l qatnashgan?
A) Ko‘klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.
B) Izg‘irindan ko‘zlar yoshlanadi,oyoq ostidagi qorlar g‘ichirlaydi.
C) Meni aldamagil, yolg‘onchidan el nafratlanadi.
D) Shuncha yil sizni deb yashadim.
35. Quyidagi gapdagi so‘z birikmalari haqida *to‘g‘ri* ma’lumot berilgan javobni aniqlang.
**Bu o‘lkada iqlim o‘rtacha,suv mo‘l,yer unumli,quyosh nuri yetarli.**
A) 1 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv munosabatli so‘z birikmasi bor
B) 2 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv munosabatli so'z birikmasi bor
C) 5 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv munosabatli so‘z birikmasi bor
D) 4 ta bitishuv, 1 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv munosabatli so‘z birikmasi bor
36. Bu holatni Amir Temur saltanatida ham ko‘rishimiz mumkin.
Ushbu gapda yopiq bo‘g‘in bilan tugagan so‘zlarda shovqinlilarga kiruvchi nechta sirg‘aluvchi jarangli undosh ishtirok etgan?
A) 4 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 2 ta
1. ...Sharq olamida,jumladan, o‘zimizning 0‘rta Osiyo sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir- biriga yaqinlashtirishga,bir- birini qo‘llab-quwatlab hayot kechirishga zamin tug‘diradi. Ushbu gapdagi so‘zlarda nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud?
A) yettita B) sakkizta
C) oltita D) beshta
2. Bir asrcha muqaddam yozilgan bo‘lsa-da, mustaqil 0‘zbekiston gerbidagi tasvirni yodga soladigan «Boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur» misralari qaysi ijodkor she’ridan o‘rin olgan?
A) Hamza B) Zavqiy
C) Avloniy D) Cho‘lpon
3. Quyida berilgan nechta so‘zdagi qo‘shimcha o'rnida uning omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan ma’nodoshini qo'llash mumkin?
Aravachi, beobro‘, noo‘rin, shirali, nodavlat, kuchli, suvli.
A) 4 ta B) 6 ta C) 2 ta D) 3 ta
4. Navoiy « Xamsa »sidagi qaysi dostonning muqaddimasida
Ani nazm etki,tarhi toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayl beandoza bo‘lg‘ay.
Yo‘q ersa nazm qilgo‘nni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq? degan misralar orqali «Xamsa» yozishdagi belgilab olgan o‘z yo‘l-yo‘riqlarini bayon etadi?
A) «Hayrat ul-abror» B) «Sab’ai sayyor»
C) «Layli va Majnun» D) «Farhod va Shirin»
5. Qayumxon Olimovichning uyida zo‘r tantana. Shaharning ko‘zga ko‘ringan odamlari taklif etilgan. Ikki qavatli kottejning hovlisi taxta so‘rilar, institut oshxonasidan keltirilgan stol, stullar bilan bezatilgan.
Matndagi fe’llar qaysi nisbatda?
A) o‘zlik, orttirma B) majhul, orttirma
C) majhul D) o‘zlik, majhul
6. «Bo‘g‘zimda qolmasin erk to‘la kuyim», «Oyoqosti bo'lmasin ajdodini go‘ri» kabi badiiy tasvirlar kimning ijodida uchraydi?
A) A. Muxtor B) X. Saloh
C) Shuhrat D) 0‘. Umarbekov
7. Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda,
Ziyon yotib, rahmat toshar bo'lganda,
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,
Tush ko‘ribman fayzi sahar bo'lganda.
Ushbu misralarni qaysi qahramon o‘z tushi haqida aytgan?
A) Ravshan B) Qorajon
C) Alpomish D) Barchinoy
8. Bu yerda tayyorlanayotgan lurli-tuman shirin milliy taomlar, qulay shart- nharoitlar va yuqori darajada ko‘rsatilayotgan xizmatimiz sizga so‘zsiz manzur bo‘lishiga ishonchingiz komil bo‘lsin.
Ushbu gapda bir tovushdan iborat qo‘shimchalar soni nechta?
A) 4 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 3 ta
9. Faridundek oqil bo‘lsak, bo'lmasmi?
Jahonni beurush bo‘lsak, bo‘lmasmi?
Ushbu parchada qo'llangan she’riy san’atlarni toping.
1) talmeh; 2) tashbeh; 3) tashxis; 4) tajnis; 5) ruju.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 5
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 4
10. Daraxtni faqat gullata bilishgina emas, balki undan mo‘l va shirin hosil olish ham san’atdir. Ushbu gapdagi yordamchi so‘zlar turkumiga kiruvchi birliklar sonini toping.
A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 2 ta
11. A. Borovkovning e’tirof etishicha, qaysi asar eski o‘zbek tilining eng yorqin namunasi hisoblanadi?
A) «Qissasi Rabg‘uziy» B) «Xusrav va Shirin»
C) «Tafsir» D) «O‘g‘uznoma»
12. Quyidagi qaysi birlik(lar) imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan?
1) «Sharq» nashriyot-matbaa konserni; 2) Jahon tinchlik kengashi; 3) Yozuvchilar uyushmasining raisi; 4) Ko‘kdumaloq Kompressor Stansiyasi.
A) 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 4 D) 3
13. **Ular o‘z xalqiga muhabbat, millat birligini, uning kelajak istiqbolini, hayot farovonligini jo'shib kuyladilar.**
To‘ldiruvchilar haqida berilgan to‘g‘ri hukmlarni toping.
1) ushbu gapdagi uyushiq to'ldiruvchilar tarkibidagi kelishik qo'shimchasini ko'makchi bilan erkin almashtirish mumkin; 2) yasama to‘ldiruvchilar tarkibida bir xil so‘z yasovchi qatnashgan; 3) yasama to'ldiruvchilar tarkibidagi morfemalar soni bir xil; 4) gapda to‘ldiruvchi vazifasini bajargan so‘zlarning barchasi kesim bilan bevosita aloqaga kirishgan.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 4

14. “Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim, o‘sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman”. Ushbu parcha 0‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyadan olingan?
A) «Iltijo» B) «Gilam paypoq»
C) «Haqqush» D) «Qarz»
15. Otasining oqimidan keyin uyimga tez-tez keladigan bo'ldi. Gapdagi qanday qo‘shimchalar o‘zaro shakldosh bo‘lib kelgan?
A) so‘z yasovchi va egalik qo‘shimchalari
B) egalik va shaxs-son
C) lug‘aviy shakl yasovchilar
D) so‘z yasovchi,egalik va shaxs-son
16. Olmoshning qaysi tur(lar) i har doim turlangan holatda qo'llanadi?
A) o‘zlik B) o‘zlik va kishilik
C) kishilik, ko'rsatish, gumon D) o‘zlik va ko‘rsatish
17. Ot kesim kesimlik qo‘shimchalarisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanganda ot kesim va ega orasida tire qo‘yiladi. Berilgan qoidaga quyidagi maqollardan qaysi biri mos keladi?
A) Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.
B) Bilgan topib gapirar,
Bilmagan - qopib.
C) Bulbul chamanni sevar,
Odam - Vatanni.
D) Vaqting ketdi - naqding ketdi.
18. 1934-yilda yozilgan, 1935-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalida kitobning birinchi bobi bosilgan, 1936-yilda kitob to‘liq chop etilgan.
Ushbu ma’lumotlar qaysi asar haqida?
A) Abdulla Qodiriyning «O’tgan kunlar» romani haqida
B) Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani haqida
C) Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani haqida
D) Abdulla Qahhorning «Sarob» romani haqida
19. «Avesto»da devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi qanday atalgan?
A) vendidod B) yashtlar
C) gohlar D) Visparad
20. Ba’zi paytlarda yoshligimninj unutilmas damlarini esga olaman. Bolalikdagi o'ynoqi damlarni eslab quvnayman. Meni o‘tloqlarda dumalatgan, chang ko‘chalarda o‘ynatgan damlarni unutolmay qiynalaman. Ushbu parchadagi tovush tarkibi o‘zgargan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga mansub?
A) ot, olmosh B) ot, sifat, ravish
C) ot, fe’l, sifat, olmosh D) fe’l, olmosh
21. Qaysi qatorda barcha mustaqil so‘zlar bir hokim so’zga bevosita tobelangan?
A) Mag‘rur, mutakabbir, yolg‘onchi bo‘lmaylik va shunday illatlardan pok bo'laylik.
B) Zo‘rni ko‘rib tan berishni o'rganing.
C) Yellar hech kimga aytmay uzoq-uzoqlarga olib ketsinlar.
D) Men sizga bugun xushxabar olib keldim.
22. Biringiz boqiysiz, biringiz - balki puch,
Biringiz shodliksiz, biringiz - o‘kinch,
Biringiz baxtlisiz, biringiz - baxtsiz.
Biringiz yarador, o‘lgansiz vaqtsiz.
Ushbu she’riy parchada sifatdan yasalgan ot necha o‘rinda qo'llangan?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1
23. Bolalikdan boshlangan do‘stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida nhamiyatga ega.
Gapdagi fe’lning vazifa nhakllaridan nechtasi tarkibida nisbat qo'shimchalari mavjud?
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4
24. So‘z ochma boshqa bo‘stondan,menga bo‘ston shu bo'stondir,
Shu bo‘ston kaftida durdona bizning 0‘zbekistondir.
Ushbu parchada necha o‘rinda ot so'z turkumiga oid so‘z ega vazifasini bajargan?
A) 1 o‘rinda B) 4 o‘rinda C) 2 o'rinda D) 3 o‘rinda
25. Tikan kirsa kafingga kiynasidin,
Chiqarsam erdi kiprik ignasidin
Ko‘rib xor-u xas o‘rningda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni.
Ushbu misralar orqali Navoiy quyidagi qaysi ma’shuqaning o‘z yoriga sadoqatini tasvirlagan?
A) Shirinning B) Diloromning
C) Laylining D) Mehrning
26. Quyidagi gaplarning qaysi birida ham affiksatsiya, ham kompozitsiya usulida yasalgan sifatlar ishtirok etgan?
A) Osmono‘par koshonalar, yangi libos kiygan cho‘l-u sahrolar tasviri qo‘shiq parvoziga esh bo‘ladi.
B) Milliy mafkuramizda milliylik umumbashariy g‘oyalar bilan uyg‘unlashib ketgan.
C) Samig’ aka elliklardan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso‘z odam.
D) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o‘ynaydi.
27. Nodar Dumbadzening dastlabki yirik asarlarini toping.
A) «Kukaracha», «Qishloq bolalari»
B) «Qishloq bolalari», «Abadiyat qonuni»
C) «Men,buvim,Uiko va Illarion»,«Quyoshni ko‘ryapman»
D) «Men buvim, Iliko va Illarion», «Quyosh kechasi»
28. Har qanday go'zallik zamirida mehnat yotadi.
Ushbu gapda yopiq bo‘g‘inlar tarkibida lablanmagan unlilar soni nechta?
A) 6 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 9 ta
29. Sening tug‘ilib o‘sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko‘zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilar edim. Ushbu gapda fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘zlarda necha o'rinda portlovchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?
A) 5 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 4 ta
30. «Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi» (Behbudiy) asari qahramonlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
A) Tangriqul, Toshmurod, Davronbek, boy
B) Davronbek, Xudoyberdi, Rapoil, Mehriniso
C) Tangriqul, Toshmurod, Davlat, Xayrulla
D) Davronbek, Mehriniso, Xushvaqt, Toshmurod
31. Tasavvufda haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko‘ngil bergan nafs bandalari qanday atama bilan yuritiladi?

A) xaloyiq B) tarso C) dunyo D) solik

32. Abdulla Qahhor qalami bilan ming-minglab o‘quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi. Berilgan gapda ostiga chizilgan so‘zda qaysi usulda ma’no ko‘chgan?
A) metonimiya B) metafora
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

33. Usmon Nosir qaysi she’rida «0‘z zimmamga katta ish oldim» deb yozgan edi?
A) «Nil va Rim» B) «Bog'im»
C) «Yurak» D) «Monolog»

34. «Adolat manzili» asari muallifi kim va qaysi janrda yozilgan?
A) Chingiz Aytmatov, roman
B) Odil Yoqubov, roman
C) Odil Yoqubov, qissa
D) Pirimqul Qodirov, roman

35. Tasavvuf adabiyotida talqin etilishicha, inson komillik yo‘liga birinchi qadamni qanday qo‘yishi mumkin?
A) shariat bosqichiga kirganda
B) haqiqat bosqichiga kirganda
C) har uchala bosqichni o‘taganda
D) tariqat bosqichiga kirganda

36. Asarda markazlashgan davlat qurish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli urushlarni qo‘zg‘ash, yovuzlik, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash g‘oyalari ilgari suriladi.
Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama bo‘lgan so‘z birikmalaridi tobe va hokim qism o‘zaro qanday usul bilan bo‘g‘langan?
A) boshqaruv, bitishuv B) bitishuv
C) boshqaruv D) moslashuv

1. Erkin ertangi ekishni ertaga ertalab eplaydi.
Ushbu tez aytishda necha turkumga oid so‘z ishtirok etgan?
A) 3 B) 5 C) 4 D) 2

2. « Boburnoma » da «latif shahr» sifatida ta’riflangan shaharni toping.
A) Samarqand B) Andijon
C) Buxoro D) Hirot

3. «Alpomish» dostonida Boychibordan ko'ngli to‘lmagan Alpomishga qaysi qahramon «Xafa bo‘lma,bu oting,balki tulpor chiqar.yomon dema. Bu oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko‘p yerlami ko'radi, maqsadini liaqdan topib qoladi», deya uning ko'nglini ko‘taradi?
A) Qultoy B) Qaldirg'ochoyim
C) Boybo‘ri D) Shohimardon pir

4. Quyida berilgan so'zlarning nechtasidan sifat yasovchi qo‘shimcha bilan omonim bo‘la oladigan qo'shimcha yordamida ot yasash mumkin?
Arava, o‘yin, yosh, kech, oqshom, tayan, bos.
A) oltitasidan B) beshtasidan
C) to‘rttasidan D) yettitasidan

5. Ot bilan ifodalangan ot kesim qatnashmagan gapni aniqlang.
A) Yaxshi ro‘zg‘or - jannat, yomon ro‘zg‘or - do‘zax.
B) Ichingdagi eng katta dushman - g‘azab va nafrat.
C) Do‘stlik bilan ellar obod.
D) Teshaboy ashaddiy dushman-u, biz xizmatini qilayotgan depo xo‘jayini do‘stmi?

6. 0‘ttizinchi yillarning o‘ rtalarida, bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rganday bo'lar edim // dumli yulduz chiqqan edi // Babar (Bobur bo‘lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi finish belgilari qo‘yiladi?
A) nuqta, vergul B) ikki nuqta, nuqtali vergul
C) nuqtali vergul,tire D) ikki nuqta, vergul

7. **Bir g‘uncha edingiz yel ham tegmagan,ifor taralardi sizdan muattar.**
Ushbu gapda *hid* bildiruvchi sifat(lar) qaysi bo‘lak vazifasida kelgan?
A) ega, aniqlovchi B) ega C) aniqlovchi D) hol

8. Ajratib yozish qoidasiga muvofiq kelmaydigan javobni toping.
A) birinchi qismi sifat,ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan geografik nomlar ajratib yoziladi
B) qo‘shma fe’l qismlari ajratib yoziladi
C) o‘zaro-dan qo‘shimchasi bilan bog‘langan takror so‘zli birikmalar orasiga chiziqcha qo‘yilmaydi va qismlari ajratib yoziladi
D) tarkibida bo‘yi.orti,oldi so‘zlari bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi

9. Janni Rodarining ilk to‘plami qanday nomlangan?
A) «Quvnoq she’rlar kitobi» B) «Rim ertaklari»
C) «Quvg'indilar taqdiri» D) «Kitoblar jangi»

10. Vatanni himoya qilish uchun jon fido etgan o‘g‘lonlarimizning onalarini achchiq iztirob, ayriliqlar qiynasa ham, ular istiqlolga erishish maqsadida ko'ksini qalqon qilgan farzandlari haqida faxrlanib gapiradilar.
Ushbu gapda ko‘makchilar qaysi gap bo‘laklarini shakllantirgan?
A) sabab holi, sabab holi, vositali to‘ldiruvchi
B) sabab holi, maqsad holi, kesim, vositali to‘ldiruvchi
C) maqsad holi, maqsad holi, vositali to‘ldiruvchi
D) vositali to‘ldiruvchi, maqsad holi, vositali to'ldiruvchi

11. Mashg'uloti, kasbi-kori bilan bog‘liq qing‘ir ishlarga qo‘l urgan 46 ta shaxs illatlari qaysi asarda fosh etilgan?
A) Muqimiy, «Tanobchilar»
B) A. Qahhor, «Adabiyot muallimi»
C) Muqimiy, «Sayohatnoma»
D) Zavqiy, «Hajvi ahli rasta»

12. «Sen qaltis bosilgan qadamning qurboni bo‘lib qora yerda yotibsan! Shu lozimmidi? Bir to‘da yigit Mag‘ribdan Mashriqqacha yetgan, lak-lak lashkari bo'lgan saltanatni qulata olarmidingiz! ... Bu ishni biz qilsak mayli edi: yoshimizni yashab, oshimizni oshaganmiz. Biz hamma qabihlikni ko‘rdik, podshohlarga yaqin yurmoq ajdarga yaqin yurmoqdan xavfli ekanini bilardik».
Ushbu parchada qaysi asar qahramonining fikr-o‘ylari aks ettirilgan?
A) «Yulduzli tunlar», Nizom
B) «Me’mor», Najmiddin Buxoriy
C) «0‘tkan kunlar», Yusufbek hoji
D) «Qutlug$^4$ qon», Shokir ota

13. Ul nadurkim, sabz to'nlik, yoz yog'ochning boshida,
Qish yalango‘ch aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so‘ngoki ichida
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.

Ushbu chiston haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.
1) ushbu chiston oddiy chiston lar turiga kiradi; 2) ushbu chiston majoziy chistonlar turiga kiradi; 3) chistonning qofiyalarini muqayyad qofiya deb atash mumkin; 4) chistonning qofiyalarini mutlaq qofiya deb atash mumkin.
A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

14. Badavlat donishmanddan so‘radilar: «Turmushingiz farovon bo‘lsa ham, nima uchun sizning xursand bo‘lib yurganingizni ko'rgan ernasmiz?» U shunday javob beribdi: «Chunki och-yalang‘och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman». Keltirilgan parchada olmoshning nechta turi ishtirok etgan?
A) 2 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 3 ta

15. Berilgan maqollardan qaysi biri qo‘shma gap emas?
A) Vaqting ketdi - naqding ketdi.
B) Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.
C) Yurgan - daryo, o‘tirgan - bo‘yra.
D) Vataning tinch - sen tinch.

16. «Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq,yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Padarkush» B) «0‘tkan kunlar»
C) «Qutlug‘ qon» D) «Kecha va kunduz»

17. Navoiyning qaysi g'azalida Jomi Jam va Xizr timsollari keltirilgan?
A) «Kelmadi» B) «Qilg‘il»
C) «Ne bo‘lursan?» D) «Bo‘ldum sanga»

18. Xorazm shevasiga mansub uchak so‘zi adabiy tilda qanday ma’noga ega?
A) beshik B) oy C) tom D) samolyot

19. Sizlardan oldin shaharga kelgan xorijlik mehmon. Ushbu so‘z birikmasi zanjiri Ichida nechta so‘z birikmasini hosil qilish mumkin?
A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta

20. Asosi omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan yasama so‘z ega vazifasini bajargan gapni toping.
A) Urush quyon ovi emasligini barchamiz bilamiz-ku!
B) Donolarimiz kulgi umrni uzaytirishini aytganlar.
C) Pichoqning o‘tkiri damidan ma’lum.
D) Yoz mavsumiga tayyorgarlik ishlari avj pallaga chiqdi.

21. **Navoiyni tushunish uchun millat tilining barcha shevalaridan xabardor bo‘lmoq lozim.** Berilgan gapning ega va kesimini aniqlang.
A) xabardor - ega, bo‘lmoq lozim – kesim
B) Navoiyni tushunish - ega, xabardor bo‘lmoq lozim – kesim
C) xabardor bo'lmoq lozim - kesim, ega ifodalanmagan
D) millat - ega, xabardor bo‘lmoq lozim – kesim

22. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazish uchun oshiqayotgan elchilar kabi guvullab Usmonlarnikiga jo'nashdi. Ushbu gapda qatnashgan fe’lning vazifa shakllari qanday sitaktik vazifa bajargan?
1) kesim; 2) ega; 3) to‘ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5

23. Sifatdosh otlashgan gapni toping.
A) 0‘z ko‘zim bilan ko'rganlarimni, kechirganlarimni qalamga olgim kelib qoldi.
B) Eshon otasining gapiga amal qilib, to‘rdan joy tegmaydigan, poygakga choy tegmaydigan bir odam bo‘lib yetishibdi.
C) Jimirlab oqayotgan daryo bo‘yiga borib, yuz-qo‘llarini yuvib, bir-ikki qultum suv ichishdi.
D) Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko‘tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi.

24. x va h undoshlarining farqlovchi belgilari quyidagi qaysi tasnifda namoyon bo‘ladi?
A) tarkibiga ko‘ra
B) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra
C) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra
D) hosil bo‘lish o'rniga ko‘ra

25. Quyidagi qaysi gapda ko‘makchi vositali to'ldiruvchini yasama so‘z bilan ifodalangan kesimga bog‘lagan?
A) Bu qumg‘on choy qaynatish uchun sotib olingan.
B) Otasini bu yerga dam olish uchun olib kelgani ma’lum bo‘ldi.
C) Yurtimiz rivojiga o‘z bilimimiz bilan hissa qo'shmoq bizning maqsadimiz.
D) Vatan himoyasi yo'lida jon fido etgan o‘g‘lonlarimiz haqida gapirmog‘imiz darkor.

26. **Buyuk olim, odamning nopok istaklari va tuban ehtiroslarini uyga qamab qo‘yilgan uch maxluq: odam,to‘ng‘iz va arslonga o'xshatgan ekan.** Berilgan gapda ham hokim, ham tobe qismi yasama bo‘lgan birikma haqida to‘g‘ri hukmni aniqlang.
A) holli so‘z birikmasi
B) aniqlovchili so‘z birikmasi
C) ega va kesim moslashuvi
D) to‘ldiruvchili so‘z birikmasi

27. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini,muhabbati va nafratini,buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim.
Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini aniqlang.
A) 4 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta

28. Qaro ko‘zum,kel-u, mardumliq emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.
Berilgan baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan?
A) tajnis B) ruju C) talmeh D) ta’did

29. Fe’lning sifatdosh shakli aniqlovchi vazifasida kelmagan maqolni aniqlang.
A) Betga aytganning zahri yo‘q.
B) Bilgan topib gapirar, bilmagan qopib.
C) Sinamagan otning sirtidan o‘tma!
D) Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.

30. Xalq og‘zaki ijodida mard yigitlar bo‘ynidagi mas‘uliyat ular ulg'aygan sari ortib borishi haqida ham to'xtab o‘tilgan.
Ushbu gapdagi nechta so‘zda tovush tushish hodisasi ro‘y bergan?
A) beshta B) ikkita C) to‘rtta D) uchta

31. Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So‘ng niraanidir aytmoqchi bo'lib taraddudlandi-yu,lekin aytmay,indamay qo‘ya qoldi. Ushbu gapdagi ravishlar sonini toping.
A) 3 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 4 ta

32. Quyidagi qaysi fe’llardan barcha nisbat shakllarini hosil qilish mumkin?
1) kuymoq; 2) ishlamoq; 3) osmoq; 4) turmoq; 5)

yuvmoq.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3
C) 2, 3, 5 D) 3, 5

33. **Yuraklarda yurmagini,**
**Oh, oldindan bilgan qush.**
**Har o'zbekning yuragini**
**O'ziniki qilgan qush.**
Halima Xudoyberdiyevaning ushbu misralari qaysi o'zbek shoiriga bag'ishlangan?
A) Usmon Nosir B) Shavkat Rahmon
C) Muhammad Yusuf D) Cho'lpon

34. Qaysi maqolda fonetik o'zgarishga uchragan so'z qo'llanmagan?
A) Bilagi zo'r birni yiqar,
Bilimi zo'r mingni yiqar.
B) Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma!
C)Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin.
D) Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri so'zla!

35. - Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini.
Beshikdagi go'daklarga tig' sanchdilar,
Shunda bildim mardlaringning qilig'ini.
She'riy parchada asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha tarkibli nechta so'z ishtirok etgan?
A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

36. Zamon menga juda qimmat nasihat etdi(1).
Agar bilsang, zamon to'la nasihat erur(2).
Ajratib ko'rsatilgan so'zlar haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.
A) 1-to'ldiruvchi kesim, 2-murakkab ot kesim
B) 1-murakkab ot kesim, 2-murakkab fe'l kesim
C) 1, 2-qo'shma fe'l
D) 1-qo'shma fe'l, 2-bog'lamali ot kesim

1. Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Besh-olti keksa yig'ilib maslahat qilishdi.
B) Kumush qishdan,zumrad lmhordan,qolishmaydi kuzning ziynati.
C) Ko'cha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi.
D) Aytilgan so'z - otilgan o'q.

2. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon - Vatandir!
Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
A) aniqlovchi, ega B) aniqlovchi
C) aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi
D) aniqlovchi, to'ldiruvchi

3. Quyidagi qaysi gapda o'zaro omonimlik xususiyatini namoyon qilgan qo'shimchalar ishtirok etgan?
A) Sening qancha puling bor edi? - deb so'radi mirshab sho'rlik kosib yigitdan.
B) Terim sezuvchanligini aytganim uchun meni bu ishdan ozod qilishdi.
C) Kimdir ko'rmay ketgan baxtni ko'rdim men, kimdir aytmay ketgan so'zni aytdim men.
D) Meni kutayotir ajib kelajak, u mening iqbolim, mening baxtimdir. Men ko'rmagan baxtni ko'rajak kimdir, men aytmagan so'zni aytajak kimdir.

4. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit-turk» asarida turklar asli nechta qabila ekanligi aytilgan?
A) 25 ta B) 20 ta C) 30 ta D) 24 ta

5. Quyidagi gapda ishtirok etgan yordamchi so'zlar sonini toping. Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p. A) 3 ta
B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta

6. Tarkibidagi bir tor unli fonema o'rnida boshqa tor unli so'z ma'nosini farqlashi mumkin bo'lgan so'zlar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) urush; 2) tiqmoq; 3) uzuk; yumish; 5) molik; 6) jiyron.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 4
C) 1, 2, 4, 5, 6 D) 1, 3, 4

7. Thokurning ilk she'riy to'plamini aniqlang.
A) «Qo'shiqlar kitobi» B) «Hisob-kitob»
C) «Oqshom qo'shiqlari» D) «Suratlar va qo'shiqlar»

8. Quyida keltirilgan gapdagi ot turkumiga oid so'zlar miqdorini aniqlang.
Mehnat bilan topilgan boylik qadrini tushunib yetgan o'g'il pulni o'ylab ishlatadigan, xayrli yo'llarga sarflaydigan bo'ldi.
A) 5 B) 8 C) 7 D) 6

9. «Alpomish» dostonida qaysi qahramon o'zining quyonchiq kasali borligini bahona qilib, vaziyatdan chiqib ketgan edi?
A) Hakimbek B) Ko'kaman
C) Ko'kaldosh D) Qorajon

10. Qaysi asarda Jaloyir nomli personaj uchraydi va u kim edi?
A) «Navoiy» romani qahramoni, saroy shoiri
B) «Muqanna» asari qahramoni, arab ruhoniysi
C) «Muqanna» asari qahramoni, arab qo'shini qo'mondoni
D) «Abulfayzxon» asari qahramoni, mashhur xo'jalardan

11. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'paysa,xalqning do'stligi,ularning yurtga mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.
Ushbu gapdagi sodda yasama so'zlar tarkibida nechta ko'makchi morfema qatnashgan?
A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 4 ta

12. Nizomiy «Xamsa»sining birinchi dostoni qanday ataladi?
A) «Tuhfat ul-ahror» B) «Matla ul-anvor»
C) «Maxzan ul-asror» D) «Hayrat ul-abror»

13. Daraja-miqdor ravishi qo'shma fe'lga ergashib kelgan gapni aniqlang.
A) U 0'rmonjonga, Bo'taboyga, Kanizakka ko'pdan ko'p salom aytdi.
B) Xadicha xola xiyla o'ylanib turdi.
C) To'lagan aka zo'rg'a kelgan ekan.
D) Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak.

14. Odil Yoqubovning Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bek kimga «Humo qushi kimning boshiga qo'nur,buni yolg'iz Haq taolo bilur. Humo qushi meni tark etsa - sening baxting» degan achchiq so'zlarni aytgan?
A) Ibrohim Po'latga B) Sulton Jondorga
C) Abu Said Mirzoga D) Abdullatifga

15. Rumiy «Masnaviy» isaridagi murakkab falsafiy inuhokama va mushohadalarni qaysi asarida ravshan va sodda iliakldа tushuntirib bergan?
A) «Ichingdagi ichingdadur» B) «Ulug' devon»
C) «0'n usul» D) «Ishonarli to'plam»

16. Ogahiyning «Dahr uyi bunyodkim, suv uzadir mahkam emas» tarji'bandining har bir bandi necha misradan iborat?
A) olti misra B) besh misra
C) yetti misra D) to'rt misra
17. Lutfiyning aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan g'azalini aniqlang.
A) «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» radifli g'azali
B) «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu...» g'azali
C) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali
D) Xoh inon, xoh inonma» radifli g'azali
18. Agar ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilsa, ko'chirma gapdagi qaysi sintaktik birlik to'ldiruvchi vazifasini bajaradi?
A) ega B) aniqlovchi
C) to'ldiruvchi D) undalma
19. Sof ilmiy uslub fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo'llaniladi, shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasigagina doir atamalar keng qo'llaniladi. Ushbu gapda nechta ot va sifat turkumiga oid yasama so'zlar ishtirok etgan?
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 5 ta
20. Qaysi gapda asosi sifat turkumiga mansub bo'lmagan yasama so'zlar ishtirok etgan?
A) Oybek domla nihoyatda tiyraklik va samimiyat bilan opaning gaplarini tasdiqladi.
B) - Mehmon degan sergap bo'lmaydi, - dedi u ayyorlarcha kulib.
C) Shuni aytadilar-da, to'qlikka sho'xlik deb.
D) Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi.
21. Go'zallik nima? Go'zallik biz uchun suyukli narsadir. Go'zal - go'zal emas, suygan go'zaldir. Nega suygan go'zal - hamma gap ana shunda. Gaplarda ishtirok etgan olmoshlarning sintaktik vazifalari to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) ega, kesim, to'ldiruvchi, hol
B) kesim, to'ldiruvchi, hoi, aniqlovchi, kesim
C) kesim, hol, ega
D) kesim, hol, ega, aniqlovchi
22, Qaysi javobda nom to'g'rш yozilgan?
A) Osiyo Taraqqiyot Banki
B) Osiyo «Taraqqiyot» banki
C) Osiyo taraqqiyot banki
D) Osiyo» taraqqiyot banki
23. Jarangsiz jufti mavjud bo'lmagan til oldi undoshlarini aniqlang.
A) r, 1, n B) 1, m, r, n
C) x, h D) r, 1, n, y
24. Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o'quvchilaming fikrini o'stiradi,ulardagi kuzatuvchanliH qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Berilgan parchada nisbat qo'shimchalari olgan fe'llar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.
A) 2 ta fe'l orttirma nisbatda, 3 ta fe'l majhul nisbatda
B) 3 ta fe'l orttirma nisbatda, 2 ta fe'l majhul nisbatda
C) 5 ta fe'l orttirma nisbatda
D) 3 ta fe'l orttirma nisbatda, 1 ta fe'l majhul nisbatda, 1 ta fe'l aniq nisbatda
25. Muhammadrizo Ogahiyning «Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas» asari qaysi janrda yozilgan?
A) tarji'band B) qasida
C) g'azal D) muxammas
26. Quyidagi asarlarning qay birida «Har bir ishda bir yetu ustoz istamakning bayoni» berilgan?
A) «Hayrat ul-abror» (Alisher Navoiy)
B) «Hibat ul-haqoyiq» (Ahmad Yugnakiy)
C) "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib)
D) «Sabot ul-ojizin» (So'fi Olloyor)
27. Qiynalib yurayotgan bola og'ir xo'rsinib kuzatib turganlarga birma-bir qarab chiqdi.
Tarkibidagi undoshlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan bo'lak(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?
A) 1 o'rinda aniqlovchi, 1 o'rinda hol, l o'rinda to'ldiruvchi
B) 1 o'rinda hol,l o'rinda to'ldiruvchi
C) 1 o'rinda hol
D) 1 o'rinda aniqlovchi, 1 o'rinda hol
28. Berilgan so'zlardan paronim juftiga ega bo'lganlarining barchasi ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) sut; 2) da'vo; 3) ham; 4) mehr; 5) qism.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2
29. Turkiy adabiyotda qit'aning ilk namunasi qaysi asarda uchraydi?
A) Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk"
B) Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig»
C) Rabg'uziy «Qissasi Rabg'uziy»
D) Xo'jandiy «Latofatnoma»
30. O'zini uning qonuniyatlarini tushunadigan ziyoli hisoblaydigan badiiy qahramon kim?
A) M Maxdum («Mehrobdan chayon»)
B) Sobitjon («Asrga tatigulik kun»)
C) Miryoqub («Kecha va kunduz»)
D Jo'lomon («Asrga tatigulik kun»)
31. - Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini,
Toshlar tegdi,terib oldim sinig'ini.
Beshikdagi go'daklarga tig* sanchdilar,
Shunda bildim mardlaringning qilig'ini.
She'riy parchada asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha tarkibli nechta so'z ishtirok etgan?
A) 2 B) 7 C) 3 D) 4
32. Tinish belgilari haqida berilgan barcha to'g'ri hukmlarni toping.
1) uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zgan oldin tire qo'yiladi; 2) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapidan so'ng nuqta qo'yiladi; 3) uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin tire qo'yiladi; 4) muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, undan keyin vergul, tire (yoki nuqta, tire) qo'yiladi va ko'chirma gap davom etadi.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2
C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4
33. Siz bilan bizga Alloh O'zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog'i bor, bog' desa bog'i bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tamom qilolmaydigan bir yurtni ... bergan ... (O. Sharafiddinov)
Ushbu gapda yasama fe'llar necha o'rinda qo'llangan?
A) 3 B) 5 C) 6 D) 4

34. Asqad Muxtorning «Po'lat quyuvchi» asari qaysi janrda yozilgan?
A) ballada B) ertak doston
C) ocherk D) poema
35. 0‘zak, So‘z, Negizvoylar «Biz sonning asosiy qismimiz, sizlar esa qo'shimchalar», - deb maqtana boshlabdi.
Ushbu gapda birgina tovushdan iborat morfemalar necha o'rinda qatnashgan?
A) 4 B) 2 C) 5 D) 3
36. 0‘rin ravishi qaysi gapda ishtirok etgan?
A) Sherqo‘ziga nari ketishni buyurdi.
B) Yarim kechadan keyin bog‘da yotgan Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi.
C) Jiydazordan hozirgina keldim.
D) Ular yerni kavlab kirolmabdilar,lekin bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.
1. Kelgusi avlod zakovati va shijoatiga ishonmagan jamiyatning ichi mo‘rtdir. Ushbu gapda grammatik bog'lanish nechta?
A) 9 ta B) 8 ta C) 10 ta D) 7 ta
2. Qaysi javobda ot+ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma’nosini anglatuvchi qo‘shma sifatlar ko‘rsatilgan?
1) ko‘zoynak; 2) sheryurak; 3) oybolta; 4) qo‘yko‘z; 5) shirinso‘z; 6) toshbag‘ir.
A) 1, 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 4, 6 C)2, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6
3. Berilgan gapdagi yasama so'zlar qaysi turkumlarga tegishliligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.
1) ot; 2) sifat; 3) fe’l.
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 3
4. Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo‘lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o‘stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir.
Ushbu gapda sifatlovchi aniqlovchi qaysi gap bo‘laklariga ergashgan?
A) ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
B) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
C) to‘ldiruvchi, kesim
D) ega, to‘ldiruvchi, kesim
5. Qaysi gap ega + aniqlovchi ’ + aniqlovchi + to‘ldiruvchi + kesim qolipida hosil bo‘lgan?
A) Atrof yaproqlarning mungl| shivir-shiviriga to‘ldi.
B) Jannat xola shoshib, hansirab yo‘lakka yugurdi.
C) Anvar do‘stining gap boshlaganidan quvonib ketdi.
D) Sham zo‘r mo‘jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi.
6. Orttirma darajadagi yasama nifat qo'llangan gapni aniqlang.
A) Hamma yoq top-toza.
B) Ko‘m-ko‘k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.
C) Ular uchun eng bexatar yo‘l Toshkent edi.
D) Insonning hayot yo‘li g'oyat murakkab.
7. Chingiz Aytmatovning qissa janrida yozilgan asarlarini toping.
1) «Qiyomat»; 2) «Alvido, (lulsari»; 3) «Yuzma-yuz»; 4) «Tog‘lar qulaganda»; 5) «Birinchi muallim».
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4
8. Qaysi gapda uch o'rinda yasama ravish ishtirok etgan?
A) Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so‘ng uning tarhini yaxshilab qog‘ozga chizajagini aytdi.
B) Tinglar edim betinim,
Uzun tunlar yotib jim.
C) Shu payt uydan - yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, liar yoqqa qarab tushib kela boshladi.
D) Garchi bu hoi ularni oqlashga tirnoqcha asos bo‘lmasa ham,ko‘nglimga tasalli,o‘z-o‘zini aldash ileysizmi - shularning biri edi.
9. Qaysi gapda egalik qo‘shimchasi yasama otga qo‘shilgan?
A) Shu sevinch ikkovlariga ham iladillik baxsh etgandek bo‘ldi.
B) Osmon kabi tiniq tuyg‘ular mavj uradi bu yosh ko‘nglimda.
C) 0‘rindiqning chetida o‘tirgan ayol unga mehribonlik bilan tikilib turar edi.
D) Tilagim shuki, hamma baxtiyor bo‘lsin.
10. Qaysi gapda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi tufayli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z(lar) ishtirok etgan?
A) Ona Vatanidan ayrilgan mirzo Bobur bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi, uni o‘z she’rlarida tarannum etib yashadi.
B) Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi.
C) Vatan osmoni ko‘rpang, maysasi dimog‘ingni bosib yotadigan muattar bolishingdir.
D) Og‘zaki nutqingiz yaxshi bo‘lgani uchun davraga boshlovchilik qilish sizga topshirildi.
11. Qaysi gapda qo'shimcha qo'shilishi natijasida portlovchi tovush tushishi kuzatilgan?
A) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.
B) Sovuqning shashti pasayib, quyosh yana nur sochdi.
C) Mehnat qilsang, ko'nglingga yorug'lik tushadi.
D) Odamlar chiroyingga,kiygan kiyimingga qarab emas,balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.
12. Abdulla Qodiriy qanday romanlar yozish uchun ijodiy tayyorgarlik ko‘rgan, ammo yozib ulgurmagan?
A) «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri»
B) «Qasoskorning oltin boshi», «Fikr aylagil»
C) «Xalq dushmani», «Turg'un chavandoz»
D) «Ahvolimiz», «Millatimga bir qaror»
13. Qaysi gapda ham vositali, ham vositasiz to'ldiruvchi uyushgan?
A) Mustaqilligimizning shukuhli kunlarini, bayram tantanalarini munosib kutib olish uchun, dillarni xushnud etish uchun ishga kirishdik.
B) Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'liga olar, suyar va yuzlarini, sochlarini silab qo'yar edi.
C) Respublikamizda maktab o'qituvchilari va o'quvchilarini o‘quv darsliklari, qo‘llanmalar bilan ta’minlash yo‘lga qo'yilgan.
D) Serchang, sershovqin ko‘chalarda, xiyobonlarda odamlar daryoday oqib borar edi.
14. Qaysi gap tarkibida uch xil so'z turkumidan hosil qilingan yasama fe’llar mavjud?
A) Bir mahal bola yig‘ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi.
B) Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam odamlarni zavqlantiradi, bir-biriga birlashtiradi, do‘stlikni mustahkamlaydi.
C) Mirtursun xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, qadamini sekinlatadi.
D) Chollar kulgudan qotib qoldilar, ularning burishgan

yuzlari ruhlanib, ko‘zlarini kulgu namladi.

15. Qaysi so'zlarda so‘zga yangi ma’no beruvchi ikkita qo'shimcha ishtirok etgan?
1) tunamoq; 2) asabiylashtirmoq 3) umumiylikda; 4) shildiroq; 5) yasovchi.
A) 2, 3, 4 B) 1, 4, 5 C) 2, 3 D) 2, 4, 5

16. 0‘zbekiston - go'zal diyor,
Saodatga mehnati yor.
O'zgacha bir hikmati bor,
Halollikka aytar alyor.
Ushbu she’riy parchadagi otlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) ot so'z turkumiga oid so'zlai ikki o'rinda ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajargan
B) ot so'z turkumiga oid so'zlar ikki o'rinda kesim vazifasida kelgan
C) ot so'z turkumiga oid so'zlar faqat bosh bo'lak vazifasini bajargan
D) ot so'z turkumiga oid so'zlar to'rt o'rinda ega vazifasida kelgan

17. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ta’sirida asos fonetik o'zgarishga uchragan so'z mavjud bo'lgan gapni aniqlang.
A) Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib o'ynashmoqda.
B) Endi qayrilish bilmasin bu qanot.
C) Bir umr shu xonadonga o'rnashib olishga harakat qildi.
D) Ota olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oladiga o'g'li borligidan g'ururlanadi.

18. Mashg'uloti, kasbi-kori bilan bog'liq qing'ir ishlarga qo'l urgan 46 ta shaxs illatlari qaysi asarda fosh etilgan?
A) Muqimiy, «Sayohatnoma»
B) Zavqiy, «Hajvi ahli rasta»
C) Muqimiy, «Tanobchilar»
D) A. Qahhor, «Adabiyot muallimi»

19. Ko'zimda yosh bilan inlarman men ham,
Tilasam muhabbat tilarman men ham:
Ishq bilan dunyoni olarman men ham,
Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.
She’riy parchada necha o'rinda vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

20. Berilgan gaplarning qaysi birida tojik tilidan o'zlashgan <u>bog'</u> so'zi qo'llangan?
A) Uzumini ye, bog'ini surishtirma.
B) Yuz qopni bog'lab bo'lar
C) Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz
D) Bu ko'ringan tog'lar Asqar tog'idir,
Oyog'imda tilla kishan bog'idir.

21. Quyidagi gapda yasama so'zlar soni nechta?
Hamdardlik bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o’zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq va yuzaki hamdardlikning foydasi yo'q.
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 5 ta

22. Alisher Navoiyning qaysi g'azalida maqta’dan boshqa barcha baytlarning birinchi misralarida ichki qofiyaga qat’iy amal qilingan?
A) «Yo'q» radifli g'azalida B) «Etmas» radifli g'azalida
C) «Deyin» radifli g'azalida D) «Bo'1» radifli g'azalida

23. «To'nyuquq» bitiktoshida «Inju o'guz» deb tilga olingan joy nomi qayer edi?
A) Amudaryo B) Irtish daryosi
C) Sirdaryo D) Enasoy daryosi

24. Qaysi gapda kelishiklar bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?
A) Odamlarni ma’naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga. tortish, har bir fuqaroning uning yoshidan qat’i nazar, shu maydonning qatnashchisiga aylantirish bizning eng samarali yo'limizdir.
B) Tushuntirishning hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix hamda falsafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko'rsatmoqda.
C) Xalqparvar va insofli, diyonatli, boy-badavlat kishilarning millat uchun keltirgan foydalari benihoya kattadir.
D) Ma’rifatchilar elimizga ma’rifat urug'ini sochishda fidoyilik ko'rsatdilar.

25. Qaysi javobda imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'zlar qatori berilgan?
A) hijil, xijjalamoq, haspo'shlamoq
B) hijil, hijjalamoq, haspo'shlamoq
C) xijil, xijjalamoq, xaspo'shlamoq
D) xijil, hijjalamoq, xaspo'shlamoq

26. Qaysi qatorda orttirma nisbat qo‘shimchasi yasama o'timli fe’llarga qo‘shilgan?
A) sanalmoq, sarflatmoq B) yuvintirmoq, bezantirmoq
C) kuchaytirmoq, changitmoq D) o‘qitmoq, yodlatmoq

27. «Dunyo - kattakon ko‘l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to'lqin og‘alar bo'lsa, ketingdagi to‘lqin inilardir. Navbat o'tishar, avvalgiday bo‘lishar». Ushbu hikmatli so'zlar qaysi asarda keltirilgan?
A) Navoiy, «Mahbub ul-qulub»
B) Gulxaniy, «Zarbulmasal»
C) M. Koshg‘ariy, «Devonu lug'otit-turk»
D) Abay, «Nasihatlar»

28. Tasavvufda haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko'ngil bergan nafs bandalari qanday atama bilan yuritiladi?
A) xaloyiq B) tarso C) dunyo D) solik

29. Sifat yasovchi -iy qo'shimchasi vositasida hosil qilingan barcha yasama sifatlarni toping.
1) uzviy; 2) ommaviy; 3) siyosiy; 4) milliy; 5) aqliy; 6) botiniy.
A) 1, 4, 5, 6 B) 5, 6 C) 1, 5, 6 D) 1, 2, 3, 5

30. Qaysi javobda Usmon Nosir qalamiga mansub dramalar berilgan?
A) «Yana uylanaman», «Atlas», «Zafar»
B) «0‘rtoq Qarshiboyev», «So‘nggi kun», «Dushman»
C) «Hujum», «Cho‘rining isyoni», «Halil farang»
D) «Dushman», «So'nggi kun», «Atlas»

31. Qaysi gaplarda o‘zaro shakldosh qo‘shimchalar qatnashgan?
1) U uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi. 2) Bir umr ulardan o‘rnak olish orzusi bilan yashab o‘tamiz. 3) Mehmonlar qorovulning qistashiga qaramasdan ichkariga kirishmadi. 4) Dor qurilgan maydonda arqonlarga osilib o‘ynayotgan bolalarning qahqahasi eshitildi,
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3

32. Qaysi ijodkor «Tilak», «Totll damlar», «Tong edi» she’riy asarlari muallifi hisoblanadi?
A) Asqad Muxtor B) Abdulla Oripov
C) Muhammad Yusuf D) To‘ra Sulaymon

33. Uzun bir yog‘och topdi- da, asta olmani o'ziga tomon «hayday» boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog‘och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho‘ng‘ib yana «qochib» qolardi. Ushbu gapda yordamchi so‘z turkumiga xos grammatik birliklar haqidagi barcha to‘g‘ri fikrlar ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

# *ONA TILI VA ADABIYOT 2015* *2 VARIANT*

1) Ushbu gapda 1 ta vazifadosh, 1 ta sof bog‘lovchi qatnashgan. 2) Ushbu gapda 2 ta kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi qatnashgan. 3) Ushbu gapda 1 ta sof, 1 ta vazifadosh ko‘makchi qatnashgan. 4) Ushbu gapda barcha yordamchi so‘z turkumlariga oid birliklar qatnashgan.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 2, 3, 4
34. 0‘tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo‘shishni ham meros qilib qoldirishgan. (O. Sharafiddinov)
Gapdagi sodda yasama so‘zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) hol, to'ldiruvchi B) ega, to‘ldiruvchi
C) to‘ldiruvchi, kesim D) to‘ldiruvchi, aniqlovchi
35. Berilganlardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega?
1) bo'shamoq; 2) ko'nglini bo‘shatmoq; 3) ko‘nglini ochmoq; 4) ko‘ngildan o‘tkazmoq; 5) boshga ko'tarmoq; 6) jon bermoq; 7) ko‘z yummoq.
A) 6 tasi B) 7 tasi C) 4 tasi D) 5 tasi
36. Berilgan so‘zlardan nechtasi uchta ma’noli qismga ajraladi?
1) o‘zgarmoq; 2) tinchimoq; 3) suhbatlashmoq; 4) qaramlik; 5) atamashunos; 6) og'riqli; 7) eskirmoq.
A) 6 tasi B) 5 tasi C) 3 tasi D) 4
1. «Neksiya» O‘zbekistonning mo‘jizasi sifatida barchani liayratlantirdi va mustaqillikning kuch-qudratini gavdalantirdi. (iapdagi yasama so‘zlar sonini aniqlang.
A) 3 B) 4 C) 6 D) 5
2. Qaysi gapdagi yasama sifatning asosi omonimlik xususiyatiga ega?
A) Xalqimiz faqat jisman emas, qalban ham uyg‘oq bo‘lmog‘i lozim.
B) 0‘ymakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan eski eshikka kiramiz.
C) Bilimdon o‘z bilimi tufayli har qachon ofatlardan omon qoladi.
D) Jo‘shadi buloqning kumush voshlari,
Ham mungli, ham shirin jildirashlari.
3. Berilgan gapda ishtirok etgan so‘z yasovchi qo‘shimchalar sonini aniqlang. Mustaqillik bayramining quvnoqlik,shod-u xurramlik ila kutib olinishida shu tuproqda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi bor.
A) 6 B) 4 C) 5 D) 3
4. Kosa, piyola, choynak, stakan, bankalar, tovoqlar va oshxonaga taalluqli boshqa idishlar tuz bilan yuvilgandan so‘ng toza suvda chayib olinadi. Berilgan gapdagi narsa-buyum otlari miqdorini aniqlang.
A) 7 B) 6 C) 9 D) 8
5. Qaysi javobda turkiy tillar oilasi qipchoq guruhiga kiruvchi tillar keltirilgan?
A) ozarbayjon, qirg'iz B) tatar, o‘zbek
C) uyg‘ur, boshqird D) no‘g‘ay, qo‘miq
6. «Man ularning kattasidurman. Ulug'lar,raiyasiga base mehribon bo'lur. Balog'a otlarini ro‘baro‘ qilib, kichiklami xalos qilsa yaxshidur». Ushbu so‘zlar qaysi qahramonga tegishli?
A) «Sulaymon va chumoli hikoyati», Manzara
B) «Uzum hikoyati», Nuh alayhissalom
C) “Ilon va qarlug‘och hikoyati», qaldirg'och
D) «Namrud hikoyati», Namrud
7. Tarkibidagi bir keng unli o‘rnida boshqa keng unli so‘z ma’nosini farqlashi mumkin bo’lgan so'zlar to‘liq ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) undosh; 2) jiyron; 3) tong; 4) 4) malik; 5) xoni.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5
C) 1, 4, 5 D) 1, 5
8. Berilgan so'zlardan qaysilarining morfem tuzilishi turlicha ko'rinishga ega bo'lgan qismlarga ajratilishi mumkin?
1) terim; 2) bog'lar; 3) ko'zlar; 4) qaynatma; 5) qovurma.
A) 2, 3, 5 B) 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4
9. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga jarangli sirg'aluvchi lab undoshi yoziladi?
1) a..zal; 2) a..tomobil; 3) sha.. qat; 4) ta..tish; 5) a..g‘on; 6) mu., affaqiyat.
A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 2, 3, 6 D) 2, 6
10. Nechta jarangsiz til undoshining jarangli jufti bor?
A) 7 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 8 ta
11. Shermuhammad Munis qalamiga mansub asarlar berilgan javobi toping.
A) «Arnalar»,«Savodi ta’lim»
B) «Saodat ul-iqbol»,«Munis ul-ushshoq»
C) «Gulshani davlat»,«Munis ul-ushshoq»
D) «Savodi talim»,«Ta’viz ul- oshiqin»
12. Qaysi xalq dostonida «Kaptarday bo'b yurgan qizlar» tasviri berilgan?
A) «Ravshan» B) «Kuntug‘mish»da
C) «Alpomish» D) «Rustamxon»
13. Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Besh-olti keksa yig'ilib maslahat qilishdi.
B) Ko'cha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi.
C) Aytilgan so'z - otilgan o'q.
D) Kumush qishdan.zumrad bahordan,qolishmaydi kuzning ziynati.
14. Madaniy axloq kishining yurishida,so'zlashishida, ovqatlanishida,odamlar bilan xayrlashishida,ularni raqsga taklif etishida aks etadi. Berilgan gapdagi ismlar guruhiga kiruvchi yasama so'zlar tarkibida qo'llangan lug'aviy shakl yasovchilar sonini aniqlang.
A) 6 ta B) 11 ta C) 8 ta D) 5 ta
15. Qaysi maqolda aniqlovchining ikki turi ishtirok etgan?
A) Vataning tinch - sen tinch!
B) Aytilgan so'z - otilgan o'q.
C) Yolg'iz otning changi chiqmas,
Changi chiqsa ham,dong'i chiqmas.
D) O'ylamay qilingan ish,
Boshga keltirar tashvish.
16. «Ertadan kechgacha kundoshlari bilan o'pishadi, tfapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi». Ushbu parchada «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi qahramon holati aks ettirilgan?
A) Zebi B) Poshshaxon

C) Sultonxon D) Xadicha

17. Bu o'lkada iqlim o'rtacha, huv mo'l, yer unumdor, quyosh nuri yetarli.
IJshbu gap haqida to'g'ri fikrni uniqlang.
A) kesimi ishtirok etmagan to'liqsiz gap
B) sodda ot kesimli murakkab qo'shma gap
C) kesimi kengaygan birikma bilan ifodalangan sodda gap
D) kesimi uyushgan sodda gap

18. Ogahiyning 1844-yilda yozishni tamomlagan, Xiva xonligi larixining shu yilgacha bo'lgan voqealarini o‘z ichiga olgan asari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) «Shohidi iqbol» B) «Ta’viz ul-oshiqin»
C) «Firdavs ul-iqbol» D) «Riyoz ud-davla»

19. «Alpomish» dostonida «... Yusuf tal’atli, Rustam sifatli, chovkar otli...» ta’rifi kimga nisbatan ishlatilgan?
A) Ko'kaldoshga nisbatan B) Yortiboyga nisbatan
C) Qorajonga nisbatan D) Alpomishga nisbatan

20. Har ikkala qismi ham yasama so'zdan hosil bo'lgan juft sifatlar ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
1) ilmiy-ommabop; 2) aqlli- hushli; 3) uyma-uy; 4) meva- chevali; 5) qishin-yozin.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 2

21. Och-yalang'och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman.
Gap tarkibida nechta so'z birikmasi mavjud?
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 5 ta

22. «Ona tilimizdagi ipakdek mayin,kamalakdek rang-barang,go'yat nozli lutf,beozor qochirimlar,goh hazin,goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlardir». (A. Oripov)
Ushbu e’tirof qaysi o'zbek shoiri haqida aytilgan?
A) Saida Zunnunova B) G'afur G'ulom
C) Hamid Olimjon D) Erkin Vohidov

23. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devoniga necha xil lirik janrga oid asarlar kiritilgan?
A) 16 xil B) 21 xil C) 14 xil D) 18 xil

24. G‘. G'ulom qaysi asari uchun Davlat inukofotiga sazovor bo‘lgan?
A) «Sharqdan kelayotirman» she’riy to'plami uchun
B) «Shum bola» qissasi uchun
C) «Vaqt» she’ri uchun
D) «Ko‘kan» poemasi uchun

25. Qiz hozirgina o‘zi tanishgan qush bilan so‘zlashmoqchi bo‘ldi: - Turnajon, turnajon!
Bu yerda nima qilib turibsan? Kechagi turnalar ichida sen ham bormiding? Menga, aytib ber-chi, qayerdan kelib qolding? Ushbu matnda ravishning qaysi ma’no turi qatnashmagan?
A) holat, o‘rin, payt, daraja- miqdor
B) holat, maqsad-sabab, daraja- miqdor
C) holat, o‘rin, maqsad-sabab, daraja-miqdor
D) holat, o‘rin, maqsad-sabab

26. Qaysi qatorda qo'shma gapning ikkinchi qismida keladigan sof teng bog‘lovchi(lar) qo'llangan?
A) ammo, lekin, biroq
B) ammo, lekin, biroq, va, hamda
C) balki, negaki, chunki
D) ammo, lekin, biroq, balki

27. Bir oqil aytarmish tingla, qarindosh
Siringni fosh etma kerak bo‘lsa bosh.
Berilgan she’riy parchada necha o‘rinda vergul tushirib qoldirilgan?
A) 3 B) 6 C) 4 D) 5

28. Imloviy jihatdan xato yozilgan so‘z(lar)ni toping.
1) yaroqli; 2) yarog‘li; 3) yasanmoq 4) yaslanmoq; 5) yaxlid.
A) 4, 5 B) 5 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 5

29. Azim Suyunning istiqlol davrida yaratgan she’rlari nomi berilgan qatorni toping.
A) «Istig'for», «Oq va qora»
B) «Turkiylar», «Iqror»
C) «Ayolg‘u», «Bo‘g‘zimdan sirqirar tovush - qon»,«Oyloq |kecha»
D) «Adashgan ruh», «Qora devor», «Munojot»

30. Qaysi ijodkor she’rlaridan birida she’r qahramonining o‘z qasamiga qanchalar sodiqligi
«Bayrog‘imga qon bilan yozgan
Ontim undar olg‘a borishga!» kabi misralarda ifodalanadi?
A) Cho‘lpon B) Musa Jalil
C) Sergey Yesenin D) Usmon Nosir

31. So‘z ochma boshqa bo‘stondar menga bo‘ston shu bo‘stondir,
Shu bo‘ston kaftida durdona bizning O‘zbekistondir.
Ushbu parchada necha o‘rinda ot so‘z turkumiga oid so‘z ega vazifasini bajargan?
A) 2 o'rinda B) 1 o'rinda
C) 3 o'rinda D) 4 o‘rinda

32. U yozuvchining so'nggi izlarini do‘stlari bilan boshqa shaharlardan ham qidirgandi. Ushbu gapdagi tobe bog‘lanishla soni va turi haqida to‘g‘ri tahlil berilgan javobni toping.
A) 6 ta tobe bog‘lanish: 2 ta bitishuv,2 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv
B) 7 ta tobe bog‘lanish: 3 ta bitishuv,3 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv
C) 7 ta tobe bog‘lanish: 2 ta bitishuv,3 ta boshqaruv, 2 ta moslashuv
D) 6 ta tobe bog'lanish: 3 ta l»itishuv,2 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv

33. Ishning sur’ati pasaymadi, ertalabgacha ko‘sak chuvildi. Gapdagi fe’llarning qaysi nisbatdaligini aniqlang.
A) aniq,aniq B) aniq,o‘zlik
C) o‘zlik,majhul D) aniq,majhul

34. Qaysi gap(lar)da fonetik o‘zgarish faqat so‘z yasovchi ta’sirida asosda sodir bo‘lgan?
A) Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko‘rib lol bo‘lishdi.
B) To‘pidan ayrilganni bo‘ri yer.
C) 0‘z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo‘li kimningdir ko‘nglini ko'tarishdir.
D) Inson dunyoni qanchalik bilsa,o‘zini ham anglaydi.

35. Tuyuq janrining asosiy qoidasiga aylangan 4 ta adabiy- badiiy talabni aniqlang.

1) tuyuq to‘rt misradan iborat bo‘ladi; 2) tuyuq sochma she’r tarzida bo‘lishi kerak; 3 ) a - a - a - a yoki a - a - b - a tarzida qofiyalanadi; 4) tuyuq ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilishi kerak; 5) tuyuqda qofiyaga olingan so‘zlar,albatta, tajnisli bo‘lishi kerak; 6) tuyuq masnaviy tarzida yozilishi kerak; 7) tuyuq besh misradan oshmasligi kerak.
A) 1,2,5,6 B) 1,3,4,6
C) 1,3,4,7 D) 1,3,4,5
36. Lek haqkim g‘am-u balo bermish,
Dard bermish, vale davo bermish.
Chora bu ishga intiqom durur,
Yo‘qsa,bo‘lmoq tirik harom durur. Ushbu misralar «Xamsa»ning qaysi dostonidan olingan?
A) «Hayrat ul-abror» B) «Saddi Iskandariy»
C) «Layli va Majnun» D) «Sab’ai sayyor»
1. H. No'mon va A. Shorahmedovning «Ota» asari tasvir qamrovi, tuzilishi va hajmiga ko'ra qanday roman turiga kiradi?
A) roman-dilogiya B) roman-trilogiya
C) roman-tetralogiya D) romanlar turkumi
2. Quyidagi qaysi qo‘shma gaplarda shartli belgilar o‘rniga ikki nuqta qo‘yiladi?
1) Ruboiyni ichida o‘qidi // yuzini tabassum qopladi.
2) Bizning qarorimiz shu// hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz. 3) Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi // yangi oyning o‘rog‘i daryoda qalqib- qalqib suzadi. 4) Bir necha nafas shunday turgach,ko‘zlarini ochdi // nur yog‘ilibdi.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 3, 4
3. Xalq og‘zaki ijodida mard yigitlar bo'ynidagi mas‘uliyat ular ulg'aygan sari ortib borishi haqida ham to‘xtab o‘tilgan. Ushbu gapdagi nechta so‘zda tovush tushish hodisasi ro‘y bergan?
A) beshta B) ikkita C) to'rtta D) uchta
4. Qaysi gapda faqat so‘z qo‘llash bilan bog'liq xatolik mavjud?
A) Shunda shox adolatli farmon chiqaribdi.
B) Uyushiq bo‘laklar sanash ohangi bilan aytiladi.
C) U avvaliga bir oz hayajonlandi-yu, ammo keyin rovon gapira boshladi.
D) Haq yo‘linda kim sanga bir harf o'qutmish ranch ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganch ila.
5. Qaysi so‘zda quyi keng unlidan so‘ng shovqinli, jarangli undosh kelgan?
A) xontaxta B) ozoda C) ota-onalar D) o‘g‘il-qizlar
6. «Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin,o‘ldirish esa oson».
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Dahshat» B) «Qochoq»
C) «Me’mor» D) «Oq kema»
7. Berilgan qaysi so'zlar to‘rtta ma’noli qismga ajraladi?
1) go‘zallashtirmoq; 2) yonboshlab; 3) sanog‘ini; 4) surishtirmoq; 5) ta’mirlatmoq
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4
C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 4, 5
8. Qo‘shib yozish qoidasiga muvofiq kelmaydigan javobni toping.
A) birinchi qismi sifat, ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan geografi nomlar qo‘shib yoziladi
B) bir tushunchani bildiradigar va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan qo‘shma so'zlar qo'shib yoziladi
C) bop, rang, baxsh kabi so‘zlai yordamida yasalgan qo‘shma so'zlar qo‘shib yoziladi
D) keyingi qismi turdosh ot yoki obod so‘zi bilan ifodalangan geografik nomlar qo‘shib yoziladi
9. Demonkim ko'ngli pok-u, ham ko‘zi pok,
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok. Baytda qanday she’riy san’at qo'llangan?
A) tazod B) takrir C) tajnis D) tarse’
10. «Alpomish» dostonida qaysi qahramon o'zining quyonchiq kasali borligini bahona qilib, vaziyatdan chiqib ketgan edi?
A) Ko‘kaman B) Qorajon
C) Hakimbek D) Ko‘kaldosh
11. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zni aniqlang.
A) aldoq B) hatti-harakat
C) xokkey D) hol-axvol
12. Fan olami... shunday olimlar ijod qilib o‘tganki, ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo'nalishlar... paydo bo'lishi... sababchi bo'lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblari... biri Albert Eynshteyndir. U... nomi zamonaviy fizika sohasi... ochilgan ko‘plab qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu parchadagi nuqtalar o'rnida qaysi kelishik qo‘shimchasini qo‘llab bo'lmaydi?
A) tushum kelishigi B) qaratqich kelishigi
C) o‘rin-payt kelishigi D) jo‘nalish kelishigi
13. Bulut ichra yoshundi oy yuzingdin,
Shakar sizdi qamish ichra so‘zingdin.
Quyosh yuzing ko‘rib yerga yiqildi,
Adog‘ing tufrog‘ini surma qildi. Ushbu misralar qaysi asardan olingan va unda qanday badiiy san’at qo'llangan?
A) Sayfi Saroyi, «Suhayl va Guldursun»; husni ta’lil
B) Xorazmiy, «Muhabbatnoma»; ruju
C) Xorazmiy, «Muhabbatnoma»; irsoli masal
D) Xo'jandiy, «Latofatnoma»; tashxis
14. Oybekning «Navoiy» romanida Majididdinning inaqtovlari sababli Husayn Boyqaro kimni Hirot qozisi lavozimiga tayinlashga va’da beradi?
A) Xo‘ja Abdulla Marvoriyni
B) Nizomulmulkni
C) Xo‘ja Afzalni
D) mavlono Shahobiddinni
15. Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko‘z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o‘quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Berilgan parchadagi yasama fe’llar qaysi turkum(lar)dan hosil qilingan?
A) ot, olmosh B) ot, sifat C) sifat, fe’l D) ot
16. Hisob so‘zlar haqida noto‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) shisha, paqir hisob so‘zlari alohida olinganda narsa nomini bildiradi
B) o'lchov so‘zlarning ayrimlari alohida olinganda predmet nomini bildiradi

C) yog'och, qalam, misqol, paysa hisob so‘zlari uzunlik o‘lchovini bildiradi
D) xashak-o'tinlarni o‘lchash uchun tutam, quchoq hisob so‘zlari ishlatiladi
17. Ayo g‘uncha,qizil qonlar aro sen o‘zni tark etding,
Ayon etgil,nadir sevgi, nadir ul o‘zni tark etmoq. (Rumiy)
Berilgan baytda olmoshlar necha o‘rinda qo'llangan?
A) 7 B) 5 C) 6 D) 4
18. Quyidagi qaysi fe’llardan barcha nisbat shakllarini hosil qilish mumkin?
1) kuymoq; 2) ishlamoq; 3) osmoq; 4) turmoq; 5) yuvmoq.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3 C) 2, 3, 5 D) 3, 5
19. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat til undoshlari va unlilar ishtirok etgan?
A) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.
B) To‘p-to‘p ko‘k koptok, har bir to'pda ko‘p koptok.
C) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.
D) Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.
20. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning dastlabki kitobi qanday atalgan?
A) «Adabiyot - hayot darsligi»
B) «Zamon. Qalb. Poeziya»
C) «Go'zallik izlab»
D) «Birinchi mo‘jiza»
21. Qaysi qatorda bir so‘z turkumi doirasida omonimlik hosil qila oladigan qo‘shimchalar berilgan?
1) -lab; 2) -ar; 3) -ish; 4) -ay; 5) -y; 6) -lash.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5
22. Hamza hayoti haqidagi to‘g‘ri javoblarni belgilang: 1) «Hurriyat» gazetasida «Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: Bolshevik balosi!» deya ochiq e’lon qilgan. 2) «G‘ayrat» kutubxonasini ochgan. 3) Istanbulda «dorulmuallim»da o‘qigan. 4) Qo‘qon va Marg‘ilonda maktablar tashkil qilgan. 5) Shahrisabz va Karkida yangi usuldagi maktablarni ochgan. 6) Ko‘plab milliy va Ovro‘po musiqa asboblarini mahorat bilan chala olgan.
A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 3, 4, 5
23. Hammamizning onamizdir shu Vatan, //Yov qoldirgan siynasida ming tikan. Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan, // Yur, o‘g‘lonim, elni : ko'tarish uchun.
Ushbu she’riy parchada harakat nomi qaysi bo'lak vazifasini bajargan?
A) ega va kesim B) kesim va maqsad holi
C) ega va vositali to'ldiruvchi
D) ega va maqsad holi
24. 0‘. Umarbekov tomonidan yaratilgan sahna asarlarini toping.
1) «Yigit va qiz»; 2) «0‘zgalar j uchun»; 3) «Komissiya»; 4) «Kuzning birinchi kuni»; 5) «Arizasiga ko'ra».
A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 5, C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 3,
25. Bir asrcha muqaddam yozilgai bo‘lsa-da,mustaqil 0‘zbekiston gerbidagi tasvirni yodga soladigan «Boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur» misralari qaysi ijodkor she’ridan o‘rin olgan?
A) Avloniy B) Hamza C) Cho‘lpon D) Zavqiy
26. Qaysi qatordagi xatolik paronimlarni qo'llash bilan bo‘g‘liq xatolik emas?
A) Qanday aytilishidan qat’i nazar bir xil yoziladi.
B) Lahm go‘shtlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.
C) To‘nning adibini chiroyli qilib tikdi va onasiga ko‘rsatdi.
D) Ta’magir odamlar hayotda faqat o‘zini o‘ylab yashaydi.
27. Olmoshga nisbatan hokim, harakat nomiga nisbatan tobe munosabatda bo'lgan so‘z qatnashgan gapni aniqlang.
A) Bu masalalarni tezda yechish kerak.
B) Kechqurunlari men oy yorug'ida buvimdan turli rivoyatlar eshitar edim.
C) Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to‘ldiradi.
D) 0‘z Vatanini sevgan kishi nliu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.
28. «Avesto»da keltirilgan «parastishgoh» qanday joy?
A) lalmikor yer B) turar joy
C) qurbonlik qilinadigan joy D) ta’lim maskani
29. Dehqonchilik sirini professorlar o‘rgatgan emas bizga. Paxtakorning o‘z kitobi bor. Bu kitob uning ko‘kragida. Ushbu parchada nechta shaxs oti qatnashgan va ular qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan?
A) 3 ta: aniqlovchi, ega, aniqlovchi
B) 1 ta: ega
C) 3 ta: ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi
D) 2 ta: ega, aniqlovchi
30. Shunday yashar - sokin, bezavol,
Pastakkina tandiri bilan,
Katta uyda kichkina bir chol,
Kichkina bir kampiri bilan.
She’riy parchada aniqlovchi vazifasida kelgan sifat turkumiga oid so'zlar necha marta qo'llangan?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 6
31. Qaysi javobda ocherklardan iborat kitoblar nomi berilgan?
A) «Yo‘l lavhalari», «Po‘lat quyuvchi»
B) «Cho‘1 havosi», «Uyqu qochganda»
C) «Yo‘l lavhalari» «Insonga qulluq qiladurmen»
D) «Tubanlik kishilari», «Yo‘l lavhalari»
32. Ishonch ma’nosini ifodalovchi sof modal so‘z qatnashgan egasi noma’lum gap keltirilgan javobni aniqlang.
A) Albatta, o‘ylamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas.
B) Siz bilan suhbatlashishdan oldin shu qarorga kelgan edim.
C) Demak, tushuntirishga hojat yo‘q.
D) Avvalo, topshiriqni vijdonan bajar.
33. Bosh gapda qaralmish vositasiz to‘ldiruvchi bo'lib kelgan ega ergash gapU qo'shma gapni toping.
A) Kim birovlarga yaxshilik tilasa, yo‘llarini ziyo yoritadi.

B) Kimki erta bahordan dalaga chiqib ter to‘ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi.
C) Ko'ziga nima ko‘rinsa, shu uni qiziqtira boshladi.
D) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o‘z faoliyatini to‘xtatmaydi.

34. Uzviy so‘zining yasalish asosi qaysi so‘z turkumiga tegishli?
A) ot B) sifat C) fe’l D) bu so‘z yasama emas, tub so‘z sanaladi

35. Navoiy g'azalidagi «Ko‘hkan» timsoli «Xamsa»ning qaysi qahramoniga ishora qiladi?
A) Farhod B) Bahrom
C) Iskandar D) Majnun

36. Quyidagilardan qaysi biri tasavvufiy adabiyotda vasl sarxushligi, ya’ni mastligini anglatadi?
A) ko‘z B) Ko‘hkan tog‘i
C) Xizr suvi D) Jomi Jam

1. G‘azal janri haqida berilgan noto‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.
1) 7 va 9 baytli g'azallar eng mukammal hajmli g'azallar hisoblanadi. 2) G‘azalda taxallus qo‘llash majburiy. 3) G'azalda bitta qofiya tizimiga amal qilinadi. 4) Bir g‘azal boshdan-oxir bir vaznda bitiladi.
A) 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 2

2. «Kanz ul-haqoyiq» nomli masnaviy yozgan ijodkorni aniqlang.
A) Firdavsiy B) Sayfi Saroyi
C) Pahlavon Mahmud D) Atoyi

3. U o‘z vataniga muhabbatni va yurt taqdiri haqida yozilgan fikrlarni, falsafiy-badiiy mushohadalarni she’riy satrlarda ushbu to'plamga jamlagan.
Ushbu gapdagi moslashuv usuli bilan bog‘langan tobe bog'lanishlar sonini toping.
A) 1 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta

4. Qaysi gap tarkibida imloviy jihatdan notog'ri yozilgan so'z mavjud?
A) Anvar bu yerga xalloslab kirib keldi.
B) Bunday yangicha fikrlashni hoziraa hayotning o‘zi taqozo etmoqda.
C) Bu asarni keng ommaga tatbiq etish uchun juda ko‘p yelib-yugurdi.
D) Yigitlarimiz o‘z baynalmilal burchini bajarish uchun harbiy xizmatga olindi.

5. Vatan ravnaqi uchun kuchini baxsh etadigan farzandlarni voyaga yetkazgan yurtning ertasi buyukdir. Ushbu gapda ishtirok etgan ot so‘z turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda aniqlovchiga tobelanib kelgan?
A) 3 B) 5 C) 4 D) 6

6. Qaysi javobda imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatori berilgan?
A) xijil, xijjalamoq, xaspo'shlamoq
B) xijil, hijjalamoq, xaspo'shlamoq
C) hijil, hijjalamoq, haspo'shlamoq
D) hijil, hijjalamoq, xaspo'shlamoq

7. Qaysi gapda bo'lishsizlik olmoshi ega vazifasida kelgan?
A) Hech narsa yeyishni xohlamayman.
B) U haqda hech qanaqa xat- xabar yo'q.
C) Haqing berma hech kimga.
D) Ustun bo'lgan emas dunyoga hech kim.

8. Asarning bosh g'oyasi atrofida markazlashgan davlat tashkil qilish.insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, adolat, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli urushlarni qo'zg'ash, yovuzlik, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash g'oyalari ham aks etadi.
Ushbu gapda nechta yasama fe’l mavjud?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

9. Seni menga bergan, mening xalqimga,
Bandalari yo'qotolmas, tortib ololmas...
Ushbu misralarda necha o'rinda tovush o'zgarishi ro'y bergan?
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta

10. Qaysi javobda keltirilgan Kapdagi sifatdan yasalgan yasama fe’l asosida faqat til oldi undoshlari va unli qatnashgan?
A) Ish doirasi toraydi.
B) Uning gapi og'zida qolib, ko'zlari xiyol kengaydi.
C) Yo'lchi quyosh va dala shamoli bilan biroz qoraygan.
D) Kuz kelib, kunlar qisqardi.

11. «Yevgeniy Onegin» (Pushkin) she’riy romanini o'zbek tiliga tarjima qilgan ijodkorlarni aniqlang.
A) Mirkarim Osim, Nosir Fozilov
B) Maqsud Shayxzoda, Mirza Kenjabek
C) Oybek, Mirza Kenjabek
D) Oybek, Asil Rashidov

12. Baland aylab quyoshga poya navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.
Ushbu bayt muallifi va unr’a qo'llangan she’riy san’at turini aniqlang.
A) Furqat; tashxis B) Furqat; tanosib
C) Ogahiy; tashxis D) Ogahiy; ishtiqoq

13. Mirmuhsin qalamiga mansub, o'tmishda xalqimizning zulm-zo'ravonlikka qarshi kurashgan farzandlarining o'ziga xos obrazlari yaratilgan qissa nomini aniqlang.
A) «Ovchi bolalar» B) «Ziyod va Adiba»
C) «Usta G'iyos» D) «Tungi chaqmoqlar»

14. «...Hamma ziyolilar «xalq dushmani» deb e’lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda - uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo'rg'onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog'ning chetiga ko'chirdik. (Go'yo bizni bog'dan topisholmaydiganday)...» Ushbu xotiralar qaysi ijodkor rafiqasiga tegishli?
A) Hamid Olimjon B) Said Ahmad
C) Abdulla Qahhor D) Oybek

15. Berilgan gapdagi aniqlovchilar haqida noto'g'ri hukm keltirilgan javobni toping. Badavlat va baquvvat dushmandan emas, ochko'z
va badnafs, ichi qora odamga sherik bo'lib qolishdan qo'rq.
A) gapda qaratqich aniqlovchi ishtirok etmagan
B) sifatlovchi aniqlovchi uyushib kelgan
C) ibora bilan ifodalangan aniqlovchi qatnashgan
D) barcha aniqlovchilar sodda yasamadir

16. Ko'zimdan yomg‘irlar to'kilar tinmay...
Ushbu gapda ma’no ko'chishining qaysi turi kuzatiladi?
A) metonimiya B) vazifadoshlik
C) metafora D) sinekdoxa

17. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi quyidagi nechta ko'makchi bilan ma’nodosh bo‘la oladi? Muvofiq, uchun, sari, tomon, oid.

A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta

18. Ul bezabon «Maxzani asror»idin,
Bu yorutub «Matlayi anvor»idin. Ushbu baytni Navoiy quyidagi qaysi ijodkorlar haqida yozgan?
A) Jomiy va Dehlaviy B) Nizomiy va Jomiy
C) Nizomiy va Dehlaviy D) Jomiy va Lutfiy

19. Badiiy uslubda shakldosh holatda qo‘llash mumkin bo‘lgan kelishik qo‘shimchalarini aniqlang.
A) jo‘nalish, o‘rin-payt B) qaratqich, tushum
C) tushum, chiqish D) tushum, jo'nalish

20. Alisher Navoiyning qaysi g'azalida «Ey yor, yo‘rg'a oting oyoqlariga bag'rim qonidan xino bog‘lab, g‘amingda qiynalib, azob-uqubat chekayotgan jon ipini itingning bo‘yniga arqon qilib bog'la» mazmunidagi bayt keltirilgan?
A) «Yo‘q» radifli g‘azaliga
B) «Bo‘ldim sango» radifli g‘azaliga
C) «Qilg'il» radifli g‘azaliga
D) «Deyin» radifli g‘azaliga

21. Birovning narsasini so'roqsiz olish kechirilmas gunoh sanalishini bilarding, ammo unga amal qilish lozimligini anglamaganing tufayli kulgili vaziyatga tushib qolishingni his qilmaganding. Ushbu gapda birgina portlovchi til undoshi bilan ifodalangan qo‘shimcha necha o‘rinda qatnashgan?
A) 2 B) 5 C) 1 D) 3

22. Lutfiyning «Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu...» radifli g'azali taqte’si to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
A) - V- - / - V - - / - V - - / - V -
B) - - V / V - - V / V - - V / V - -
C ) V - - - / V- - - / V- - (yoki V - -)
D) V - - V / V- - V / V -

23. Jon jasaddan bir beqaror bo‘lganda,// Ziyon yotib, rahmat toshar bo‘lganda,// Rahmat daryo ayni toshib kelganda,//Tush ko‘ribman fayzi sahar bo‘lganda. // Ushbu misralarni qaysi qahramon o‘z tushi haqida aytgan?
A) Barchinoy B) Qorajon
C) Ravshan D) Alpomish

24. «Qissasi Rabg‘uziy»da sahobalar payg‘ambar (a.s) ning o‘z ummati uchun, butun insoniyat uchun qilgan xizmatlarini necha qismda, qaysi san’at asosida sanaydilar?
A) 21 qism, hasbi hol B) 20 qism, saj
C) 19 qism, tadrij D) 15 qism, tadrij

25. Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so‘rasa,qabul qilmagan kishi shaytondir. Ushbu gapda qatnashgan shakl yasovchi qo‘shimchalar tarkibida necha o'rinda nhovqinlilar guruhiga, kiruvchi jarangli portlovchi undosh bor?
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 6 ta

26. Qaysi qatorda qo'shma ot kesim uyushgan?
A) Bu o‘lkada iqlim o‘rtacha, huv mo‘l
B) Endi bu so‘zlarni topish va devon tiliga kiritish kerak.
C) Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib kelib qo‘yishni rejalashtirdik.
D) Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayirib ola boshladik.

27. Qaysi asar qahramoni serquyosh Kaliforniyadagi apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida o‘z xaloskorlariga poyma-poy gapirib beradi?
A) «Hayotga muhabbat» B) «Gulliverning sayohatlari»
C) «Kichkina shahzoda» D) «Yovvoyi yo‘rg‘a»

28. Qaysi ijodkor «Tilak», «Totli damlar», «Tong edi» she’riy usarlari muallifi hisoblanadi?
A) To‘ra Sulaymon B) Asqad Muxtor
C) Muhammad Yusuf D) Abdulla Oripov

29. Quyida berilgan nechta so‘zdagi qo'shimcha o‘rnida uning omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan ma’nodoshini qo'llash mumkin?
Aravachi, beobro‘, noo‘rin, shirali, nodavlat, kuchli, suvli.
A) 4 ta B) 6 ta C) 2 ta D) 3 ta

30. Ovga kirishadigan qushlardan qarchig‘ay miqqiy qirg‘iy urishadigan qushlardan dakan xo‘roz kaklik bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib cho‘pqafasda to'rqafasda saqlanadi) sayraydiganlardan sa’va bulbul mayna va boshqalar bor edi. Ushbu parchada qaysi tinish belgilari tushirib qoldirilgan?
1) vergul; 2) nuqtali vergul; 3) ikki nuqta; 4) tire.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4

31. Qaysi javobda quyidagi gapdagi sifatlar haqida noto‘g‘ri fikr bildirilgan?
Bu bog‘lar ichida qizg‘ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko‘rkam binolar, ko‘shklar, kichik saroylar ko‘zga tashlanadi.
A) gapda sifatlarning tuzilishiga ko‘ra, ikkita turi ishtirok etgan
B) gapda bitta qo‘shma sifat, to'rtta sodda sifat mavjud
C) gapdagi uchta sifat rang-tus bildiradi
D) gapda beshta sifat qatnashgan

32. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy va siyosiy atamalarni joriy etishni ta’minlaydi. Gapdagi yasama so‘zlarning yasalish asosi qaysi so‘z turkum(lar)iga xos?
A) sifat, fe’l B) sifat, ot
C) faqat ot D) ot, sifat, fe’l

33. Qaysi javobda keltirilgan fe’llar fe’ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvhi shaxs o‘rtasidagi munosabatning ifodalanishiga ko‘ra farqlanadi?
A) bordim, bording, bordi
B) bordim, boraman, boryapman
C) bordi, borildi, borishdi
D) boraman, borsam, boray

34. Oybekning bir xil janrda yozilmagan asarlari berilgan qatorni toping.
A) «Nur qidirib», «Bola Alisher», «Bolalik»
B) «Ulug‘ yo‘l», «Oltin vodiydan shabadalar», «Quyosh qoraymas»
C) «Baxtigul va Sog‘indiq», «0‘ch», «Navoiy»
D) «Qutlug’ qon», «Dilbar - davr qizi», «Nur qidirib»

35. Hozir ayni damda shu zulm va adovat tikanlari o‘zining ilk mevasini berdi.
Ushbu gapda nechta moslashuvli so‘z birikmalari mavjud?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

36. Qaysi gapda uyushiq bo‘laklar yasama so‘zlar bilan ifodalangan?

A) Xalqparvar va insofli, diyonatli, baquvvat kishilarning moddiy yordamisiz ma'rifatchilar faoliyat ko'rsata olmas edilar.
B) Ma'rifatchilar elimizga ma'rifatning urug'ini sochishda fidoyilik va jasorat ko'rsatdilar.
C) Tushuntirishning hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix hamda falsafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko'rsatmoqda.
D) Odamlarni ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish,har bir fuqaroni uning yoshidan qat'i nazar,shu maydonning qatnashchisiga, aylantirish bizning eng samarali yo'limizdir.

1. Qaysi so'zlarga ikkita so'z yasovchi morfema ketma-ket qo'shilganda ikki xil fonetik o'zgarishni kuzatish mumkin?
1) taroq; 2) yig'i; 3) qiyin; 4) tarqa; 5) o'yin; 6) sariq.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

2. Kerak ishq ahli qul bo'lmoq bu so'zga:
«Ki shashliq o'zgadur, oshiqlik o'zga».
Ushbu misralar qaysi qahramon haqida?
A) Bahrom B) Navdar
C) Xusrav D) Shoh G'oziy

3. Me'yorni ko'p buzar odam bolasi,
Uning kattasidan kichigigacha...
Ushbu she'riy parchadagi munosabat shakliga ega otlar miqdorini aniqlang.
A) 4 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 3 ta

4. G'. G'ulom qaysi asari uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan?
A) «Vaqt» she'ri uchun B) «Sharqdan kelayotirman» she'riy to'plami uchun
C) «Shum bola» qissasi uchun D) «Ko'kan» poemasi uchun

5. A.S. Pushkinning she'ri berilgan javobni aniqlang.
A) «Erkinlik» B) «Singlimga xat»
C) «Sileziya ta'quvchilari» D) «Dubrovskiy»

6. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan,birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi,birinchi muhabbatingni tanitgan makon - Vatandir!
Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
A) aniqlovchi,to'ldiruvchi B) aniqlovchi,ega,to'ldiruvchi
C) aniqlovchi D) aniqlovchi, ega

7. No'shiravoni odil nimaning avdosi bilan zu'm ildizini quritmoqchi bo'ldi?(«Gulistoni bit-turkiy»)
A) un B) tuz C) tuxum D) kiyik

8. Bu bog'da qushlarning chug'ur-chug'uri eshitilmasdi.
Ushbu gapda nechta so'z hokim bo'lak vazifasini bajara olmaydi?
A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 1 ta

9. «Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham Ona - tabiatning eng buyuk ixtirosidir».
Ushbu parcha 0'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyadan olingan?
A) «Qarz» B) «Alla»
C) «Haqqush» D) «Iltijo»

10. Fe'lning sifatdosh shakli aniqlovchi vazifasida kelmagan maqolni aniqlang.
A) Sinamagan otning sirtidan o'tma!
B) Bilgan topib gapirar, bilmagan qopib.
C) Aytilgan so'z - otilgan o'q.
D) Betga aytganning zahri yo'q.

11. Sohibqiron ayol qadriga, go'zalligiga samimiy muhabbat bilan qaragan.
Ushbu gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?
A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 8 ta

12. Zavqiyning "Hajvi ahli rasta" satirasi qanday janrda yozilgan?
A) murabba' B) musallas
C) masnaviy D) g'azal

13. Najmiddin Kubroning qaysi nomi (laqabi) «balo-qazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi» degan ma'noni anglatadi?
A) Abuljannob B) Tummat ul-kubro
C) Najmiddin D) Valiytarosh

14. Alisher Navoiy qaysi ijodkorga «...bir necha matla'lari borkim, tab' ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o'qusa, bo'lur», deya yuqori baho bergan?
A) Lutfiy B) Husayn Boyqaro
C) Jomiy D) Atoiy

15. Shunday paytlarda yoshligimning ajib damlarini esga olaman. Bolalikdagi o'ynoqi damlarni sog'inaman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutolmay qiynalaman.
Ushbu parchada necha o'rinda imlosi fonetik o'zgarishga uchragan fe'l so'z turkumiga oid so'z bor?
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2

16. Faridundek oqil bo'lsak, bo'lmasmi?
Jahonni beurush bo'lsak, bo'lmasmi?
Ushbu parchada qo'llangan she'riy san'atlarni toping.
1) talmeh; 2) tashbeh; 3) tashxis; 4) tajnis; 5) ruju.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 5
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 4

17. Qaysi javobda faqat nisbiy sifatlar berilgan?
A) go'zal, paxtali, yuzaki B) erksevar, toza, tonggi
C) kuzgi, chillaki, ro'molli D) mazali, sermeva, chiroyli

18. Berilgan she'riy parchada olmoshning necha turi ishtirok etgan?
Birovning do'stlar-u xorijlari bor,
Mening hech kimim yo'q - o'zingdan boshqa.
A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

19. Shuni bilingki, tog'lar ham ; yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug'lari toabad zavol bilmaydi, Berilgan gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
B) aralash murakkab qo'shma gap
C) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
D) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

20. Quyida berilgan gapda qays so'zlardan oldin tire qo'yiladi? «Endi senlar o'qib, oq-qorani taninglar, deydi Xoliyor amaki. Hozir dunyo ilmli odamlarniki»

A) deydi, hozir B) deydi, Xoliyor amaki
C) taninglar, hozir D) deydi, dunyo
21. «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida «Yangi masjid va maktabl sarlavhali xabar bosilgan. Ushbu asar muallifi kim edi?
A) Abdulla Qodiriy B) Fitrat
C) Hamza D) Cho'lpon
22. Kishiga ishq o'tidin zarraye yetsa bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak- bag‘ri chunon o‘rtar.
Ushbu misralarda qo'llangan she’riy san‘atlarni aniqlang.
A) talmeh, istiora B) tashbeh, tajnis
C) mubolag‘a, ruju D) tanosib, tadrij
23. Nuqtalar o‘mida tutuq belgisi qo‘yilishi lozim bo'lgan so'zlar to‘liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) ta...sir; 2) ma...vo; 3) ta... mirlamoq; 4) ta...minlamoq; 5) ta...ziya; 6) ta…til; 7) tole... .
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 1, 2, 4, 6, 7 D) 2, 3, 4, 6
24. Barcha hollar kesimga bevosita (to'g'ridan to'g'ri) bog'langan gapni toping.
A) Ishkom ichida suyanib titragan qizga ko'zi tushdi; wyalganidan bir zumda qizarib- bo'zarib ketdi.
B) Mana shu tirranchalar tufayli boya rosa po'stagimni qoqishgandi.
C) Bir chimdim uxlash uchun ko'zini yumdi.
D) Eshikdan shoshilgancha kirgan Sardor uy ichida odam ko'pligini ko'rib, hammaga xijolatlanib qaradi.
25. Nega yapon yuz yil yashar-u,
O'zbek buncha yoshga bormaydi? (E. Vohidov)
Ushbu she’riy parchada u yuklamasi qanday vazifada qo’llangan?
A) zidlov bog'lovchisi B) biriktiruv bog'lovchisi
C) inkor bog'lovchisi D) ayiruv bog'lovchisi
26. «Alpomish» dostonida Barchinoy qaysi qahramonni bir qo'li bilan yoqasidan olib, bir qo'li bilan belbog'idan tutib ko'tarib, chalqaramon qilib yerga qo'ygan edi?
A) Ko'kaldoshni B) Ko'kamanni
C) Qorajonni D) Hakimbekni
27. Harakat nomi hoi vazifasida kelgan gapni aniqlang.
A) Nasiba ertalab barvaqt kelish sharti bilan dugonasining ketishiga ijozat berdi.
B) Jo'yakda cho'zilib, soya-salqinda dam olish uchun ariq bo'yiga keldi.
C) Berilgan barcha gapda harakat nomi hoi vazifasida kelgan.
D) Uning bu boqishida Sobirning bilag'onligiga qoyil bo'lishdan tashqari ajablanish ham bor edi.
28. «Boburnoma» asarida Bobur Hirotda qaysi tarixiy shaxsning uyiga mehmonga chaqirilganligi, mezbonning uyi Bog'i Safidda ekanligi haqidagi ma’lumotni keltirib,«...meni o'zidan yuqori oldi» deb yozadi?
A) Jahongir mirzo B) Muzaffar mirzo
C) Badiuzzamon mirzo D) Abulmuhsin mirzo
29. Sifat va ravish yasovchi sifatida o'zaro omonimlik xususiyatini namoyon qila oladigan qo'shimchalami aniqlang.
1) -siz; 2) -lab; 3) -in; 4) -chak.
A) 1, 3 B) 1, 2, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 1
30. Vatan mening jon-u tanim sajdagohimdir,
U mening to‘lin oyim, tinch- omonim,
Izzatim, sharafim, Ka’bam, qiblam hamda gulistonimdir.
(A. Fitrat)
Berilgan she’riy parchadagi yasama so‘zlar haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.
A) 1 ta ot, 2 ta sifat B) 2 ta ot, 2 ta sifat
C) 2 ta ot, 3 ta sifat D) 2 ta ot, 1 ta sifat
31. Yaxshi kishi ko‘rmagay yamonlik hargiz ...
Ushbu misrada unlilar va hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir umumiy guruhga mansub bo‘lgan undoshlardangina tarkib topgan so‘z necha o‘rinda qatnashgan?
A) 2 B) 4 C) 3 D) 1
32. Oyog‘ingiz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa, boshingizga falokat keltiradi.
Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z ma’nosi qaysi usulda ko‘chgan?
A) metafora B) sinekdoxa
C) vazifadoshlik D) metonimiya
33. Murzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So‘ng nimanidir aytmoqchi bo‘lib taraddudlandi-yu, lekin aytmay, indamay qo‘ya qoldi.
Ushbu gapdagi ravishlar sonini toping.
A) 4 ta B) 3 ta C) 1 ta D) 2 ta
34. 1) Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduradi. 2) Zahar] kinoyalar bilan suhbatdoshini chaqib ola boshladi. 3) Yaxshi em danakni tishda chaqmoq.
Ushbu gaplarda ishtirok etgan chaql'moql so‘zi haqida berilga to‘g‘ri hukmni toping.
Barcha gaplarda chaqmoq so‘zi bir so‘zning turli ma’nolarl sifatida qo'llangan
A) 1-va 2-gapdagi chaqmoq so‘lzi bir so'zning turli ma’nolari bo‘lib, 3-gapdagi chaqmoq so‘ziga nisbatan shakldosh so‘zlar sanaladi
B) 2- va 3-gaplardagi chaqmoq so‘zi bir so'zning turli ma’nola bo‘Iib, 1-gapdagi chaqmoq so‘ziga nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi
C) Har uchala gapdagi so‘zi o‘zaro shakldosh so‘zlar sanaladi
D) Quyida keltirilgan gapda nechta yasama so‘z qatnashgan? Birdan eshik ochildi.
35. Yonboshlab,bag‘rini sovuq ko‘rpaga burkab yotgan cholning ko‘zlari xiralashib qolgan, nursiz edi.
A) 2 B) 3 C) 5 D) 4
36. Kechasi ishlayman, kunduz uxlayman.
Ushbu gapda ishtirok etgan ko‘makchi morfemalar haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.
A) 2 ta so‘z yasovchi, 4 ta munosabat shakli
B) 1 ta so‘z yasovchi, 6 ta munosabat shakli
C) 1 ta so‘z yasovchi, 4 ta munosabat shakli
D) 2 ta so‘z vasovchi, 6 ta munosabat shakli
1. Siz bilan biz yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Shuni ta’kidlab otish kerakki,biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o‘z kuchimiz bilan,o‘zaro keng inuhokama qilish yo‘li bilan

hartaraf qiladigan bo‘lib qoldik. O‘rtoq rafiqam oilamizni tashkiliy xo‘jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. (Abdulla Qahhor) Berilgan parchadagi yasama so'zlar yuzasidan bildirilgan noto‘g‘ri hukmni belgilang.
A) otdan sifat yasalgan B) sifatdan fe’l yasalgan
C) sifatdan ot yasalgan D) fe’ldan ot yasalgan
2. Quyidagilardan jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shilib kela oladigan vazifadosh ko‘makchilar sonini aniqlang.
Ko‘ra, asosan, qadar, muvofiq, yarasha, tomon, qaramay.
A) 6 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 7 ta
3. Qaysi gapda o‘rin ravishi ishtirok etgan?
A) Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darrov javob bera qoldim.
B) Shu vaqt nima uchundir, hamma birdan sharaqlab kulib yubordi.
C) Komandir boshliq jangchilar olg‘a tashlanib,bostirub boraverdilar.
D) Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
4. Quyida befilgan qaysi g‘azal vazni aruzning mafoiylun-mafoiylun-faulun (yoki mafoiyl) vaznida yozilgan?
A) «Ayoqingga tushar har lahza gisu...»
B) «Qaro ko‘zum, kelu mardumlig* emdi fan qilg‘il...»
C) «Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi...»
D) «Jong‘a chun derman: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati?...»
5. Muqimiy «Emdi sendek jono, jonon qaydadir» she’rini qaysi janrda yozgan?
A) murabba’ B) musaddas
C) musallas D) muxammas
6. Qaysi uslubda nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, nutqiy ortiqchalikka ham yo‘l qo'yiladi?
A) badiiy B) og'zaki publisistik
C) oddiy so‘zlashuv D) ilmiy-ommabop
7. Petrarka va Sapfo kabi qadimgi Rim shoirlari nomi tilga olingan she’r va uning muallifini toping.
A) Usmon Nosir, «Nil va Rim»
B) Fitrat, «Go'zalim, bevafo gulistonim»
C) Fitrat, «Mirrix yulduziga»
D) Usmon Nosir, «Monolog»
8. «Alpomish» dostonida quyidagi satrlar kimning tilidan aytilgan?
«...Mard yigitning yori talash bo'lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?»
A) Alpomish B) Boy bo‘ri
C) Barchinoy D) Qaldirg‘och
9. Qaysi so‘z to‘gri yozilgan?
A) hokandoz B) habash
C) intelektual D) istehzomuz
10. ***g*** undoshining k undoshidan farqlovchi belgisi qaysi javobda ko'rsatilgan?
A) jaranglilik B) til orqalilik
C) shovqinlilik D) portlovchilik
11. Cho‘lquvarlarni na issiq, no suvsizlik yenga oladi, balki ular o‘z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar.
Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimi haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
A) birinchi gapning kesimi qo‘shma fe’ldan ib' rat, ikkinchi gapning kesimi yetakchi va ko‘makchi fe’ldan iborat
B) birinchi gapning kesimi yetakchi va ko‘makchi fe’ldan iborat, ikkinchi gapning kesimi qo‘shma fe’ldan iborat
C) ikkala gapning kesimi qo‘shma fe’ldan iborat
D) ikkala gapning kesimi yetakchi va ko'makchi fe’ldan iborat
12. Vatan ravnaqi uchun kuchini baxsh etadigan farzandlarni voyaga yetkazgan yurtning ertasi buyukdir. Ushbu gapda ishtirok etgan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar necha o'rinda aniqlovchiga tobelanib kelgan?
A) 3 B) 5 C) 4 D) 6
13. Ot kesim kesimlik qo‘shimchalarisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanganda ot kesim va ega orasida tire qo'yiladi. Berilgan qoidaga quyidagi maqollardan qaysi biri mos keladi?
A) Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.
B) Bulbul chamanni sevar, Odam - Vatanni.
C) Bilgan topib gapirar, Bilmagan - qopib.
D) Vaqting ketdi - naqding ketdi.
14. Navoiy «Xamsa »ning qaysi qahramoni ismini baytdagi so‘zlarning birinchi harfi orqali aks ettirib,kitobat san'atini qo‘llagan?
A) Iskandar B) Majnun
C) Farhod D) Bahrom
15. (1) Bir necha hazilkash odamlar bir qizg'anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo‘libdi, ammo darvozani taqillatganlarida xasis odamning xizmatkori chiqdi. (2) U mehmonlarni ko‘rib, ichkariga kirib ketdi. (3) So‘ng chiqdi va aytdi: (4) – Kechirasizlar, xojamiz kecha kechqurun o‘lgan edilar. (5) Erta tongda dafn etib kelgan edik. (6) Hazilkash mehmonlar bunga ishonmadilar va aytdilar: (7) - Xojangiz biz uchun juda aziz, qadrli odam edilar. (8) Ularning janozasida bo‘lish bizga nasib etmadi, endi uylariga kirib, fotiha o‘qib ketmasak bo‘lmas. (9) Boyagi xasis xojaning mehmonlarni qabul qilishdan boshqa iloji qolmabdi. (Faxriddin Ali Safiy) Matndagi qaysi gaplarda ega vazifasida kelgan shaxs otlari qatnashgan?
A) 1, 2, 4, 7 B) 3, 5, 6, 8 C) 1, 4, 6, 7 D) 1, 4, 6, 7, 9
16. El netib topgay menikim,
Men o'zimni topmasam.
Gap haqidagi to‘g‘ri hukmlarni aniqlang.
1) hol ergash gapli qo‘shma gap; 2) gapda 3 ta kishilik olmoshi ishtirok etgan; 3) ergash gap va bosh gap o‘rni almashgan; 4) to'ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap; 5) gap faqat ega,kesim, to'ldiruvchidan tashkil topgan.
A) 1, 2, 5 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 2, 3, 4
17. Quyida keltirilgan gapdagi ot turkumiga oid so‘zlar miqdorini aniqlang. Mehnat bilan topilgan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il pulni o'ylab ishlatadigan,xayrli yo‘llarga sarflaydigan bo‘ldi.
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8
18. «Yozuvchi sifatula bir narsani anglab yetganman va bu qoidaga qat‘iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo.inson bolasining quvonch va iztiroblarini,muhabbati va nafratim,buyukligi va tubanligini ... tasvirlamog‘i lozim. Shundagina uni kitobxon tan oladi,kitobini bag‘riga bosib o‘qiydi». Ushbu parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan no‘zlar sonini be’lgilang.
A) 7 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 4 ta
19. Quyidagi qaysi so‘zlardagi qo‘shimchaning

ma’nodoshi bor? 1) tilshunos; 2) itoatli; 3) aravakash; 4) tutzor.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 3, 1 D) 1, 2, 3
20. 0‘qimishli, bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, nodon, savodsiz o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Gapda nechta yasama so'z ishtirok etgan?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7
21. Maoni ichra, shohim, qil yorarsen,
Ajunda har ne qilsang qil, yararsen.
Ushbu misralarda shoir Xo‘jandiy qaysi she’riy san‘atdan foydalangan?
A) ruju B) tazod C) tajnis D) tashbeh
22. Qaysi so‘roq gap tarkibidagi barcha yasama so‘zlarning yasalish asosi yasama sifatdan iborat?
A) To‘g‘riso‘zlikt poklik va muloyimlik deganda nimani tushunasiz?
B) Mehnatsevarlik, rostgo'ylik, samimiylikning nima ekanligini bilish muhim.
C) Bunyodkorlik, yaratuvchanlik, sofdillikning ma’nosi nima?
D) Yoshlar ziyraklik, shirinso‘zlik, yumshoqlik kabi xislatlarni qabul qilyaptilarmi?
23. Qaysi javobda ocherklardan iborat kitoblar nomi berilgan?
A) «Yo‘l lavhalari», «Po‘lat quyuvchi»
B) «Cho‘l havosi», «Uyqu qochganda»
C) «Yo‘l lavhalari» «Insonga qulluq qiladurmen»
D) «Tubanlik kishilari», «Yo‘l lavhalari»
24. Tarkibida sonor tovushi ishtirok etmagan so‘z qatnashgan gapni toping.
A) Men ular bilan to‘rt marta gaplashdim.
B) Chol unga yaqinlashib salom berdi.
C) Men shu Vatan qo‘ynida undim-o‘sdim
D) Nogoh entikdi-yu, egildi karaon.
25. Turkiy adabiyotda qit‘aning ilk namunasi qaysi asarda uchraydi?
A) Xo‘jandiy «Latofatnoma»
B) Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit-turk»
C) Rabg'uziy «Qissasi Rabg‘uziy»
D) Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig»
26 Gul bag‘rini nasim tildi - to'kildi,// Saboga hikoyat qildi - to‘kildi. // Falak ishiga boq: bir haftada gul // Chiqdi, g‘unchaladi, kuldi, to‘kildi... Ushbu she’riy parchada nechta yasama fe’l mavjud?
A) 2 B) 4 C) 3 D) 1
27. Quyidagilardan qaysi birining yetakchi morfemasi omonimlik xususiyatiga ega?
1) bormoq; 2) chopmoq; 3) savalamoq; 4) ivitmoq; 5) changimoq.
A) 1, 3. 4 B) 1, 2, 4, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 5
28. Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
Ushbu gapda hid bildiruvchi sifat(lar) qaysi bo‘lak vazifasida kelgan?
A) ega, aniqlovchi B) ega
C) aniqlovchi D) hol
29. Olmoshning qaysi tur(lar)i hi doim turlangan holatda qo'llanadi?
A) o‘zlik va ko‘ratish B) o‘zlik va kishilik
C) o‘zlik D) kishilik, ko'rsatish, gumon
30. Belgisiz to‘ldiruvchini tobelantirgan o‘timli fe’l qatnashgan gapni toping.
A) Hayotni seving, unga intilib yashang.
B) Sovuqda muzqaymoq yalash tamoqni yallig‘lantiradi.
C) Gullar go‘zallik ramzi.
D) Bog‘da ishlash bolalarga ma’qul keldi.
31. U yozuvchining so'nggi izlarini do‘stlari bilan boshqa shaharlardan ham qidirgandl. Ushbu gapdagi tobe bog‘lanishla soni va turi haqida to‘g‘ri tahlil berilgan javobni toping.
A) 6 ta tobe bog'lanish: 3 ta I bitishuv,2 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv
B) 7 ta tobe bog'lanish: 3 ta bitishuv, 3 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv
C) 6 ta tobe bog'lanish: 2 ta bitishuv, 2 ta boshqaruv, 1 ta moslashuv
D) 7 ta tobe bog'lanish: 2 ta bitishuv, 3 ta boshqaruv, 2 ta moslashuv
32. So‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shaki yasovchi qo'shimchalar ishtirol etgan maqolni aniqlang.
A) Sinalmagan otning sirtidan o‘tma!
B) Olim bo‘lsang, olam seniki!
C) Maqtanma g‘oz, hunaring oz!
D) 0‘ylamay qilingan ish,
Boshga keltirar tashvish.
33. Qaysi asar qahramoni oilasiga mrar keltiradigan, xavf soladigan vaziyat haqida o‘rtoqlariga maqtanib gapirishni xohlaydi?
A) «Uloqda» B) «Zulmat ichra nur»
C) «Hellados» D) «Mening o‘g‘rigina bolam»
34. Alisher Navoiy Najmiddin Kubro haqida «Nasoyim ul- muhabbat» asarida shunday yozgan edi: «Alarg‘a ... ondin laqab bo‘ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g‘olib bo‘lurlar ermish».
Nuqtalar o‘rniga ul buyuk zotning mos nom (laqab)larini qo'ying.
A) Tummat ul-kubro B) Valiytarosh
C) Kubro D) Abuljannob
35. Mustaqillik davrida yaratilgan «Tilsim saltanati», «Ovorani ko‘rgan kechirganlari» romanlarining muallifi kim?
A) Salomat Vafo B) Omon Muxtor
C) Ulug‘bek Hamdam D) Nazar Eshonqul
36. Shuni bilingki, tog‘lar ham yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug‘lari toabad zavol bilmaydi. Berilgan gap murakkab qo‘shma gapning qaysi turiga kiradi?
A) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap
B) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap
C) aralash murakkab qo‘shma gap
D) bir nech a ergash gapli murakkab qo'shma gap
1. “Kanz ul-haqoyiq» nomli masnaviy yozgan ijodkorni aniqlang.
A) Atoyi B) Pahlavon Mahmud
C) Firdavsiy D) Sayfi Saroyi
2. 1) Ona ham bolasining, baxti qaro jigargo‘shasining, ko‘zlarida shu zor-u mushtoqlik olovini ko‘rdi. 2) Uning tug‘ilgan joyi Turkistondagi Qoratog’ etaklari - ko‘klam toshqinlaridangina lablarini ho‘llab olguvchi soylar, qizg‘ish qirlar va cheksiz sayhonlar, onda-sonda bir uchraydigan muzbuloqlar, toshqinlaridan paydo bo‘lgan ko‘llar yurtidir. 3) Men hovlimga bordim, bolaligimda

ko‘rganlarimdan yolg‘iz shu jiyda qolibdi - tarvaqay, g‘adir. 4) Komil buvaning uyi shu yong‘oqzorning ichida - Bo‘rijarning qoq ustida emish. Berilgan gaplarda qaysi gap bo‘lagi ajratilgan?
A) 1-aniqlovchi; 2, 3, 4-kesim B) 1, 3-aniqlovchi; 2, 4-kesim
C) 1, 4-aniqlovchi; 2, 3-kesim D) 4-aniqlovchi; 1, 2, 3-kesim
3. Quyidagi qaysi qo'shimchalar qo'shilganda so‘z asosidagi bir keng unli boshqa keng unliga almashadi?
1) ot va sifat yasovchi iq; 2) fe’l yasovchi -ar; 3) sifat yasovchi -qi; 4) fe’l yasovchi -a 5) shaxs oti yasovchi -vchi: 6) sifat yasovchi -k.
A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
4. Imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang.
1) sozovor; 2) talofat; 3) rahmat; 4) xoxlamoq; 5) taqdim; 6) taqdir.
A) 1, 2, 4, 6 B) 3, 4
C) 1, 2, 3, 6 D) 1, 2
5. Qaysi so‘zda quyi keng unlidan so‘ng shovqinli, jarangli undosh kelgan?
A) xontaxta B) ozoda
C) ota-onalar D) o‘g‘il-qizlar
6. 0‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida, bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rganday bo‘lar edim // dumli yulduz chiqqan edi // Babar (Bobur bo‘lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o‘lmagan edi. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi tinish belgilari qo‘yiladi?
A) ikki nuqta, nuqtali vergul B) ikki nuqta, vergul
C) nuqtali vergul, tire D) nuqta, vergul
7. «Qutadg‘u bilig»ning Vena nusxasi qayerda, qaysi yozuvda ko'chirilgan?
A) Hirotda, arab yozuvida B) Hirotda, uyg‘ur yozuvida
C) Venada, uyg‘ur yozuvida D) Turkiyada, arab yozuvida
8. Quyida berilgan qaysi asar poema janrida yozilgan?
1) Musa Jalil «Xat tashuvchi»; 2) G‘afur G‘ulom «To‘y»; 3) G‘afur G'ulom «Ko‘kan»; 4) Turob To‘la «Samarqand afsonasi»; 5) Zulfiya «Quyoshli qalam»; 6) Maqsud Shayxzoda «Loyiq soqchi».
A) 2, 3, 4, 6 B) 3, 4, 5, 6 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 3, 5
9. «Alpomish» dostonida Alpomish «...Men sachratib borsam minib bir tulpor, 0‘zima yor, bobo, seng xizmatkor...» deb kimga aytgan?
A) Boybo‘riga B) Shohimardon pirga
C) Boysariga D) Qultoyga
10. Kiyurdi ilgiga davron nigine
Nigun o'rnida la’li otashine. Ushbu misralar Alisher Navoiyning qaysi qahramoni haqida.
A) Bahrom B) Iskandar
C) Farhod D) Xusrav
11. Qaysi asarda onasini ranjitgan yigitga qarata «Magar kichiklikni unuttingkim, ulug‘liq: etarsan» degan tanbeh uchraydi?
A) Firdavsiy «Shohnoma»
B) Sa’diy «Bo'ston»
C) Sayfi Saroyi «Guliston bit-turkiy»
D) Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig»
12. Nodar Dumbadzening dastlabki yirik asarlarini toping.
A) «Kukaracha», «Qishloq bolalari»
B) «Men, buvim, Iliko va Illarion», «Quyoshni kutyapman»
C) «Qishloq bolalari», «Abadiyat qonuni»
D) «Men buvim, Iliko va Illarion», «Quyosh kechasi»
13. Ko‘zlarim hali harf tanimas edi, // Qalam ushlolmasdi hali qo‘llarimi. // Kapalak Izidan quvib tinmasdim, // Yulduzlarni sanar edim tunlari. (M. Boboyev)
She’riy parchada necha o‘rinda qarashlilik ma’nosini bildirgan egalik qo‘shimchalari qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 5
14. Berilgan gapdagi yasama so‘zlar qaysi turkumlarga tegishliligi to‘g‘ri ko'rsatilgan javobni toping.
Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.
1) ot; 2) sifat; 3) fe’l.
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 3
15. 0‘zaro shakldosh birliklar ishtirok etgan juftliklar to‘liq ko'rsatilgan javobni toping.
1) Chaqmoq ovozidan osmon gulduradi. Yaxshi emas birovga chaqmoq. 2) Oyog'idagi tuflisi bilan yong'oqlarni chaqishga harakat qildi. Ilon boshini baland ko'tarib, chaqishga tayyor turar edi. 3) - Qaytar dunyo ekan- da, - dedi chol ko'zlarini yumib. Uni o‘z fikridan qaytar, iltimos. (4) Bu yerga ko'nglini bo'shatish, yengil tortish uchun kelgan edi. Uning ko'nglini bo‘shatish, rahmini keltirish uchun ko‘p yolg‘on gaplarni gapirdi.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 3, 4
D) 1, 2, 4
16. «Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim, o‘sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman». Ushbu parcha 0‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyadan olingan?
A) «lltijo» B) «Gilam paypoq»
C) «Haqqush» D) «Qarz»
17. Ikkita vositali, bitta vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Zebiga do‘stlik haqidagi ustozlar haqida suhbatlar ko‘proq yoqadi.
B) Tadbirda maktab haqida, ustozlar haqida iliq fikrlar aytildi.
C) 0‘rtog‘im bilan do‘stlik haqida she’r yodladim.
D) 0‘rtog‘imdan futbol haqida barchamizga ma’lumot berishini so‘radim.
18. Qaysi qatorda barcha mustaqil so‘zlar bir hokim so‘zga bevosita tobelangan?
A) Mag‘rur,mutakabbir, yolg‘onchi bo‘lmaylik va shunday illatlardan pok bo‘laylik.
B) Zo‘rni ko‘rib tan berishni o‘rganing.
C) Yellar hech kimga aytmay uzoq-uzoqlarga olib ketsinlar.
D) Men sizga bugun xushxabar olib keldim.
19. XIX asr Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisa va voqealar ishonchli tasvirlab berilgan «Tarixi muhojiron» asari muallifi kim?
A) Dilshodi Barno B) Nodira
C) Anbar Otin D) Komil Xorazmiy
20. Qaysi ijodkor tarjimayi holidan quyidagi

ma'lumotlarga duch kelamiz? «Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo'lib ishlaydi. Ra'no ismli ayolga uylanib.farzandlar ko'radi...»
A) Muqimiy B) Zavqiy
C) Ogahiy D) Furqat
21. Quyidagilardan yasalish asosi va yasalma bir so'z turkumi doirasida bo'lgan yasama so'zlar sonini aniqlang. Itoatkor, tinchlik, notekis, uzviy, g'allakor, oqarmoq, savala.
A) 6 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 5 ta
22. Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. (Jek London) Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida nechta so'z tarkibida fonetik o'zgarish yuz bergan?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta
23. Oybek qalamiga mansub tarjimalarni toping.
A) «Boris Godunov», «Yevgeniy Onegin», «Sosunli Dovud»
B) «Yevgeniy Onegin», «Dubrovskiy», «Zamonamiz qahramonlari»
C) «Dubrovskiy», «Maskarad», «Yevgeniy Onegin»
D) «Maskarad», «Sosunli Dovud», «Yevgeniy Onegin»
24. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi. (Alisher Navoiy) Berilgan gapda qaratqich kelishigi qo'shimchasi necha o'rinda belgisiz qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
25. «Daryo kechasi»,«Ishim bordur o'sha ohuga» kabi musiqaga boy,sehrli,ohangdor she'rlar muallifi kim?
A) Abdulla Oripov B) Hamid Olimjon
C) G'afur G'ulom D) Erkin Vohidov
26. Quyidagilardan teng munosabatli bo'g'lanishda yasovchi bilan, ikkinchi qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z qanday sintaktik vazifa bajargan?
A) to'ldiruvchi B) kesim
C) ega D) aniqlovchi
27. Berilgan maqollardan qaysi biri qo'shma gap emas?
A) Vaqting ketdi - naqding ketdi
B) Aytilgan so'z - otilgan o'q.
C) Yurgan - daryo, o'tirgan - bo'yra.
D) Vataning tinch - sen tinch.
28. «Sodiq va Anor», «Xayrixon», «Qo'shnilarim» dostonlari muallifi kim?
A) Maqsud Shayxzoda B) Saida Zununova
C) Mirmuhsin D) Asqad Muxtor
29. Bilimdon o'z bilimi orqali ofatlardan omon qoladi. Uquvsiz kishining ishi unumsiz bo'ladi. Ezguning har bir ishi chiroyli har bir qadami go'zal bo'ladi. Ushbu parchada tarkibidagi birinchi qo'shimchasi shakl yasovchi bilan, ikkinchi qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z qanday sintaktik vazifa bajargan?
A) to'ldiruvchi B) kesim
C) ega D) aniqlovchi
30. Qaysi gapda ma'no jihatdan ravishning ikki turi qatnashgan?
A) Shu payt uydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi.
B) Ular yerni kovlab kirolmabdilar, allaqancha yerni o'yib yuboribdilar.
C) Bular piyoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) – Keyin u yoqqa o'tamiz, – deb o'ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi.
31. Oybekning qissalari berilgan qatorni toping.
A) "Baxtigul va Sog'indiq", "O'ch", "Navoiy"
B) "Qutlug' qon", "Dilbar davr qizi", "Nur qidirib"
C) "Nur qidirib", "Bola Alisher", "Bolalik"
D) "Ulug' yo'l", "Oltin vodiydan shabadalar", "Quyosh qoraymas"
32. G'unchalar ochildi-yu, ko'nglim ochilmaydur hanuz, Bulboloso xotirin gul mayli qilmaydur hanuz. Munis qalamiga mansub ushbu baytda quyida berilgan she'riy san'atlardan nechtasi qo'llangan?
A) 5 tasi B) 3 tasi C) 2 tasi D) 4 tasi
33. Kishi moliga o'ch podsholarni ko'p ko'rgan Binoiy yosh Boburning bunchalik halolligidan qattiq ta'sirlandi. Ushbu gapda ot so'z turkumi necha o'rinda ot so'z turkumiga bog'lanib kelgan?
A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta
34. Qaysi javobda keltirilgan so'zlar tarkibida ikkita so'z yasovchi ishitirok etgan?
A) sanoqsiz, o'ynoqi, tinimsiz
B) changitmoq, tinchimoq, qiynoq
C) eslaganlik, yamoqchilik, yig'loqi
D) yarqiroq, atama, qiynoq
35. Telefonda muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri kelib muhim ish borligini aytib qolsa, hamsuhbatingizni ranjitmasdan unga ma'lum vaqtdan keyin o'zingiz qo'ng'iroq qilishingizni ayting va telefonni ohista qo'ying. Ushbu gapda ishtirok etgan yasama so'zlar sonini toping.
A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 5 ta
36. Navoiy qit'asidagi «Kamol et kasbkim...» so'zlarining asl ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?
A) Kamolga yetishni o'zingga kasb qilib ol.
B) Kasbing bilan kamolga yet.
C) Kasbing kamolini o'rgan.
D) Kasb o'rganishni kamolga yetkaz.
1. Mirmuhsinning qissa janriga kiruvchi asari qaysi javobda berilgan?
A) «Do'nan» B) «Turon malikasi»
C) «Avesto» D) «Tangi chaqmoqlar»
2. Mirmuhsin qalamiga mansub, o'tmishda xalqimizning zulm-zo'ravonlikka qarshi kurashgan farzandlarining o'ziga xos obrazlari yaratilgan qissa nomini aniqlang.
A) «Ovchi bolalar» B) «Ziyod va Adiba»
C) «Usta G'iyos» D) «Tungi chaqmoqlar»
3. «Olov sochlar», «0'lim yovga» kabi to'plamlar muallifi kim?
A) Hamid Olimjon B) G'afur G'ulom
C) Zulfiya D) Maqsud Shayxzoda
4. Qaysi qatorda qo'shma ot kesim uyushgan?
A) Bu o'lkada iqlim o'rtacha, suv mo'l
B) Endi bu so'zlarni topish va devon tiliga kiritish kerak.
C) Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib kelib qo'yishni rejalash tirdik.
D) Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayirib ola boshladik.
5. Bulutlar haydar shamol,
Goh yog'ib o'tar yomg'ir.
Barglar pokiza,zilol,
Goh quyosh to'kadi nur.
She'riy parchada kesimlar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalangan?
A) ot, fe'l B) ot, sifat, fe'l
C) ot, sifat D) sifat, fe'l
6. Qizil poyandoz to'shalgan keng xonaga kirishgach, to'rga yotqizib

qo‘yilgan bemorga yaqin borishdi, bir ayol bemorning og‘ziga tomizib turardi.
Ushbu gapda o'rinda ko'makchii qo‘llangan?
A) 3 B) 2 C) 1 D) ko‘makchi fe’l qo‘llanmagan
7. Bizgacha qaysi shoir turkiy (o‘zbekcha) devonining XVI - XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan?
A) Atoiy B) Lutfiy
C) Gadoiy D) Navoiy
8. Berilgan so‘zlar ichidan ot + ot qolipli turdosh otlar miqdorini aniqlang.
Oqqo‘rg‘on tinchliksevar, makkajo‘xori, Sirdaryo, sovuqmijoz, devqomat, qo‘lbola, izzattalab, qo'ziqorin, bodomnusxa.
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
9. Tuni bilan yig'labdi bulbul,
G'uncha hajri dog'ida.
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib,
Qolmish uning yaprog‘ida. Ushbu bayt muallifini toping.
A) Erkin Vohidov B) Abdulla Oripov
C) Rauf Parfi D) Muhammad Yusuf
10. Alisher Navoiyning nomi «Yetti dengiz» ma’nosini bildiruvchi asari nima haqida yozilgan?
A) xatlar haqida B) aruz haqida
C) lug’atshunoslik haqida D) memuar asar
11. Kerak ishq ahli qul bo‘lmoq bu so'zga:
«Ki shashliq o‘zgadur, oshiqlik o‘zga».
Ushbu misralar qaysi qahramon haqida?
A) Navdar B) Shoh G‘oziy
C) Xusrav D) Bahrom
12. Qaysi gapda noto‘g‘ri yozilgan so'z ishtirok etgan?
A) Tursun tomda tursin. B) Erkin yettiga yetdi.
C) Umr o‘tib borayapti. D) Boshliqlar bu mushkul muammoni yechishdi.
13. Har qanday go'zalik zamirida mehnat yotadi.
Ushbu gapda bo‘g‘inlar tarkibida lablanmangan soni nechta?
A) 9 ta B) 8 ta C) 6 ta D) 7 ta
14. «Bolgar qo‘shiqlari», «Charos» nomli to'plamlar muallifi kim?
A) Xayriddin Saloh B) 0‘lmas Umarbekov
C) Mirkarim Osim D) Mirmuhsin
15. Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga chiqsa, mushuk bir hamla bilan uni tutarkan.
Ushbu gapda qaysi so‘z lurkumiga oid so‘zlarning asosi qaysi turkum doirasida omonim bo‘la oladi?
A) ot, ot, fe’l B) ot, sifat, fe’l
C) sifat, fe’l, fe’l D) ot, fe’l, fe’l
16. Quyidagi so‘zlar qatorida nechta yasama ravish bor? hamisha, dastlabki, ustma- ust, galma-gal, misqollab, do‘stlarcha, nari-beri, qasdma- qasd, butunlay, tiriklayin.
A) 9 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 6 ta
17. Qaysi javobda turkiy tillar oilasi qipchoq guruhiga kiruvchi tillar keltirilgan?
A) ozarbayjon, qirg‘iz B) tatar, o‘zbek
C) uyg‘ur, boshqird D) no‘g‘ay, qolmiq
18. Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,
0‘zbegim, jon o‘zbegim.
Ushbu parchadagi ot kesimlar soni nechta?
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 1 ta
19. Vatan! Taqdiringning toshi bemiqdor, Aytgin, fido bo‘lay qaysi bir toshga? (Usmon Azim) Ushbu she’riy parchada nechta soda yasama so‘z qatnashgan?
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2
20. Qaysi javobda asliy sifat(lar) ishtirok etgan?
A) Bugungi ishni ertaga qo‘yma!
B) Shohi ro‘molli ayol bilan ko‘rishdi.
C) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
D) Xonaga beqasam to‘n kiygan do‘ppili kishi kirib keldi.
21. «Kichkina shahzoda» asarida «dunyodagi eng go‘zal va hasratli makon» sifatida tilga olingan joy qayer edi?
A) sahro B) dengiz qirg‘og‘IC) muzlik D) o‘rmon
22. «She’r chin go‘zallik singlisi ekan» she’ri muallifi kim?
A) Zulfiya B) Cho‘lpon
C) Mirtemir D) Maqsud Shayxzoda
23. «Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma’lum va mashhur shaxs, - deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. - U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do‘sti edi».
Berilgan ko'chirma gapli qo‘shma gapda qaysi bo‘lak(lar) uyushgan?
A) kesim, ega B) aniqlovchi, ega
C) aniqlovchi, kesim D) kesim
24. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan o‘zagida tovush o'zgarishi bo‘ladigan so‘zlar qatorini toping.
A) o‘rin, gurs B) past, qasd
C) so‘m, ravnaq D) qayir, qala
25. Qalamkash,avvalo,Inson bolasining quvonch va iztiroblarini,inuhhabati va naftatini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog‘i lozim. Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini aniqlang.
A) 7 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
26. Insongagina xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko‘chirish san’ati qanday nomlanadi?
A) tashxis B) tanosib
C) tashbeh D) timsol
27. Quyida berilgan gapdagi ko‘makehi morfemalar sonini aniqlang.
Bugungi hayotimizni qog‘ozsiz tasavvur etish qiyindir.
A) oltita B) beshta
C) yettita D) to‘rtta
28. Uzviy so‘zining yasalish asoi qaysi so‘z turkumiga tegishli?
A) ot B) sifat C) fe’l D) bu so‘z yasama emas, tub so‘z sanaladi
29. Krepdishin, suverenitet, kariyes, volebol, simpozum, abonement, kilovat, menejment. Ushbu so‘zlardan nechtasi to‘g‘ri yozilgan?
A) 4 tasi B) 2 tasi C) 3 tasi D) 5 tasi
30. (1) G‘afur G‘ulom etagini silkitsa, kulgi to'kilardi. (2) U kirgan xonadonda bir hovli kulgi qolardi. (3) U har bir xonadonning ko‘pdan kutgan aziz mehmoni edi. (4) Qayerga borsa o‘sha joyda atrofini yosh-u qari o‘rab olardi (5) Donolar davrasida dono edi. (6) Bedilni,Hofizni,Jomiym qiziqib o‘qirdi. (7) Ozarbayjon, toj ik, turkman, qozoq, tatar, qirg‘iz tillarida bemalol gaplasha olardi. (8) U hozirjavob odam edi. (Said Ahmad)
Berilgan matndagi qaysi gaplardl fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘z(lar) ishtirok etgan?
A) 1, 2, 3, 6, 7 B) 1, 2, 4, 6, 7
C) 1, 2, 5, 6, 8 D) 1, 2, 6, 7, 8
31. Asqad Muxtorning «Po‘lat quyuvchi» asari qaysi janrda yozilgan?
A) ballada B) ertak doston
C) ocherk D) poema
32. Angladimki, olamda Yurt tanho, Vatan tanho, Nokaslar emas, yo‘q, yo‘q, Yolg‘iz Sen baland, tanho. Ushbu gapdagi kesimlar to‘liq ko‘rsatilgan qatorni toping.
A) angladimki, lanho, tanho, baland, tanho
B) angladimki, yolg‘iz, baland, tanho
C) tanho, tanho, baland, tanho
D) yurt tanho, Vatan tanho, baland, tanho
33. Shoshilish zo'riqishga olib keladi. Qadamingni o‘rinsiz tezlashtirsang,qoqilib yiqilishing mumkin. Berilgan parchada fe’llar necha xil nisbat qo'shimchasini olgan?
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4
34. 0‘lmas Umarbekovning qaysi asari detektiv yo‘nalishda yozilgan asar hisoblanadi?
A) «Oq qaldirg‘och» B) «Odam bo‘lish qiyin»
C) «Urush farzandi» D) «Yoz yomg'iri»
35. Shoshilish zo‘riqishga olib keladi. Qadamingni o‘rinsiz tezlashtirisang, qoqilib yiqilishing mumkin. Berilgan parchada nechta yasama so‘z mavjud?
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
36. Ochsang davronlarning kitoblarini,
Qancha karvonlarning ertagi bordir.
Tingla donolarning xitoblarini:
Egasi bor yurtning ertasi bordir. (S. Sayyid)
Ushbu she’riy parchadagi nechta gapda ega ishtirok etgan?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
1. Mirmuhsinning qissa janriga kiruvchi asari qaysi javobda berilgan?
A) «Do‘nan» B) «Turon malikasi»
C) «Avesto» D) «Tangi chaqmoqlar»
2. Quyidagi so'zlardan nechtasi imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan?

jaholat, hokisor, mutaxasis, lioxish, zahmat, aynala, tnxsimot, asil, bepayon.
A) uchtasi B) to‘rttasi C) oltitasi D) beshtasi

3. «Alpomish» dostonida quyidagi so‘zlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?
«Bu alplarni kuyov qilib olamiz, Mina elga toza erkin bo‘lamiz. Bolalarni tog‘a-jiyan qilamiz, Mina elda bizlar davron suramiz»
A) Boysari B) Alpomish
C) Barchinoy D) Yortiboy oqsoqol

4. 0‘zaro o‘zakdosh so'zlarni ishlatish Sharq mumtoz badiiyati ilmida qanday san’at deb yuritiladi?
A) ishtiqoq B) tajnis C) iyhom D) tanosib

5. Murodxonga: - Jon o‘rtoq, bedanalarni qo‘yib yuboraylik, onalarining oldiga borishsin, bizni duo qilishadi,- degan edim, darrov rozi bo‘lib, uylaridan katta qaychi olib chiqdi. Ushbu gapda qo‘shma fe’llar necha o‘rinda qatnashgan?
A) 2 o'rinda B) 5 o'rinda
C) 4 o‘rinda D) 3 o‘rinda

6. Shabistonda tug'di bir yangi oy,
Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.
Ushbu parcha Navoiy «Xamsa»sidagi qaysi qahramon haqida, baytda qanday she’riy san’at qo'llangan?
A) Farhod haqida, istiora B) Shirin haqida, istiora
C) Mehr haqida, ishtiqoq D) Dilorom haqida, tashbeh

7. Dunyo shoirlari Vatan sha’niga Sifat axtarmishlar qator va qator Nihoyat kelmishlar bitta ma’niga // Ona Vatan deya bitmishlar ash’or. Ushbu gapda // qaysi tinish belgisi qo'yiladi?
A) tire B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) vergul

8. Odamning har qanday sharoitdagi kuchli quroli uning aql-u zakovatidir.
Ushbu gapda kesim necha marta boshaqa bo‘laklarda nisbatan bevosita hokim bo‘lak vazifasini bajargan?
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

9. Tuni bilan yiglabdi bulbul,
G‘uncha hajri dog‘ida.
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib,
Qolmish uning yaprog'ida.
Ushbu bayt muallifini toping.
A) Erkin Vohidov B) Abdulla Oripov
C) Rauf Parfi D) Muhammad Yusuf

10. Alisher Navoiyning nomi «Yetti dengiz» ma’nosini bildiruvchi asari nima haqida i yozilgan?
A) aruz haqida B) memuar asar
C) xatlar haqida D) lug‘atshunoslik haqida

11. Kishi moliga o‘ch podsholarni ko‘p ko‘rgan Binoiy yosh Boburning bunchalik halolligidan qattiq ta’sirlandi. Ushbu gapda ot so‘z turkumi necha o‘rinda ot so‘z turkumigi bog‘lanib kelgan?
A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4

12. Qaysi gapda nomi sifat turkumiga mansub bo‘lmagan yasama so'zlar ishtirok etgan?
A) Shuni aytadilarda, to'qlikka sho'xlik deb.
B) - Mehmon degan sergap bo'lmaydi,- dedi u ayyorona kulib.
C) Avaz dahlizdan rangdor vazali uyga kirdi.
D) Oybek domla nihoyatda ziyraklik va samimiyat bilan opening gaplarini tingladi.

13. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan sonlardai tashkil topgan qo'shma so'zlar ko'rsatilgan javobni toping.
1) toshqovoq; 2) belbog'; 3) yor- do'st; 4) tokqaychi; 5) qo'shog'iz; 6) bodomqovoq.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 5 C) 4, 6 D) 2, 3, 6

14. (1) Bir necha hazilkash odamlar bir qizg'anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo'libdi, ammo darvozani taqillatganlarida xasis odamning xizmatkori rliiqdi. (2) U mehmonlarni ko‘rib,ichkariga kirib ketdi. (3) So'ng chiqdi va aytdi: (4) - Kechirasizlar.xojamiz kecha kechqurun o'lgan edilar. (5) Erta tongda dafn etib kelgan rdik. (6) Hazilkash mehmonlar bunga ishonmadilar va aytdilar: (7) - Xojangiz biz uchun juda »ziz,qadrli odam edilar. (8) Ularning janozasida bo'lish bizga nasib etmadi, endi uylariga kirib, I'otiha o'qib ketmasak bo'lmas. (9) Boyagi xasis xojaning mehmonlarni qabul qilishdan boshqa iloji qolmabdi. (Faxriddin Ali Safiy) Matndagi qaysi Kaplarda ega vazifasida kelgan nliaxs otlari qatnashgan?
A) 3, 5, 6, 8 B) 1, 4, 6, 7, 9
C) 1, 2, 4, 7 D) 1, 4, 6, 7

15. Agar birorta kichikroq baliq huv yuziga chiqsa, mushuk bir liamla bilan uni tutarkan. Ushbu gapda qaysi so'z lurkumiga oid so'zlarning iisosi turkum doirasida omonim bo'la oladi?
A) ot, ot, fe’l B) ot, sifat, fe’l
C) sifat, fe’l, fe’l D) ot, fe’l, fe’l

16. Quyidagilardan yasalish nsosi va yasalma bir so'z lurkumi doirasida bo'lgan yasama so'zlar sonini aniqlang. Itoatkor, tinchlik, notekis, uzviy, g'allakor, oqarmoq, savala.
A) 2 ta B) 1 ta C) 5 ta D) 6 ta

17. Qaysi so'zga fe’l yasovchi qo'shimcha qo'shilganda so'z imlosida fonetik hodisa kuzatilmaydi?
A) qiyin B) yig'i C) ong D) yalt

18. Bu quvonchli xabarni xonadoshlariga yetkazish uchun yotoqxona tomon jo'nashdi. Ushbu gapda omonimlik xususiyatiga ega ko'makchi morfema(lar) qatnashgan nechta so'z bor?
A) 6 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 8 ta

19. Berilgan she’riy parchada olmoshning necha turi ishtirok etgan?
Birovning do'stlar-u xorijlari bor,
Mening hech kimim yo'q - o'zingdan boshqa.
A) 5 B) 2 C) 3 D) 4

20. Qaysi javobda asliy sifat(lar) ishtirok etgan?
A) Bugungi ishni ertaga qo'yma!
B) Shohi ro'molli ayol bilan ko'rishdi.
C) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
D) Xonaga beqasam to'n kiygan do'ppili kishi kirib keldi.

21. Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik

timsoli bo'lgan Humo qushi tasvirlangan.
Berilgan gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang.
A) 3 B) 2 C) 5 D) 4

22. «She'r chin go'zallik singliki ekan» she'ri muallifi kim?
A) Zulfiya B) Cho'pon
C) Mirtemir D) Maqsud Shayxzoda

23. «Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs,- deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. - U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi,do'sti edi».
Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapda qaysi bo'lak(lar) uyushgan?
A) kesim, ega B) aniqlovchi, ega
C) aniqlovchi, kesim D) kesim

24. Qaysi so'zlarda u unlisi noto'g'ri qo'llangan?
1) unutmoq; 2) unumli; 3) unub- o'smoq; 4) umumiylik; 5) unun; 6) umurguzaron.
A) 1, 2, 4, 6 B) 3, 4, 5 C) 3, 6 D) 2, 3, 5

25. Shunday yashar - sokin, bezavol,
Pastakkina tandiri bilan,
Katta uyda kichkina bir chol,
Kichkina bir kampiri bilan. She'riy parchada aniqlovchi vazifasida kelgan sifat turkumiga oid so'zlar necha marta qo'llangan?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

26. Imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan so'z qatnashgan gapni toping.
A) Metall idishlarda ovqat saqla yeyish sog'liq uchun zararlidir.
B) Tamagirlik bilan adolat bir- biriga ziddir.
C) Fitrat fors shoiri Bedil haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.
D) Bulbul Arabiston yarim orolining janubida qishlab, aprelning oxirida yurtimizga uchib keladi.

27. Quyida berilgan qo'shimchalardan nechtasi turli so'z turkumi doirasida omonimligini namoyon qila oladi?
<u>-i, -ch, -miz, -ng, -choq, -ik, -qin</u>
A) 4 tasi B) 7 tasi C) 6 tasi D) 5 tasi

28. Uzun bir yog'och topdi- da, asta olmani o'ziga tomon «hayday» boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog'och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho'ng'ib yana «qochib» qolardi.
Ushbu gapda yordamchi so'z turkumiga xos grammatik birliklar haqidagi barcha to'g'ri fikrlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Ushbu gapda 1 ta vazifadosh, 1 ta sof bog'lovchi qatnashgan. 2) Ushbu gapda 2 ta kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi j qatnashgan. 3) Ushbu gapda 1 ta sof, 1 ta vazifadosh ko'makchi qatnashgan. 4) Ushbu gapda barcha yordamchi so'z turkumlariga oid birliklar qatnashgan.
A) 1, 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4

29. Lutfiy g'azallaridan qaysi biriga Nodira o'xshatma yozgan?
A) «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» radifli g'azaliga
B) «Ayoqingga tushar har lahza gisu» g'azaliga
C) «Xoh inon, xoh inonma» radifli g'azaliga
D) «Ne bo'lursan» radifli g'azaliga

30. «Boburnoma»dan keltirilgan Namarqand (a) va Andijon (b) tavislari to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) elining lafzi qalam birla rost; 2) g'allasi ko'p, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'ladi; 3) qirg'ovulini 4 kishi yeb tugata olmaydi; 4) olmasi va Sohibiy uzumi mashhurdir; 5) eli tamon sunniy va pok mazhab, shariatga bo'ysunuvchidir.
A) a-2, 4, 5; b-1, 3 B) a-3, 4; b-1, 2, 5
C) a-4, 5; b-1, 2, 3 D) a-2, 3, 5; b-1, 4

31. Asarning bosh g'oyasi atrofida markazlashgan davlat tashkil qilish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, adolat, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli urushlarni qo'zg'ash, yovuzlik, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash g'oyalari ham aks etadi.
Ushbu gapda nechta yasama fe'l mavjud?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

32. «Eng eski turkiy adabiyot namunalari», «0'zbek adabiyoti namunalari», «0'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kabi ilmiy asarlar muallifi kim?
A) Cho'lpon B) Abdurauf Fitrat
C) Hamza Hakimzoda Niyoziy D) Furqat

33. Quyidagi parcha qaysi asardan olingan va kimning tildan aytilgan?
«Ko'rar ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday boidi (es-hushimdan) ayrildim), jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o'ladigan qilib yaratilgan».
A) «Kul Tigin», Bilga xoqon tilidan
B) «To'nyuquq», To'nyuquq tilidan
C) «Kul Tigin», Eltarish xoqon tilidan
D) «To'nyuquq», Eltarish xoqon tilidan

34. Qaysi gapda ega omonim ot bilan ifodalangan?
A) Qalbimga o't yoqdi.
B) Bog'imizning gavjumligi bejiz emas edi.
C) Onam har gal xokandozni bo'shatganida qop-qora chang ko'tariladi.
D) Unisi o'ziga bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qilig'idan azob chekadi.

35. Shoshilish zo'riqishga olib keladi. Qadamingni o'rinsiz tezlashtirsang, qoqilib yiqilishing mumkin.
Berilgan parchada nechta yasama so'z mavjud?
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

36. Odamlarni ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir juqaroni uning yoshidan qat'i nazar, shu maydonning qatnashchisiga aylantirish bizning eng samarali yo'limizdir.
Gapda qaysi bo'lak uyushganligini aniqlang.
A) to'ldiruvehit aniqlovchi, ega B) faqat aniqlovchi
C) aniqlovchi va ega D) faqat ega

1. «Har qanday kishi o'z ahvolidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga,yon-atrofiga qarasin,qiyoslasin,keyin xulosa chiqarsin»,degan oqilona o'git Navoiyning qaysi asari zamirida yashiringan?

A) «Ulki, iflosdin ayog‘inda...» deb boshlanuvchi qit’a
B) «Kamol et kasbkim...» deb boshlanuvchi qit’a
C) «G'urbatda g'arib...» deb boshlanuvchi ruboiy
D) «Jondin seni ko‘p sevarmen...» deb boshlanuvchi ruboiy
2. Qaysi gapda o‘rin ravishi ishtirok etgan?
A) Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
B) Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darrov javob bera qoldim.
C) Shu vaqt nima uchundir, hamma birdan sharaqlab kulib yubordi.
D) Komandir boshliq jangchilar olg‘a tashlanib,bostirib boraverdilar.
3. Takabburlik va zulm - ulug‘likniny ofati, muloyimlik va tavoze - insonning ziynati, sharm-hayo uning go‘zal, yoqimli libosidir.
Berilgan gapda yasama otlar qaysi so‘z turkumidan yasalganligini aniqlang.
A) fe’l va sifat B) fe’l, ot, sifat
C) faqat sifat D) ot va sifat
4. Otam bizga suyak dastali, shisha ko‘zli pichoqni ko‘rsatdi. Ushbu gapdagi ot so‘z turkumlari qaysi gap bo‘laklari vazifasida kelgan?
A) ega, aniqlovchi, to'ldiruvchij to'ldiruvchi
B) ega, aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi
C) ega, to'ldiruvchi
D) ega, aniqlovchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi
5. «Bo'g'zimda qolmasin erk to'la kuyim», «Oyoqosti bo'lmasin ajdodini go'ri» kabi badiiy tasvirlar kimning ijodida uchraydi?
A) A. Muxtor B) X. Saloh
C) Shuhrat D) O'. Umarbekov
6. «...baland bo'yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi xuddi xumning ichidan chiqqandek guldurlab jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni ko'tarib yoborgudek qattiq kuladi».
Ushbu parchada qaysi asar qahramoni tasvirlangan?
A) «Sariq devni minib» Akbar Nosir
B) «Donan» Baxshilla maxsum
C) «Sariq devni minib» Polvon tog'a
D) «Yulduzlar mangu yonadi» Bo'ri polvon
7. Erkin ertagi ekishni ertaga ertalab eplaydi.
Ushbu tez aytishda necha turkumga oid so'z ishtirok etgan?
A) 2 B) 3 C) 5 D) 4
8. Qaysi javobda orttirma nisbat qo'shimchasi o'timsiz yasama fe’llarga qo'shilgan?
A) ta’mirlatmoq, sarflatmoq
B) kiyintirmoq, bezantirmoq
C) o'xshatmoq, sakratmoq
D) kuchaytirmoq, changitmoq
9. Zolimmi, ablahmi otasi Nasibaga har yili kiyim xarid qiladi, o'g'lim bo'lsa pochasi ilma-teshik shim kiyib yuribdi. Gapda ishtirok etgan yasama so'zlar soni va turkumi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) 1 ta ravish, 1 ta sifat, 1 ta ot
B) 1 ta ravish, 1 ta sifat. 1 ta fn’l, 1 ta ot
C) 1 ta ravish, 2 ta sifat, 1 ta ot
D) 2 ta sifat, 2 ta fe’l, 1 ta i tivish, 1 ta ot
10. «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida «Yangi masjid va maktab» sarlavhali xabar bosilgan. Ushbu asar muallifi kim edi?
A) Fitrat B) Hamza
C) Abdulla Qodiriy D) Cho'lpon
11. Xorazm shevasiga mansub uchak so'zi adabiy tilda qanday ma’noga ega?
A) beshik B) oy C) tom D) samolyot
12. Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?
A) hatto, nihoyat, sayin, ya’ni, tufayli, va
B) nahotki, negaki, qadar, naq, hamda, ichra
C) nahotki, hatto, naq, ya’ni, tufayli, uzra
D) nahotki, basharti, uzra, agar, atigi, faqat
13. Lutfiyning asarinig hazaji masaddasi mahruf vaznida yozilgan g'azalini aniqlang?
A) «Ayoqingga tushar har lahza gisu» g'azali
B) «Xoh inon, xoh inonma» radifli g'azali
C) «Bu ko'nguldir, bu ko'ngul» radifli g'azali
D) «Bo'ldum sanga» radafli g'azali
14. Imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlang.
1) sozovor; 2) talofat; 3) rahmat; 4) xohlamoq; 5) taqdi; 6) tag'dir.
A) 3, 4 B) 1, 2, 3, 6 C) 1, 2, 4 D) 1, 2
15. Ko'makchi morfemasida quyi keng unlidan oldin ham, keyin ham jarangli til undoshi qatnashgan so'zni toping.
A) bormoqda B) kitobxon
C) oshpaz D) guldon
16. Qaysi javobda ot + ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma’nosini anglatuvchi qo‘shma sifatlar ko‘rsatilgan?
1) ko'zoynak; 2) sheryurak; 3) oybolta; 4) qo‘yko‘z; 5) shirinso'z; 6) toshbag'ir.
A) 1, 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 4, 6
C) 2, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6
17. Qaysi shoir maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug'ullangan?
A) Muhammad Sharif Gulxaniy B) Xo‘janazar Huvaydo
C) Turdi Farog‘iy D) Maxmur
18. Quyidagi qahramonlardan qaysi biri Ch. Aytmatovning «Jamila» qissasida ishtirok etmaydi?
A) Doniyor B) Usmon
C) Ibrohim D) 0‘rozmat
19. Qilichlarning tillarida qizil qon,
Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?
Yalang bola, yalang go‘dak - ma’sum jon
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?
degan misralar Cho‘lponning qaysi she’ridan o‘rin olgan?
A) «Yong'in» B) «Vijdon erki»
C) «Kishan» D) «Qalandar ishqi»
20. Uyushiq bo‘laklarning har bir ta’kidlangan gap qaysi javobda berilgan?
A) Nasiba goh Toshkent, goh Samarqandga safar qilib turadi.
B) Sizga, atlas ko'ylakli qizga, havasim keladi.
C) U to‘qayzorda sassiq alaflarning, qamishlarning, gulnl payhon qiluvchi to‘ng‘izlarning ko‘pligidan ajablanmadi.
D) «Avesto»da yigitlar kurash tushish,chavandoz bo‘lish,mol boqa olish,chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan himoyi qila bilishni o'rganishlari shartlij aytiladi.
21. Qaysi gapda paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq

uslubiy xatolik mavjud?
A) Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx ayonlariga qarab: «Qilichni emas, aqlni ishga solmoq kerak», - dedi.
B) Kech bo'lsa ham uyda yolg'iz qolgan onaizorini bir ko'rib ko'nglini xotirjam qilib ketishgi ahd qildi.
C) Birozdan so‘ng hamma tinchib,tashqaridan tanbur ovozi yangradi.
D) 0‘tmish merosimizni o‘rganishga, ota-bobolarimizning boy tajribalarini ko‘zdan kechirishga azm qildi.
22. Chiqimingiz kirimingizdan ortiq bo‘lmasin, chunki chiqimingiz ortiqcha bo'lsa, qayg‘u keltiradi.
Berilgan gapda egalik qo'shimchalari necha o‘rinda qo'llangan?
A) 5 B) 6 C) 3 D) 2
23. Uning ayollarga ehtiroinli ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rogiar va nodir me’moriy yodgorliklarda ham aks etadi. Ushbu gapda yasama fe’llar nechta gap bo‘lagiga nisbatan hokim bo'lak vazifasini bajargan?
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta
24. Xo‘jandiyning «Latofatnoma» asari Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga javob-nazira tarzida yozgan bo‘lsa-da, ular keskin farq qiladi. Ushbu farqni aniqlang.
A) «Latofatnoma» soqiynoma va g’azallardan tuzilgan
B) «Latofatnoma» masnaviy va g’azallardan iborat
C) «Latofatnoma» boshdan-oyoq masnaviy shaklida yozilgan
D) «Latofatnoma» faqat g’azallardan iborat
25. Yurtimizning bu asl farzandlari o‘z orzu-havaslari haqida emas, xalq hayoti uchun, uning ijtimoiy ahvoli uchun qayg‘urdilar, ularga juda ko'p zug‘um qilsalar ham, o‘z dunyoqarashlarini o’zgartirmadilar, hatto bu yo‘lda o‘zlarini qurbon qildilar. Ushbu gapda qaratqich aniqlovchilar necha o'rinda qo'llangan?
A) 7 B) 6 C) 5 D) 4
26. Bu tushmi yo xayol, bu na turli kuy, qayerdan bunday qushlar sayrashi? Gapda olmosh turkumiga oid so'zlar necha o'rinda qo'llangan?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
27. E'tibor berganmisiz yoki vo'qmi, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi, g‘amgin pallada dardingizni oladi. Ushbu parchada yasama so'zlar qaysi bo'lak vazifasida kelgan?
1) kesim; 2) ega; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4
28. Tinish belgisining qo'yilish qoidalariga rioya qilingan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.
A) Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi.
B) Ilmsiz inson - mevasiz daraxt, shuning uchun bilganlaringni kelgusi avlodga yozib qoldirishga harakat qil.
C) Qor yog'di, go'yo don yog'di.
D) Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling - odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin.
29. Quyida berilgan qaysi asar poema janrida yozilgan?
1) Musa Jalil «Xat tashuvchi»; 2) G'afur G'ulom «To'y»; 3) G'afur G'ulom «Ko'kan»; 4) Turob To'la «Samarqand afsonasi»; 5) Zulfiya «Quyoshli qalam»; 6) Maqsud Shayxzoda «Loyiq soqchi».
A) 1, 2, 3, 5 B) 3, 4, 5, 6
C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 4, 6
30. Qaysi maqolda to'rt o'rinda yasama so'z qo'llangan?
A) Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!
B) Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.
C) Birni ko'rib, fikr qil, Birni ko'rib, shukur qil.
D) O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.
31. Qaysi gap(lar)da fonetik o'zgarish faqat so'z yasovchi ta’sirida asosda sodir bo‘lgan?
1) Ikkalasi ham shahrimizdagi o‘zgarishlarni ko‘rib lol bo‘lishdi. 2) To‘pidan ayrilganni bo‘ri yer. 3) O'z ko'nglingni eng yaxshi yo‘li kimningdir ko‘nglini ko‘tarishdir. 4) Inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zini ham anglaydi.
A) 2, 4 B) 2, 3 C) 4 D) 1, 4
32. Sifatdosh otlashgan gapni toping.
A) 0‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimni, kechirganlarimni qalamga olgim kelib qoldi.
B) Eshon otasining gapiga amal qilib, to‘rdan joy tegmaydigan, poygakga choy tegmaydigan bir odam bo‘lib yetishibdi.
C) Jimirlab oqayotgan daryo bo‘yiga borib, yuz-qo‘llarini yuvib, bir-ikki qultum suv ichishdi.
D) Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko‘tarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi.
33. «...Hamma ziyolilar «xalq dushmani» deb e’lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda - uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo'rg'onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog‘ning chetiga ko'chirdik. (Go‘yo bizni bog‘dan topisholmaydiganday)...» Ushbu xotiralar qaysi ijodkor rafiqasiga tegishli?
A) Hamid Olimjon B) Said Ahmad
C) Abdulla Qahhor D) Oybek
34. Qaysi gaplarda o'zaro shakldosh qo'shimchalar qatnashgan?
1) U uyga kirishi bilan qolganlar jim bo‘lishdi. 2) Bir umr ulardan o‘rnak olish orzusi bilan yashab o‘tamiz. 3) Mehmonlar qorovulning qistashiga qaramasdan ichkariga kirishmadi. 4) Dor qurilgan maydonda arqonlarga osilib o‘ynayotgan bolalarning qahqahasi eshitildi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
35. Biz kelajagi buyuk Vatanning farzandlarimiz. Bu Vatan bizning qadimiy tuprog‘imizdir.
Asrlar qa’ridan kelayotgan munavvar tonglargaj ko'krak ochgan o‘zimizning diyorimizdir. Biz uni sevamiz, ardoqlaymiz.
Ushbu parchada ikkita munosabat shakliga ega bo‘lgan kesimlar necha o'rinda qatnashgan?
A) 6 B) 5 C) 3 D) 4
36. <u>Shirin-shirin</u> gap o‘rnida <u>shirin-shirin</u> ashuladan bo‘lsin, opa.
Berilgan gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma’nosi qaysi usulda ko'chgan?
A) vazifadoshlik B) metonimiya
C) sinekdoxa D) metafora
1. «Husayni Voiz Koshifiy Sharqda ma’lum va mashhur shaxs deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» nsarida U Navoiyga bag‘ishlab kitob yozgan uning mehrini qozongan yaqin kishisi muxlisi do'sti edi».

Berilgan ko'chirma gapli qo‘shma gapda muallif gapidan keyin qaysi tinish belgilari qo’llanadi?
A) vergul, tire B) ikki nuqta
C) tire D) nuqta, tire
2. Quyidagi gapda teng munosabatdagi bo‘laklar qaysi gap bo‘lagi vazifasini bajargan?
Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilish kerak.
A) aniqlovchi B) ega
C) ega, aniqlovchi D) to‘ldiruvchi
3. Urush so‘zining paronimi bilan antonim bo‘la oladigan so‘zni aniqlang.
A) osoyishta B) do‘pposlash
C) bosqin D) tinchlik
4. Taqillaydi eshik nogohon,
Kimsan? - deyman tugab sabotim.
Ochgil, - deydi. - Bu - men, qadrdon.
Bilmoq bo‘lsang, Bardoshdir otim. Ushbu gap haqida noto‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) beshta egasi yashiringan gap bor
B) bitta fe’l kesimli gap tarkibida ega qatnashgan
C) ikkita ot kesimli egasi yashiringan gap bor
D) to'rtta fe’l kesimli egasi yashiringan gap bor
5. Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman. «Alpomish» dostonidan olingan ushbu so‘zlar kimning tilidan aytilgan?
A) Qultoy B) Qaldirg‘och
C) Alpomish D) Barchin
6. «Savodi ta’lim» she’riy risolasi muallifi kim?
A) Furqat B) So‘fi Olloyor
C) Munis D) Ogahiy
7. Berilgan qo‘shimchalardan qaysilari shakl yasovchi qo‘shimcha sifatida o'zaro omonimlik hosil qila oladi?
1) -chak; 2) -ar; 3) -ish; 4) -m; 5) -ik; 6) -k; 7) -don.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 6, 7
C) 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4
8. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga sirg‘aluvchi jarangsiz lab undoshi yoziladi?
1) a..zal; 2) a..tomobil; 3) sha.. qat; 4) sa..do; 5) a..g‘on; 6) mu.. affaqiyat.
A) 1, 2, 3, 5, 6 B) 4, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 3, 5
9. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazish uchun oshiqayotgan elchilar kabi guvullab Usmonlarnikiga jo‘nashdi.
Ushbu gapda qatnashgan fe’lning vazifa shakllari qanday sitaktik vazifa bajargan?
1) kesim; 2) ega; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5
10. Kelishiklar haqida no‘to‘g‘ri fikrlarni aniqlang.
1) Qaratqich kelishigi jonli nuqta -ni, -sher, tilida -n -in shaklarida ifodalanishi mumkin.
2) Tushum kelishigi she’riy jonli tilda -n og‘zaki nutqda -di –ti -i shaklarda qo‘llanishi mumkin.
3) Umumiylik noaniqlik ma’nosi bildirsa, tushum va qaratqich belgisiz ishlatiladi.
4) Qaratqich va tushum kelishiklari har doim ko'makchi bilan erkin almasha oladi.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2
11. Dehqonchilik sirini professorlar o'rgatgan emas bizga. Paxtakorning o‘z kitobi bor. Bu kitob uning ko'kragida.
Ushbu parchada nechta shaxs oti qatnashgan va ular qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?
A) 2 ta: ega, aniqlovchi
B) 3 ta: aniqlovchi, ega, aniqlovchi
C) 3 ta: ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi
D) 1 ta: ega
12. Do'stlikni e’zozlashning zarur shartlaridan biri do'stlar bilan uchrashib turishdir.
Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug'ilgan kunlar, to'ylar bilan bir qatorda, do'stona yig'inlar ham bu munosabatlarni mustahkamlaydigan vositadir. Berilgan parchada nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
A) 4 B) 6 C) 5 D) 7
13. Bu holatni Amir Temur saltanatida ham ko'rishimiz mumkin.
Ushbu gapda ochiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarda shovqinlilarga kiruvchi nechta portlovchi jarangli undosh ishtirok etgan?
A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta
14. Qaysi gapda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarga rioya qilinmagan?
A) Qo'shning tinch - sen tinch.
B) Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday, qanaqa, qaysi, so'roqlariga javob bo'ladi.
C) Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.
D) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.
15. Alisher Navoiyning qaysi g'azali maqta’sidan «ishq o'ti senga azalning qismati ekan» mazmunidagi misralar o'rin olgan?
A) «Jonga chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azali
B) «Bo'l» radifli g'azali
C) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali
D) «Yo'q» radifli g'azali
16. «Avesto»da keltirilgan «parastishgoh» qanday joy?
A) lalmikor yer B) turar joy
C) qurbonlik qilinadigan joy D) ta’lim maskani
17. Qaysi maqol ergash gapli qo'shma gapdan iborat?
A) Qoqilsang, toshdan o'pkalama!
B) Avval o'yla, keyin so'yla!
C) Sariyog' sasimas, asal aynimas.
D) Vaqting ketdi - naqding ketdi.
18. Shu ma’noda xalqimizning hayot va tafakkur tarziga e’tibor beradigan bo‘lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o'ziga xos jihatlarni ko‘ramiz.
Ushbu gapda sodda yasama so'zlar haqida berilgan noto‘g‘ri hukmni toping.
A) sodda yasama fe’l otdan yasalgan
B) sodda yasama so'zlar ot va fe’ldan yasalgan
C) sodda yasama so‘zlar sifat va fe’lga tegishli
D) sodda yasama so‘zlar sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajargan.
19. Payt ravishlarini aniqlang.
A) tez, so'nggi B) so‘ngra, darrov, arang
C) doim, biroz D) dastlab, hanuz
20. Qaysi asardagi personaj haqida «mehnat bilan yashab,

yetti-sakkizni tug‘ib, yoshi ham qirqlarg‘a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo‘lib qolg'an, shuning uchun birartaga tegib olishi to’g‘risida o'ylash ham behuda» degan jumlalar keltirilgan?
A) «Mehrobdan chayon»da Anorbibi
B) «Kecha va kunduz»da Enaxonning onasi
C) «0‘tkan kunlar»da Jannat opa
D) «0‘tkan kunlar»da To‘ybeka
21. Navoiyni tushunish uchun millat tilining barcha shevalaridan xabardor bo‘lmoq lozim. Berilgan gapning ega va kesimini aniqlang.
A) millat - ega, xabardor boimoq lozim – kesim
B) Navoiyni tushunish - ega, xabardor bo‘lmoq lozim – kesim
C) xabardor - ega, bo‘lmoq lozim – kesim
D) xabardor bo‘lmoq lozim - kesim, ega ifodalanmagan
22. Berilgan gapdagi tagiga chizilgan so‘zda qaysi usulda ma’no ko‘chgan?
Onam qoshida tiz cho‘kkan, qora qumg‘on...
A) sinekdoxa B) metafora
C) metonimiya D) vazifadoshlik
23. Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
Gapdagi fe’llar qanday nisbatdaligini aniqlang.
1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat.
A) 1, 4 B) 1, 3, 4
C) 1, 3 D) 1, 2, 5
24. Qaro ko‘zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg‘il, Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il. Berilgan baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan?
A) ta’did B) ruju
C) tajnis D) talmeh
25. «0‘tkan kunlar» romanida Otabek «Xafa bo‘lma, o‘g‘lim», - deya unga tasalli bergan otasiga «Sizlarga o‘xshab quvonaymi?» - deb javob beradi. Bu holat qaysi voqea bilan bog'liq edi?
A) Kumushning zaharlanishi bilan
B) qipchoqqa qilingan qirg‘in voqeasi bilan
C) Homid va uning hamtovoqlari voqeasi bilan
D) Zaynabga unashtirilib qo‘yilgani voqeasi bilan
26. Quyida berilgan qaysi g‘azal musajja usulida bitilgan?
A) Fuzuliyning «Mani jondan o'sondurdi...» matla’li g‘azal
B) Fuzuliyning “So‘r” radifli g'azali
C) Navoiyning «Qilg‘il» radifli g‘azali
D) Nodiraning «Doda keldim» matla’li g'azali
27. Mirmuhsinning ilk dostonini belgilang,
A) «Qamar» B) «Sheralining mardligi»
C) «Jamila» D) «Vafo»
28. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostoni haqidagi qaysi ma’lumotlar to'g'ri emas?
1) Asarning Vena nusxasi Hirotda ko'chirilgan. 2) Asarning Vena nusxasini sharqshunos Valizoda fanga ma’lum qilgan. 3) Asarning Namangan nusxasi qo'lyozmasini atoqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat Muhammad hoji Eshon Lolareshdan olishga muyassar bo'lgan. 4) Asarning Vena nusxasini Jaubert Amadee sotib olib, saroy kutubxonasiga keltirilgan.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 3, 4
29. O'tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qoldirishgan.
(O. Sharafiddinov)
Gapda qo'llangan yordamchi so'z turkumlariga xos birliklar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.
A) 1 ta bog'lovchi, 1 ta ko'makchi, 2 ta yuklama qo'llangan
B) 1 ta bog'lovchi, 1 ta ko'makchi, 1 ta yuklama qo'llangan
C) 1 ta bog'lovchi, 2 ta ko'makchi, 1 ta yuklama qo'llangan
D) 2 ta bog'lovchi, 1 ta ko‘makchi, 1 ta yuklama qo'llangan
30. A. S. Pushkinning dostonlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) «Erkinlik», «Ruslan va Lyudmila»
B) «Belkin qissasi», «Toppon xonim», «Dubrovskiy»
C) «Ruslan va Lyudmila», «Mis chavandoz»
D) «Kapitan qizi»,«Mis chavandoz»
31. «Kichkina hovoncha boshidag‘i oq tepchima to'ppi va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofasiga qo‘yg‘an edi?»
Ushbu tashqi ko'rinish qaysi qahramonga tegishli?
A) «Mehrobdan chayon»da Sultonali
B) «Mehrobdan chayon»da Mulla Abdurahmon
C) «O’tkan kunlar»da Homid
D) «Kecha va kunduz»da Akbarali mingboshi
32. Qaysi javobda faqat nisbiy sifatlar berilgan?
A) go‘zal, paxtali, yuzaki B) erksevar, toza, tonggi
C) kuzgi, chillaki, ro‘molli D) mazali, sermeva, chiroyli
33. Vatanning bu asl farzandlari o‘z orzu-havaslari liaqida emas, xalq hayoti, uning ijtimoiy ahvoli yaxshilanlanishi uchun qayg'urdilar, ularga juda ko‘p zug‘um qilsalar liam, o‘z dunyoqarashlarini o'zgartirmadilar, hatto bu yo‘lda o‘zlarini qurbon qildilar. Ushbu gapdagi sodda yasama so‘z1ar sonini toping.
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta
34. Quyidagi gapda tobe qismi sifat bilan ifodalangan nechta fe’lli so‘z birikmasi bor?
Auditoriyaga xushbichim, o‘ziga yarashgan kostyum-shim,ustidan yupqa qavilgan beqasam to‘n kiygan,oyog‘iga zamonaviy tufli kiygan, bo'ynida chiroyli galstuk, ko‘ziga tilla gardishli ko‘zoynak taqqan,kalta mo‘ylovli,moshrang do‘ppili kishi viqor bilan kirib keldi.
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta
35. - Men ko‘rganman osmonlarning tinig‘ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig‘ini.
Beshikdagi go‘daklarga tig’ sanchdilar,
Shunda bildim mardlaringning qilig'ini.
Fonetik o‘zgarishga uchragan yasama so'zlar sonini aniqlang.
A) 3 B) 1 C) 2 D) 4
36. Qaysi gapda asosi sifat turkumiga mansub bo'lmagan yasama so‘zlar ishtirok etgan?
A) Shuni aytadilar-da, to‘qlikka sho‘xlik deb.
B) Oybek domla nihoyatda ziyraklik va samimiyat bilan opaning gaplarini tasdiqladi.
C) - Mehmon degan sergap bo‘lmaydi,- dedi u

ayyorlarcha kulib.
D) Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi.

1. Uch o‘rinda shakldosh bo’1a oladigan so‘zlar to‘liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) bog‘; 2) til; 3) chog‘; 4) qil; 5) to‘p; 6) ort.
A) 2, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 5

2. - Noshukurlik,- debdi u,- noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o'ralgan kishi his etish, jamiyki narsadan lazzatlanish, baxramand bo'lish qobiliyatini yo‘qotadi. Yuqoridagi gapda yasama so‘zga nisbatan hokim bo‘lak hisoblangan olmosh qaysi gap bo‘lagi bo'lib kelgan?
A) to'ldiruvchi B) hol
C) kesim D) aniqlovchi

3. Sabr - achitib gapiradigan nasihatgo'y, kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin unga amal qilgan oxirida so'zsiz murodiga yetadi.
Ushbu gap turini aniqlang.
A) bog'lovchisiz qo'shma gap
B) aralash murakkab qo‘shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap
D) bog'langan qo‘shma gap

4. Biringiz boqiysiz, biringiz - balki puch,
Biringiz shodliksiz, biringiz - o‘kinch,
Biringiz baxtlisiz, biringiz - baxtsiz.
Biringiz yarador, o‘lgansiz vaqtsiz.
Berilgan she’riy parchada -siz qo‘shimchasi necha o'rinda munosabat shakli sifatida qo'llangan?
A) 4 B) 5 C) 2 D) 3

5. Nodiraning qaysi she’rida tarso qizga ishqi tushgan Shayx Sa’non va payg'ambar Sulaymon tilga olinib, talmehning go'zal namunalari yaratilgan?
A) «Doda keldim.. «
B) «Vasl uyin obod qildim..
C) «Kel, dahrni imtihon etib ket...»
D) «Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...»

6. Qo'shimcha qo'shilishi bilan o'zagida tovush o'zgarishi bo'ladigan so'zlar qatorini toping.
A) o'rin, gurs B) past, qasd
C) so'm, ravnaq D) qayir, qala

7. Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir.
Ushbu gapda qatnashgan shakl yasovchi qo'shimchaiar tarkibida necha o'rinda sbovqinlilar guruhiga kiruvchi jarangli portlovchi undosh bor?
A) 6 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 4 ta

8. Qaysi javobdagi gapda tinish j belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalarga rioya qilingan?
A) Yolg'on o'rmonga o'xshaydi: unga qanchalik kirib boraversang, undan chiqib olish ham shunchalik chuqurlashaveradi.
B) Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday, qanaqa, qaysi, so'roqlariga javob bo'ladi.
C) Mard bir o'tar, nomard ming.
D) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.

9. Quyidagi qaysi ijodkorning ilk asari hikoya janrida yozilgan?
A) Turob To'la B) Mirmuhsin
C) O'lmas Umarbekov D) Oybek

10. Barchamizga ma’lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabining chuqurroq bilgani sari yuragida Vataniga muhabbat tuyg'usi ildiz otib ulg'ayar ekan.
Gapdagi egalik qo'shimchalarining sonini aniqlang.
A) 9 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 6 ta

11. Bo'ynim uza, «Ayn»in aylagil tavq, «Shin»in qil ichimga shu’layi shavq. «Qof»in menga ayla ko'hi anduh, Ko'nglumga g‘amini ko‘h to ko‘h. Navoiy qalamiga mansub ushbu misralar quyidagi qaysi qahramon tilidan bayon etilgan?
A) Shirin B) Majnun
C) Farhod D) Bahrom

12. 0‘g‘limni qoldirishni xohlamayapman-u, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz?
Ushbu gapda tovush tarkibi o‘zgargan so'zlar qaysi gap bo‘laklariga ergashgan?
A) vositasiz to'ldiruvchi, kesim
B) vositasiz to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi, hol
C) vositasiz to'ldiruvchi, hol
D) vositasiz to'ldiruvchi, hol, kesim

13. Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodidan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g’oyatda kuchli va salobatli, qo'l- oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, sersoqol, yo'g'on ovozli edi. (Ibn Arabshoh)
Ushbu gapda tub sifat necha o'rinda qatnashgan?
A) 7 B) 9 C) 10 D) 8

14. Qaysi dostonda ota o'z o'g'lini «nor kalla qo'chqor» deb ataydi?
A) «Ravshan» B) «Kuntug'mish»
C) «Alpomish» D) «Rustamxon»

15. O'zagi arabcha «shaxs» bo'lgan, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) tazod B) tarse’
C) talmeh D) tashxis

16. To'plamda ko'p rivoyat qilgan sahobalar alohida beshlikni tashkil etadi.
Gapdagi mustaqil so'zlar miqdorini aniqlang.
A) 6 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 7 ta

17. Qaysi shoir umrining oxirgi qismini Samarqand va Buxoroda o'tkazgan?
A) Sayfi Saroyi
B) Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xoja
C) Firdavsiy
D) Muqimiy

18. Qaysi yasama so'z tarkibidagi birinchi qo'shimcha shakl yasovchi qo'shimcha bilan, ikkinchi qo'shimcha esa sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladi?
A) tinchlik B) bilimdon
C) qaynatma D) g'amginlik

19. Qaysi gapda ham vositali, ham vositasiz to'ldiruvchi uyushgan?
A) Mustaqilligimizning shukuhli kunlarini, bayrum tantanalarini munosib kutib olish uchun, dillarni xushnud etish uchun ishga kirlshdik.
B) Respublikarda maktab o'qituvchilari va o'quvchilarini o'quv darsliklari, qo'llanmalar bilan ta’minlash yo'lga qo'yilgan
C) Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo‘lga olar, suyar va yuzlarini, sochlarini silab

qo‘yar edi.
D) Serchang, sershovqin ko‘chalarda, xiyobonlarda odamlar daryoday oqib borar edi.
20. Quyida keltirilgan gapda nechta yasama so‘z qatnashgan? Birdan eshik ochildi. Yonboshlab, bag‘rini sovuq ko‘rpaga burkab yotgan cholning ko‘zlari xiralashib qolgan, nursiz edi.
A) 2 B) 3 C) 5 D) 4
21. Vatan xoinlari hech qachon kechirilmas. Bu xoinlikning eng og‘ir gunoh sanalishini unutmang.
Ushbu gapda faqat qo‘shimcha qismida tovush o‘zgarishi ro‘y bergan so‘zning sintaktik vazifasini toping.
A) aniqlovchi B) kesim
C) hol D) to‘ldiruvchi va kesim
22. Quyidagi gapda ishtirok etgan yordamchi so'zlar sonini toping. Xuddi so‘z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o‘rniga qarab ma’nolari ko‘p.
A) 6 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
23. Bolalikdan boshlangan do‘stlik insonning keyingi ulg‘aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do‘stlari orasida alohida ahamiyatga ega.
Gapdagi yasama so‘zlar qaysi turkumlarga oidligini aniqlang.
1) ot; 2) sifat; 3) fe’l; 4) ravish.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3
24. Mumtoz she’riyatda qo‘llanadigan asosiy obrazlardan qaysi timsollar baytda hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi?
A) ag‘yor va ma’shuqa B) ma’shuqa
C) oshiq D) ag'yor
25. Rumiy «Masnaviy» asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni qaysi asarida ravshan va sodda shakldа tushuntirib bergan?
A) «0‘n usul»
B) «Ishonarli to‘plam»
C) «Ichingdagi ichingdadur»
D) «Ulug‘ devon»
26. Choyni nari-beri ichib, otxonaga yugurdim.
Berilgan gapda qanday so‘z turkumlariga oid so‘zlar ishtirok etgan?
A) 1 ta ot, 3 ta ravish, 2 ta fe’l
B) 2 ta ot, 1 ta ravish, 2 ta fe’l
C) 1 ta ot, 2 ta ravish, 2 ta fe’l
D) 2 ta ot, 2 ta ravish, 2 ta fe’l
27. Bu yil bahorni juda-juda sog‘indik. Ayniqsa, yanvarning izg'irinli, ayozli kunlarida ko‘klamning qadri juda bilindi. Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar Hiy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg‘ondi. Odamlarning bahri-dili ochilib, kayfiyatlari ko‘tarilib, bahorgi tashvishlarga sho‘ng‘ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi chulg'ab olgan. Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog‘dagi qor zaxirasidan xursand - bu yil hosil mo‘l bo‘lishidan umidvor. (I. Normatov)
Berilgan parchada nechta gap tarkibidagi fe’l nisbat qo‘shimchasi bilan shakllangan?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta
28. 0‘stir Vataningni bog’ kabi tuyg'un
Ishongin-u uni shu aziz yerda - hushyor bo‘l - beega qoldirma bir zum –
Farzandingdan boshqa hech kimga berma.
Ushbu she’riy parchada nechta fe’l tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud?
A) 4 B) 2 C) 1 D) 3
29. To‘y xarjida yuzta boy yapon,
Bir kambag‘al o'zbekcha yo‘qdir. (E. Vohidov)
Ushbu she’riy parchada urg‘u ajratib ko'rsatilgan so‘zning nechanchi bo‘g‘iniga tushadi?
A) Ikkinchi bo‘g‘inga B) birinchi bo‘g‘inga
C) bu so‘z urg‘u olmaydi D) uchinchi bo‘g‘inga
30. Asarda markazlashgan davlat qurish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli urushlarni qo‘zg‘ash, yovuzlik, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash g‘oyalari ilgari suriladi.
Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama bo‘lgan so‘z birikmalarida tobe va hokim qism o‘zaro qanday usul bilan bo‘g‘langan?
A) moslashuv B) bitishuv
C) boshqaruv, bitishuv D) boshqaruv
31. She’rlaridan birida nonning azizligiga olov sababchiligi bilan insonning azizligiga yerga to‘kilgan manglay teri sabab ekani borasidagi parallel tasvirlarni ifodalagan ijodkorni aniqlang.
A) Ibroyim Yusupov B) Mirtemir
C) Xayriddin Saloh D) Saida Zunnunova
32. Gap bo‘laklari tartibi haqida berilgan quyidagi fikrlarning nechtasi to‘g‘ri?
1) ilmiy asarlar uslubi uchun gap bo'laklarining odatdagi tartibi mos; 2) badiiy uslub uchun gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi mos; 3) gapdan ko‘zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma’no, uslubiy yuk berish uchun gap bo‘laklari tartibi o‘zgarishi mumkin; 4) gapda kesimning o‘rni o‘zgarmaydi.
A) 2 tasi B) 1 tasi C) 4 tasi D) 3 tasi
33. Muhammad Fuzuliy qaysi asarida Alisher Navoiyni «Manzuri shahanshohi Xuroson» deya tilga oladi?
A) «Layli va Majnun» B) «Sihhat va Maraz»
C) «Shikoyatnoma» D) «Soqiynoma»
34. Usmon Nosir qaysi she’rida «O'z zimmamga katta ish oldim» deb yozgan edi?
A) «Nil va Rim» B) «Bog‘im»
C) «Yurak» D) «Monolog»
35. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga jarangli sirg‘aluvchi lab undoshi yoziladi?
1) a..zal; 2) a..tomobil; 3) sha.. qat; 4) ta..tish; 5) a..g‘on; 6) mu.. affaqiyat.
A) 2, 6 B) 2, 3, 6 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 4, 6
36. Ul bezabon «Maxzani asror»idin,
Bu yorutub «Matlayi anvor»idin.
Ushbu baytni Navoiy quyidagi qaysi ijodkorlar haqida yozgan?
A) Jomiy va Dehlaviy B) Nizomiy va Jomiy
C) Nizomiy va Dehlaviy D) Jomiy va Lutfiy
1. «0‘tkan kunlar» romanidan o‘rin olgan quyidagi parcha asardagi qaysi qahramon haqida? «0‘choq boshida qo'polgina, 45 yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir».
A) To‘ybeka B) Oyshabibi
C) Hanifa D) Oybodoq

2. Muloqat, hatto, jaholat, tamosha, tadbiq, mabodo, afsuzlanmoq, tag‘dir.
Ushbu so‘zlardan nechtasi to‘g‘ri yozilgan?
A) 2 tasi B) 3 tasi
C) hammasi to‘g‘ri yozilgan D) 5 tasi.
3. Xurofotning zahri tekkan Nodon Johil,
Gumrohlar - Davosiga ojiz ekan
Men kashf etgan giyohlar.
(E. Vohidov)
Berilgan she’riy parchada qaysi bo‘lak qatnashmagan?
A) to'ldiruvchi B) hol
C) ega D) kesim
4. Keltirilgan gapda qo'llangan tovush o‘zgarishlarining soni va turi to'g'ri berilgan javobni toping.
Hadisi sharifda shunday deyligan: «Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa bo'ladi».
A) 1 ta tovush ortishi, 2 ta tovush almashishi
B) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi
C) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi
D) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi
5. Navoiy «Xamsa »ning qaysi qahramoni ismini baytdagi so'zlarning birinchi harfi orqali aks ettirib, kitobat san'atini qo'llagan?
A) Majnun B) Iskandar
C) Bahrom D) Farhod
6. «Yurak qoning to'kilgan so'qmoq
- Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq». Ushbu go'zal tashbeh muallifi kim?
A) M. Yusuf B) S. Sayyid
C) T. Sulaymon D) Sh. Rahmon
7. Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim,
Qaro yer bag'riga botgan ko'p ko'rdim
Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,
Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko‘p ko'rdim. (Pahlavon Mahmud)
Ushbu ruboiydagi otlashgan so'zlar tarkibida tushum kelishigi qo'shimchasi necha o'rinda belgisiz qo'llangan?
A) 5 B) 3 C) 6 D) 4
8. Qaysi gapda o'zlik olmoshi predmetni ko'rsatish uchun qo'llanilgan?
A) O'zlik olmoshi predmetni ko'rsatish uchun ishlatilmaydi.
B) Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'iday asraymiz.
C) Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman.
D) Soat o'zi ishlab ketdi.
9. na inkor bog'lovchisi qaysi javobda uyushgan bo'laklarni bog'lamagan?
A) Bu ishingdan na menga,na boshqalarga manfaat bor.
B) Ilmsiz odam yog'och kabidir: undan na o'ziga,na xalqida foyda bor.
C) Yalqov va besabr bo'lma, u senga na obro', na baxt keltiradi.
D) Unga na bir gap yoqadi, na bir ish yoqadi.
10. To'dalab,guruhlab ko'rsatuvchi omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan o'lchov so'zlarni aniqlang.
A) to'p, bog‘, tilim B) to'p, bog', dasta
C) qism, bo'lak, chimdim D) og'iz, tilim, chaqmoq.
11. Ergash gapi egasi noma’lum gap ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
A) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, ayibni o'zingizdan qidiring.
B) Odamning shunday do'stlari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe’liga qarab gaplashishga to'g'ri keladi.
C) Har kishi el uchun topsa agar ranj,
Oqibat muyassar bo'lar unga ganj.
D) Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p, o'tinni ozgina o't kuydiradi.
12. Odil Yoqubovning mustaqillik yillarida yozgan romaning nomi qaysi javobda berilgan?
A) «Muzaffar Temur» B) «Ko'hna dunyo»
C) «Diyonat» D) «Adolat manzili»
13. Balki hamon tugamagan boshlangan doston,
Tanlariga tuproq emas, sog'inchlar botar.
Hamon Sibir sovug'iga ko'nikolmasdan
Ular bir-birin quchoqlab, isinib yotar. (H. Xudoyberdiyeva) Ushbu she’riy parchadagi yasama so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
1) kesim; 2) ega; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5
14. Qaysi maqolda sinonim qo'shimchalar ishtirok etgan?
A) Bevafo do'stdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq yaxshi.
B) Benuqson do‘st axtargan do‘stsiz qolar.
C) Nomard bo‘lib ko‘pga kirguncha,mard bo‘lib o‘lgan yaxshi.
D) Befoyda so‘zni aytma, foydali so'zdan qaytma.
15. Abdulla Qodiriy qanday romanlar yozish uchun ijodiy tayyorgarlik ko‘rgan, ammo yozib ulgurmagan?
A) «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o‘g‘ri»
B) «Ahvolimiz», «Millatimga bir qaror»
C) «Xalq dushmani», «Turg‘un chavandoz»
D) «Qasoskorning oltin boshi», «Fikr aylagil»
16. Qaysi javobda quyidagi qo‘shma gapining turi to‘gri ko‘rsatilgan?
Siz o‘z xalqingizni, Vataningiz, millatingizning ko‘z qarog'larisiz, ammo unutmangki, tanbal, daqqi, bezori kishi ma’naviy nogirondir.
A) aralash murakkab qo'shma gap
B) bir nechta ergash gapli murakkab qo‘shma gap
C) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap
D) bog‘lanmagan qo'shma gap
17. Qaysi gapda nomi sifat turkumiga mansub bo‘lmagan yasama so‘zlar ishtirok etgan?
A) Shuni aytadilarda, to‘qlikka sho'xlik deb.
B) - Mehmon degan sergap bo‘lmaydi,- dedi u ayyorona kulib.
C) Avaz dahlizdan rangdor vazali uyga kirdi.
D) Oybek domla nihoyatda ziyraklik va samimiyat bilan opaning gaplarini tingladi.
18. Shunisi xarakterliki, shimpanze oqqushni ko‘rganda beixtiyor «suyuqlik» va «qush» ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga «kalit- ochish-ovqat» ishoralari bilan murojaat qilganligi aytiladi. Berilgan gapda fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘zlar miqdori nechta?
A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta
19. Muhammad Fuzuliy qaysi asarida Alisher Navoiyni «Manzuri shahashohi Xuroson» deya tilga oladi?
A) «Layli va Majnun» B) «Shikoyatnoma»
C) «Soqiynoma» D) «Sihhat va Maraz»

20. Petrarka va Sapfo kabi qadimgi Rim shoirlari nomi tilga olingan she’r va uning muallifini toping.
A) Usmon Nosir, «Nil va Rim»
B) Fitrat, «Go‘zalim, bevafo gulistonim»
C) Fitrat, «Mirrix yulduziga»
D) Usmon Nosir, «Monolog»
21. Berilgan so‘zlardan qaysilarining tarkibi asos va faqat bitta ko‘makchi morfemadan iborat ma’noli qismga ajraladi?
1) terim; 2) bog‘lar; 3) suhbatlash; 4) qaynatma; 5) qovurma.
A) 1, 4, 5 B) faqat 5
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 3, 5
22. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo‘shqin bo‘lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da’vo qilsa, onaning pok qalbi timsol. Berilgan parchada necha o'rinda aniqlovchi to'ldiruvchiga tobelangan?
A) 5 B) 1 C) 3 D) 4
23. Berilgan qaysi maqollar o'zaro ma’nodosh maqollar sanaladi?
1) Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi. 2) Yolg'iz baloga indamasang, ko'payadi. 3) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. 4) Oz-oz o'rganib dono bo'lur.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2
24. Quyidagi gapda kesimga bevosita bog'langan gap bo'laklari nechta?
Yosh olim Behbudiyning so'nggi izlarini do'stlari bilan boshqa shaharlardan ham qidirgandi.
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta
25. Guli ruxsoringa qarshu ko'simdan qonli oqar su(v), Habibim,fasli yuldir bu,oqar Hu(v)lar bulanmasmi?(Fuzuliy) Berilgan baytda qo'llangan she’riy san'atni toping.
A) tanosib B) ta’did
C) talmeh D) tarse’
26. «Qutardg'u bilig»ning Vena nusxasi qayerda, qaysi yozuvda ko'chirilgan?
A) Hirotda, arab yozuvida
B) Turkiyada, arab yozuvida
C) Venada, uyg'ur yozuvida
D) Hirotda, uyg'ur yozuvida
27. Qo'shma fe’l qatnashgan gapni toping.
Unsin ostonadan hatlashi bilan qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.
A) Bir mahal yo'l kengayib ketdi.
B) Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi.
C) Ishdan kelgach, nari-beri tamaddi qilib, uyiga o'tib bordim.
D) Birdan tush kabi uzuq- yuluq xotiralar yopiriladi // yuragim gursullagancha o'rnimdan turib ketaman.
28. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?
A) tire B) nuqtali vergul
C) ikki nuqta D) vergul
29. Qaysi she’riy janr g'azal kabi qofiyalanish tizimiga o'xshasa-da, unda taxallus kamdan kam qo'llanadi, mavzu doirasi chegaralanmagan?
A) qit’aB) musaddas
C) ruboiy D) masnaviy
30. Qizil poyandoz to'shalgan keng xonaga kirishgach,to'rga yotqizib qo'yilgan bemorga yaqin borishdi,bir ayol bemorning og'ziga tomizib turardi. Ushbu gapda o'rinda ko'makchi qo'llangan?
A) 3 B) 2 C) 1 D) ko‘makchi fe’l qo‘llanmagan
31. Mashrab va bu shoirning asarlari bir-biriga hamohang edi. Berilgan gapda tobe bog‘lanishlar miqdori nechta?
A) 5 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 7 ta
32. Quyidagi she’riy parcha qaysi vaznda yozilganligini aniqlang.
Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch,
Ishi barcha tetru sevinchi saqinch.
A) mutaqoribi musaddasi maqsur
B) mutaqoribi musammani maqsur
C) ramali musammani mahzuf
D) hazaji musaddasi mahzuf
33. Quyidagi parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan? «Ko'rar ko‘zim ko‘rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo‘ldi (es-hushimdan ayrildim), jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o‘ladigan qilib yaratilgan».
A) «Kul Tigin», Bilga xoqon tilidan
B) «To‘nyuquq», To'nyuquq tilidan
C) «To‘nyuquq», Eltarish xoqon tilidan
D) «Kul Tigin», Eltarish xoqon , tilidan
34. «Rustamxon» dostonidan olingan quyidagi parcha kimning tilidan aytilgan?
Maydon bo‘lsa bedov otlar topilar, Chopib kelsa banot jullar yopilar, Men ham bildim, yo'qchi bo‘lib kelibsan, G‘am yema begijon, yo‘g‘ing topilar.
A) Huroyim B) Rustamxon
C) Oftoboy D) qalandarlar
35. Qaysi shoir o‘z she’rlarida Xudoni mehribon onasi, «jola kiygan» mahbubasini sevganday sevadi, o‘z yonida aniq ko‘rib turadi, ko‘nglidagi dardlarini, sirlarini unga so‘zlaydi, u bilan qo'shilib - qorishib ketadi?
A) Ogahiy B) Munis
C) So'fi Olloyor D) Mashrab
36. Hammamizning onamizdir shu Vatan // Yov qoldirgan siynasida ming tikan. // Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan. // Yur, o‘g‘lonim, elni ko‘tarish uchun.
Ushbu she’riy parchada nechta sodda gap mavjud?
A) 3 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 4 ta
1. Qaysi javobda vazifadosh biriktiruv bog'lovchilari keltirilgan?
A) -u, -yu, -da, ba’zan
B) -u, -yu, -da, bilan
C) -u, -yu, -da, na ... na
D) -u, -yu, -da, balki
2. Quyida berilgan qaysi g‘azal vazni aruzning mafoiylun-mafoiylun-faulun (yoki mafoiyl) vaznida yozilgan?
A) «Qaro ko‘zum, kelu mardumlig’ emdi fan qilg‘il...»
B) «Ayoqingga tushar har lahza gisu...»
C) «Jong‘a chun derman: «Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?...»
D) «Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro* kelmadi...»
3. Anavini qara, o‘zimizning to‘pori Zebimi shu? Gapdagi olmoshlar tarkibida nechta ko‘makchi morfema qo‘llangan?

A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

4. Kosa, piyola, choynak, utakan, bankalar, tovoqlar va oshxonaga taalluqli boshqa idishlar tuz bilan yuvilgandan no‘ng toza suvda chayib olinadi. Berilgan gapdagi narsa-buyum otlari miqdorini aniqlang.
A) 7 B) 6 C) 9 D) 8

5. Hafiza bu gaplarning barisini oqilona va xomush tinglab, Umidning hamma fikrlariga qo‘shilishini bildirib chiqib ketdi. Ushbu gapda qaralmish qaysi i gap bo‘lak(lar)iga ergashgan?
A) kesimga B) to‘ldiruvchiga
C) aniqlovchiga D) hol, to‘ldiruvchiga

6. Tasavvuf adabiyotida talqin etilishicha, inson komillik yo‘liga birinchi qadamni qanday qo‘yishi mumkin?
A) shariat bosqichiga kirganda
B) har uchala bosqichni o'taganda
C) tariqat bosqichiga kirganda
D) haqiqat bosqichiga kirganda

7. Qo‘shib yozish qoidasiga inuvofiq kelmaydigan javobni toping.
A) birinchi qismi sifat, ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan geografik nomlar qo‘shib yoziladi
B) bir tushunchani bildiradigan va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi
C) bop, rang, baxsh kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo'shib yoziladi
D) keyingi qismi turdosh ot yoki obod so‘zi bilan ifodalangan geografik nomlar qo‘shib yoziladi

8. «Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin, o‘ldirish esa oson». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Qochoq» B) «Me’mor»
C) «Oq kema» D) «Dahshat»

9. «Bilimli kishi o‘lsa ham, uning nomi o‘chmaydi, ilmsiz kishining o‘zi hayot bo‘lsa ham, oti o'likdir».
Mazkur ibratomuz fikrlar kimning qaysi asarida bayon etilgan?
A) Abu Mansur As-Saolibiy «Yatimat ad-dahr»
B) Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig»
C) Ahmad Yugnakiy «Hibat ul- haqoyiq»
D) Abay «Naqliya so'zlar»

10. Men gilosman, quloq sol,
Rangim ol va totim bol.
Topsang qo‘shalog‘imni,
Qulog‘ingga taqib ol.
(E. Vohidov)
She’riy parchada qaysi turkumlarga xos birliklar o'rtasida shakldoshlik yuzaga kelgan?
A) ot va fe’l B) sifat va fe’l
C) ot va sifat D) ot, sifat, fe’l

11. Cho'pon: «Ey xoja,men senga sutga suv qo'shmagin degan edim,mening so‘zimni aslo eshitmading. 0‘tgan kechasi sutga qo‘shgan suvlaring hammasi yig‘ilib, sel bo‘lib oqdi va qo‘ylarni oqizib ketdi», - deb javob berdi. Ushbu matnda vergul qo‘yilishi noto‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.
A) Ko‘chirma gap darak gap bo‘lgani uchun qo‘shtirnoqdan so‘ng vergul qo'llangan.
B) Bog'lovchisiz qo‘shma gap qismlarini bog'lash uchun vergul ishlatilgan.
C) Undov so‘z qo‘llangani uchun vergul ishlatilgan.
D) Undalma qo‘llangani uchun vergul ishlatilgan.

12. «Alpomish» dostonida quyidagi so‘zlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?
«Bu alplarni kuyov qilib olamiz, Mina elga toza erkin bo‘lamiz. Bolalarni tog‘a-jiyan qilamiz, Mina elda bizlar davron suramiz»
A) Boysari B) Alpomish
C) Barchinoy D) Yortiboy oqsoqol

13. Bu bog‘lar Samarqanddagi boshqa bog'lardan o‘zining tengsiz tarovati, ulug‘vorligi hamda go‘zal nafosati bilan ajralib turar edi.
Ushbu gapda so‘zlar o‘zaro bog‘lanib,necha o‘rinda moslashuvli tobebog‘lanish hosil qilgan?
A) 3 B) 4 C) 1 D) 2

14. Harakat nomi ishtirok etmagan gapni toping.
A) Xalqning o‘zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o‘zing xalqqa xayrixoh bo‘l.
B) Boshqalarga salom berish insoniylik belgisi.
C) Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.
D) Bilim o'qish va takrorlash mevasidir.

15. Aralash murakkab qo‘shma gaplarni aniqlang.
1) Agar traktor berilsa, yerlar traktor bilan haydalsa, menhat unumli bo‘ladi va hosil mo‘l bo‘ladi. 2) Bilim, shundayki, u yalang‘och bo'lganingda ham o‘zing bilan qoladi, uni suv bilan ham yo'qota olmaysan. 3) Reja bajarilsa, dasturxon mo‘l bo‘lsa, yor-u do‘st, birodarlar qalin bo‘lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi. 4) Shuni ta’kidlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi, mushakchalar bilan boyitib boradi. 5) O'ziga aytgisi keladi-yu, singlisi iymanadi, xafa qilib qo‘ysa-chi.
A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 5 D) 1, 2, 5

16. Quyidagi qaysi gapda metafora asosida ma’nosi ko‘chgan so‘z ega vazifasida kelgan?
A) Rentgen apparati natijalarini kutyapmiz.
B) Bosh omon bo'lsa, do‘ppi topiladi.
C) Qozonning qulog‘i qiyshayib qolgan ekan.
D) Stol oyog'i pishiq yog‘ochdan qilingan.

17. Qaysi so‘zga ot yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimcha ketma- ket qo‘shilganda so‘zda 2 xil fonetik hodisa kuzatish mumkin?
A) yig‘iB) qiyin
C) yalt D) titra

18. Otamday rozi bo‘l, onamday sevgin,
Men ham senikiman, o‘ksik qizingman.
Bag‘ringda ming yillik toshlar to‘sig‘in
Yorib chiqayotgan bir ildizingman!
Berilgan she’riy parchada nechta sodda gap mavjud?
A) 4 B) 6 C) 3 D) 5

19. Hamul erdiki, maftun bo‘lmish erdi,
Ko‘rib ko‘zguda majnun bo'lmish erdi.
Birovkim aks ko‘rgach hushi ketsa,
O‘zin ko‘rgach, netong, jon tarkin etsa.
Yuqoridagi misralar Navoiyning qaysi dostonidan olingan?
A) «Hayrat ul-abror» B) «Layli va Majnun»
C) «Sab’ai sayyor» D) «Farhod va Shirin»

20. 0‘zak, So‘z, Negizvoylar «Biz sonning asosiy qismimiz, sizlar esa qo‘shimchalar», - deb maqtana boshlabdi.
Ushbu gapda birgina tovushdan iborat morfemalar necha o‘rinda qatnashgan?

A) 4 B) 2 C) 5 D) 3
21. Ko‘z ochgani qo‘ymaydi alam,
Boshim qo‘vsam kuvdirar bolish. Ushbu gapdagi tagiga chizilgan so‘zlar tarkibi haqidagi noto‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.
1) So‘z yasovchilar bilan omonim bo‘la oladigan munosabat shakllari qatnashgan. 2) Undosh bilan tugagan ism asoslariga qo‘shiladigan egalik shakli bilan omonim bo‘la oladigan munosabat shakli qatnashgan. 3) Ismning munosabat shakllari bilan omonim bo‘la oladigan qo'shimcha qatnashgan. 4) Qo‘shimcha-yuklama bilan omonim bo‘la oladigan munosabat shakli qatnashgan.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) faqat 4
22. Bitta o‘g‘limni qoldirishni xohlamayapman-u, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz? Ushbu gapda munosabat shakllari tarkibida ishtirok etgan undoshlarning hech biriga xos bo‘lmagan tasnifni aniqlang.
A) jarangli portlovchi til orqa undoshi
B) jarangli juftiga ega bo‘lgan portlovchi til undoshi
C) shovqinlilar guruhiga kirmaydigan jarangli portlovchi undosh
D) jarangsiz juftiga ega bo‘lgan sirg'aluvchi til undoshi
23. Qaysi maqolda belgisiz qo'llangan kelishik qo‘shimchasi uchramaydi?
A) Birovga choh qazigan,o‘zi yiqilar.
B) Kishi yurtda shoh borguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l!
C) Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma!
D) Qunt bilan o'rgan hunar, Hunardan rizqing unar.
24. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan?
Shabistonida tug‘di bir yangi oy, Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.
A) istiora B) tajnis
C) tarse’ D) harfiy san’at
25. Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko'paysa, xalqning do'stligi, ularning yurtga mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.
Ushbu gapdagi sodda yasama so'zlar tarkibida nechta ko'makchi morfema qatnashgan?
A) 4 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 6 ta
26. Baland aylab quyoshga poya navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.
Ushbu bayt muallifi va unda qo'llangan she’riy san’at turini aniqlang.
A) Ogahiy; tashxis B) Furqat; tanosib
C) Ogahiy; ishtiqoq D) Furqat; tashxis
27. Netgayman ul rafiq bilakim qilur base,
Mehr-u vafo raqibg'a, jabr-u jafo manga. (Bobur)
Ushbu baytda qo'llangan she’riy san'atni toping.
A) intoq B) talmeh
C) tazod D)tashxis
28. Qaysi adibning birinchi qissasi «Tengdoshlar» nomi bilan nashr etilgan?
A) Pirimqul Qodirov B) Odil Yoqubov
C) O'lmas Umarbekov D) Said Ahmad
29. Qaysi javobda keltirilgan fe’llar fe’ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatning ifodalanishiga ko'ra farqlanadi?
A) bordim, bording, bordi
B) bordim, boraman, boryapman
C) bordi, borildi, borishdi
D) boraman, borsam, boray
30. Qaysi javobda ega qatnashmagan undalmali gap berilgan?
A) O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?
B) Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni.
C) O'sha damgi iqbolim ham, onajonim, sengadir.
D) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?
31. Yozma nutqda so'z asosida tovush tushish hodisasi qaysi qo'shimchalar qo'shilganda kuzatilishi mumkin?
1) fe’l yasovchi -ar; 2) sifat yasovchi -aki; 3) jo'nalish kelishigi -ga; 4) fe’l yasovchi -a; 5) fe’l nisbati qo‘shimchasi -il; 6) fe’lning mayl shakli -ay.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5
C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 4, 5, 6
32. Qaysi javobda Usmon Nosir qalamiga mansub dramalar berilgan?
A) «Yana uylanaman», «Atlas», «Zafar»
B) «0‘rtoq Qarshiboyev», “So‘nggi kun”, «Dushman»
C) «Hujum», «Cho‘rining isyoni», «Halil farang»
D) «Dushman», «So'nggi kun», «Atlas»
33. Seni menga bergan, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas...
Ushbu misralarda necha o'rinda tovush o'zgarishi ro‘y bergan?
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta
34. «...Uning bilmagani oz, o‘qimagani kam, edi. Hammadan, hamma narsadan xabardor, qisqaroq aytganda, chin ma’nosi bilan o‘qimishli qalamkash edi». (Mirtemir)
Ushbu e’tirof qaysi ijodkor haqida aytilgan?
A) Oybek haqida B) Abdulla Oripov haqida
C) Erkin Vohidov haqida D) Hamid Olimjon haqida
35. Kimki so‘zni qadrlasa har qachon,
0‘z-o‘zini qadrlagay begumon. Berilgan gap ergash gapning qaysi turiga mansub?
A) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap
B) kesim ergash gapli qo‘shma gap
C) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap
D) ega ergash gapli qo‘shma gap
36. Qaysi gapda sirg‘aluvchi undoshni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida paronimlar bilan bog'liq xatolik yuzaga kelgan?
A) Kech bo‘lsa ham bir kelib ketishga ahd qildi.
B) Ruhimizda, vujudimizda Vatan nomi mangu barqaror.
C) Nutq tovushlari ikki xil bo‘ladi: unli va undosh.
D) 0‘ng yuziga qora xol qo'ygan.
1. Daraxtni faqat gullata bilishgina emas, balki undan mo‘l va shirin hosil olish ham san’atdir.
Ushbu gapdagi yordamchi so‘zlar turkumiga kiruvchi birliklar sonini toping.
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 5 ta
2. Zavqiyning «Hajvi ahli rusta» satirasi qanday janrda yozilgan?
A) masnaviy B) musallas
C) g'azal D) murabba’
3. Keltirilgan gapda qoplangan tovush o‘zgarishlarining soni va turi to‘g‘ri berilgan javobni toping.
Hadisi sharifda shunday deyilgan: «Odamlarga nisbatan yomonligingni to‘xtat, shu o‘zingga sadaqa bo‘ladi».
A) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi
B) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi

C) 1 ta tovush ortishi, 2 ta tovush almashishi
D) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

4. «Silsilat uz-zahab»,«Salomon va Absol» asarlarining muallifi kim?
A) Furqat B) Ogahiy
C) Jomiy D) Ganjaviy

5. Najmiddin Kubroning qaysi nomi (laqabi) «balo-qazolarning oldini oluvchi,buyuk bashoratchi» degan ma'noni anglatadi?
A) Tummat ul-kubro B) Valiytarosh
C) Abuljannob D) Najmiddin

6. Quyida berilgan so'zlarning nechtasidan ham ot,ham sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan qo'shimeha orqali fe'l yasash mumkin?
Qisqa, kech, qiyin, zo ' r, gap, qalt.
A) to'rttasidan B) uchtasidan
C) ikkitasidan D) beshtasidan

7. Soch timsoli tasavvufiy ma'no kasb etgan Navoiy g'azalini aniqlang.
A) «Bo'ldim sanga» B) «Qilg'il»
C) «Jong'a chun derman: Ne erdi o'lmakim kayfiyati?»
D) «Deyin»

8. Qaysi maqolda otlashgan so'z ega vazifasida qo'llangan?
A) Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang, yomondan burun o'lasan.
B) Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.
C) Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.
D) To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.

9. Bu bog'lar Samarqanddagi boshqa bog'lardan o'zining tengsiz tarovati, ulug'vorligi hamda go'zal nafosati bilan ajralib turar edi.
Ushbu gapda so'zlar o'zaro bog'lanib,necha o'rinda moslashuvli tobe bog'lanish hosil qilgan?
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3

10. «Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan, Yog'in-sochindan keyin po'rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar bir- biriga ayqashib ketgan yo'lda ikki yo'lovchining oyoq izlari ko'zga tashlanadi».
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) Chingiz Aytmatov «Jamila»
B) Tohir Malik «Alvido, bolalik!»
C) Asqad Muxtor «To'qqizinchi palata»
D) Nazar Eshonqul «Maymun yetaklagan odam»

11. Qaysi gapdagi barcha so'zlarning asosi omonim xarakterga ega?
A) Birovga ishonib yashamang zinhor.
B) Boshingga qilich kelsa ham, rost so'zla.
C) Karam qil,buncha kuydirma meni.
D) Do'stim uloqda yutdi.

12. Qofiya she'riy asarning musiqiyligi,ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ushbu gapda yasama so'zlar qaysi bo'lak vazifasida kelgan?
1) kesim; 2) ega; 3) hol; 4) to'ldiruvchi; 5) aniqlovchi.
A) 1,4,5 B) 2,4,5 C) 2,3,4 D) 1,2,3

13. Qayumxon Olimovichning uyida zo'r tantana. Shaharning ko'zga ko'ringan odamlari taklif etilgan. Ikki qavatli kottejning hovlisi taxta so'rilar,institut oshxonasidan keltirilgan stol, stullar bilan bezatilgan. Matndagi fe'llar qaysi nisbatda?
A) o'zlik, orttirma B) majhul,orttirma
C) o'zlik,majhul D) majhul

14. Daraja-miqdor ravishi qo'shma fe'lga ergashib kelgan gapni aniqlang.
A) U 0'rmonjonga, Bo'taboyga, Kanizakka ko'pdan ko'p salom aytdi.
B) Xadicha xola xiyla o'ylanib turdi.
C) To'lagan aka zo'rg'a kelgan ekan.
D) Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak.

15. Berilgan gaplarning qaysi birida tojik tilidan o'zlashgan <u>bog'</u> so'zi qo'llangan?
A) Yuz qopni bog'lab bo'lar,
Yuz og'izni bog'lab bo'lmas.
B) Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz.
C) Bu ko'ringan tog'lar Asqar tog'idir,
Oyog'imda tilla kishan bog'idir.
D) Uzumini ye, bog'ini surishtirma.

16. Quyidagi qaysi qo'shma gaplarda shartli belgilar o'rniga ikki nuqta qo'yiladi?
1) Ruboiyni ichida o'qidi // yuzini tabassum qopladi. 2) Bizning qarorimiz shu // hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz. 3) Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi // yangi oyning o'rog'i daryoda qalqib- qalqib suzadi. 4) Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi // nur yog'ilibdi.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 2, 4

17. «Farg'ona hikoyalari», «Muhabbat»,«Cho'l burguti» kabi kitoblar muallifi kim?
A) Turob To'la B) Said Ahmad
C) 0'tkir Hoshimov D) Odil Yoqubov

18. «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» (Behbudiy) asari qahramonlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
A) Tangriqul, Toshmurod, Davronbek, boy
B) Davronbek, Xudoyberdi, Rapoil, Mehriniso
C) Tangriqul, Toshmurod, Davlat, Xayrulla
D) Davronbek, Mehriniso, Xushvaqt, Toshmurod

19. Oybekning «Navoiy» romanida Majididdinning maqtovlari sababli Husayn Boyqaro kimni Hirot qozisi lavozimiga tayinlashga va'da beradi?
A) Xo'ja Abdulla Marvoriyni B) Nizomulmulkni
C) Xo'ja Afzalni D) mavlono Shahobiddinni

20. Dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o'xshatilgan
va unga ko'ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqirilgan tarji'band muallifini aniqlang.
A) Navoiy B) Ogahiy
C) Yassaviy D) Furqat

21. Qaysi gapda noto'g'ri yozilgan so'z ishtirok etgan?
A) Tursun tomda tursin.
B) Erkin yettiga yetdi.
C) Umr o'tib borayapti.
D) Boshliqlar bu mushkul muammoni yechishdi.

22. Alar chun aylagach sayr-u safolar,
Esimg'a tushti yor-u oshnolar...
Ayo bodi sabo, Olloh uchun tur,
0'zingni Toshkand shahriga yetkur.
Ushbu misralar qaysi adib hayot yo'li bilan bog'liq?

A) Muqimiy B) Navoiy
C) Bobur D) Furqat
23. Qaysi maqolda ikkita so‘z fonetik o‘zgarish asosida yozilgan?
A) Ko'ngli qoraning yuzi qora.
B) Burgaga achchiq qilib, ko‘rpangni kuydirma!
C) Yaxshiga qora yuqmas, Yomonga el boqmas.
D) Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,
Elidan ayrilgan olguncha yig‘lar.
24. Asosi omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan yasama so'z ega vazifasini bajargan gapni toping.
A) Donolarimiz kulgi umrni uzaytirishini aytganlar.
B) Pichoqning o‘tkiri damidan ma’lum.
C) Yoz mavsumiga tayyorgarlik ishlari avj pallaga chiqdi.
D) Urush quyon ovi emasligini barchamiz bilamiz-ku!
25. Quyida berilganlardan yasalish asosi ham, yasovchi morfema ham, yasalma ham omonimlik xususiyatiga ega bo‘la oladigan so‘zlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) suzma; 2) oqar; 3) changi; 4) osma; 5) quyma.
A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 5
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4, 5
26. Xorazmiy zuryodimiz, Navoiyning avlodimiz,
Yurtga tikib hayotimiz, Asragaymiz biz Vatanni.
Ushbu she’riy parchada nechta ot kesimli gap mavjud?
A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta
27. Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati jahonga to‘lg‘ay,
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay. Ushbu misralar «Xamsa»ning qaysi dostonidan olingan?
A) «Saddi Iskandariy» B) «Sab’ai sayyor»
C) «Layli va Majnun» D) «Farhod va Shirin»
28. «Ulug'bek xazinasi» (O. Yoqubov) romanida jang maydonlaridan lashkarni tashlab qochgan sotqin kim?
A) amir Idris Tarxon B) Iskandar Barlos
C) amir Sulton Jondor D) Mironshoh
29. 0‘n oykim, so'nmishdir u tanish na’ra.
Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh.
Bahor kelayotir, bosh ko‘tar, qara,
Surur kuychisi, dongdor zamondosh.
Abdulla Oripovning «Bahor» she’ridan o‘rin olgan ushbu misralarda qaysi ijodkor ko‘zda tutilgan?
A) Hamid Olimjon B) Oybek
C) Maqsud Shayxzoda D) G‘afur G'ulom
30. «Nahotki, go‘dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham
Ona - tabiatning eng buyuk ixtirosidir».
Ushbu parcha 0‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyadan olingan?
A) «Qarz» B) «Alla»
C) «Haqqush» D) «Iltijo»
31. Tasviriy insholarda shaxslar va manzaralar ko‘z oldiga keltirilib,ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy insholar o‘quvchilarning fikrini ostiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Berilgan parchada nechta fe’l tarkibida nisbat qo‘shimcha(lar)i so‘z yasovchi qo‘shimchadan so‘ng qo‘llangan?
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3
32. Qaysi gapda uyushiq bo‘laklar yasama so‘zlar bilan ifodalangan?
A) Odamlarni ma’naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroni uning yoshidan qat’i nazar, shu maydonning qatnashchisiga aylantirish bizning eng samarali yo‘limizdir.
B) Ma’rifatchilar elimizga ma’rifatning urug‘ini sochishda fidoyilik va jasorat ko‘rsatdilar.
C) Tushuntirishning hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix hamda falsafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko‘rsatmoqda.
D) Xalqparvar va insofli, diyonatli, baquvvat kishilarning moddiy yordamisiz ma’rifatchilar faoliyat ko‘rsata, olmas edilar.
33. Ko'zlarim hali harf tanimas edi,
Qalam, ushlolmasdi hali qo‘llarim.
Kapalak izidan quvib tinraasdim,
Yulduzlarni sanar edim, tunlari. (M. Boboyev)
She’riy parchadagi kelishik qo‘shimchalari haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
A) 3 o‘rinda belgisiz, 2 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
B) 1 o'rinda belgisiz, 2 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
C) 2 o'rinda belgisiz, 3 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
D) 2 o'rinda belgisiz, 2 o'rinda belgili kelishik qo'shimchasi qo'llangan
34. Jarangli jufti mavjud bo'lgan til oldi jarangsiz undoshlarni aniqlang.
A) z, j, d B) k, t, s, ch
C) t, s, ch, sh D) t, p, s
35. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo'lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat da’vo qilsa, onaning pok qalbi timsol.
Ushbu gapda kelishik qo'shimchalari necha o'rinda belgisiz qo'dlangan?
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
36. Yurtimizning bu asl farzandlari o'z orzu-havaslari haqida emas, xalq hayoti uchun, uning ijtimoiy ahvoli uchun qayg'urdilar, ularga juda ko'p zug'um qilsalar ham, o'z dunyoqarashlarini o'zgartirmadilar, hatto bu yo'lda o'zlarini qurbon qildilar. Ushbu gapda qaratqich aniqlovchilar necha o'rinda qo'llangan?
A) 6 B) 7 C) 4 D) 5
1. Cho'lquvarlarni na issiq,na suvsizlik yenga oladi,balki ular o'z jasoratlari,mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar. Gapdagi sodda yasama so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) ega, kesim B) to’ldiruvchi, ega, kesim
C) ega D) to'ldiruvchi, ega, hol
2. Ilgari ro'y bergan harakat va holatning so'zlovchi tomonidan eshitib bilganini ifodalovchi o'tgan zamon qo'shimchasini aniqlang.
A) -gan B) -gan -edi C) -(a)rdi D) -(i)b
3. Qaysi so'z asosida ikki jarangli undosh orasida keng unli kelgan?
A) puldor B) kitobxon

C) bormoqda D) bilimdon
4. Oyog'ingniz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa, boshingizga falokat keltiradi. Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?
A) metonimiya B) vazifadoshlik
C) metafora D) sinekdoxa
5. Qaysi gapda mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan?
A) Yuragiga go'zallikdan bahra olish tuyg'usini quydi.
B) O'z tilini sevgan inson uning kelajagi uchun qayg'uradi.
C) Buni sizga qanday aytishni bilmadik.
D) Bizga va sizga bu hayotni mustaqillik berdi.
6. Nargiza bilan do'stlik haqida she'r yodladim. Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) gapdagi barcha to'ldiruvchilar vositali to'ldiruvchi hisoblanadi
B) to'ldiruvchilar faqat ko'makchilar vositasida shakllangan
C) to'ldiruvcilar kesimga va egaga tobelangan
D) 2 ta vositali, 1 ta vositasiz to'ldiruvchi bor
7. Quyidagi so'zlar qatorida nechta yasama ravish bor? hamisha, dastlabki, ustma- ust, galma-gal, misqollab, do'stlarcha, nari-beri, qasdma- qasd, butunlay, tiriklayin.
A) 9 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 6 ta
8. Qaysi javobda keltirilgan barcha so'zlar noto'g'ri yozilgan?
A) qat'iy, qadamjo, shovilladi
B) xoxlamoq, inshoot, hasharot
C) ssenariy, konstitusiya, hayit
D) ta'qiqlamoq, avf, taqib qildi
9. Berilgan gapda ishtirok etgan so'z yasovchi cio'shimchalar sonini aniqlang.
Mustaqillik bayramining quvnoqlik, shod-u xurramlik ila kutib olinishida shu tuproqda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi bor.
A) 6 B) 4 C) 5 D) 3
10. Qaysi asar Misr amiri Batxasbekka bag'ishlangan?
A) «Gulistoni bit-turkiy» B) «Hibatul-haqoyiq»
C) «Yatimat ad-dahr» D) «Latofatnoma»
11. Qaysi shoir bir qozining kirdikorlarini o'z tilidan aks ettiruvchi g'azal yozgan?
A) Turdi Farog'iy B) Avaz O'tar
C) Maxmur D) Gulxaniy
12. Qaysi gapda sirg'aluvchi undoshni noto'g'ri qo'llash natijasida paronimlar bilan bog'liq xatolik yuzaga kelgan?
A) O'ng yuziga qora xol qo'ygan.
B) Kech bo'lsa ham bir kelib ketishga ahd qildi.
C) Ruhimizda, vujudimizda Vatan nomi mangu barqaror.
D) Nutq tovushlari ikki xil bo'ladi: unli va undosh.
13. Xos ishqingni ko'rsat manga shokir bo'lay,
Arra qo'ysa Zikriyodek zokir bo'lay,
Ayyub sifat balosig'a sobir bo'lay,
Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor.
Ahmad Yassaviyning mazkur hikmatida qanday badiiy vositalardan foydalanilgan?
A) talmeh, tashbeh B) talmeh, tazod
C) istiora, tashxis D) tashbeh, tashxis
14. Qaysi gapda ikki o'rinda vazifadosh bog'lovchi ishtirok etgan?
A) Aql va farosat quyoshga o'xshaydi, beparvolik tufayli tushish mumkin bo'lgan dog'larga o'rin qoldirmaydi.
B) Siz bilan bunday natijaga erishishimiz uchun tun-u kun mehnat qilishimiz lozim.
C) Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib,o'n sakkizga qadam bosganida,bo'yi ham onasiga yetayozgan,ammo jussasi onasidan ko'ra to'laroq ko'rinar edi.
D) Mol ham davlatingiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go'zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning.
15. «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, ... o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma'rifat suvi, ... chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artib, tozalaydurgan buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur».
Ushbu fikr muallifi bo'lmish katta aql va ulkan bilim egasi kim?
A) Behbudiy B) Abdulla Avloniy
C) Fitrat D) Cho'lpon
16. «Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan. Yog'in-sochindan keyin po'rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar bir-biriga ayqashib ketgan yo'lda ikki yo'lovchining oyoq izlari ko'zga tashlanadi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) Asqad Muxtor «To'qqizinchi ; palata»
B) Chingiz Aytmatov «Jamila»
C) Nazar Eshonqul «Maymun yetaklagan odam»
D) Tohir Malik «Alvido, bolalik!»
17. Qaysi qatorda bir so'z turkumi doirasida omonimlik hosil qila oladigan qo'shimchalar berilgan?
1) -lab; 2) -ar; 3) -ish; 4) -ay; 5) -y; 6) -lash.
A) 3, 4, 6 B) 1, 2, 4, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5
18. Bir kishi bir hakim huzurida befoyda sonlarni haddan ortiq ko'p gapirdi va so'z orasida: «Ko'p so'zladim. Endi so'zlashni bas qilay», - dedi. Hakim unga e'tiroz bildirdi:
«Yo'q, sen hali so'z so'zlaganing yo'q!»
Berilgan parchaning ko'chirma gap qismida nechta yasama so'z mavjud?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 5
19. Qadimgi turkiy tilda «To'nyuquq» so'zi qanday ma'noni anglatgan?
A) to'ng'ich shahzoda B) ulug' xoqon
C) to'ng'ich javhar D) ulug' sarkarda
20. Sultonxon Rustamxon haqida «Oti Rustam, o'zi nor kalla qo'chqor» deb kimga aytadi? («Rustamxon» dostoni)
A) qalandarlarga B) Ximcha kanizga
C) Oftoboyga D) Huroyimga
21. Navoiyning «Xamsa» asaridagi «Sab'ai sayyor»

dostonida Bahrom oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirdan qaysi hikoyatni tinglaydi?
A) Muqbil va Mudbir haqidagi
B) Zayd Zahhob haqidagi
C) Sa’d jasorati haqidagi
D) Mehr va Suhayl haqidagi
22. Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanida qaysi qahramon o‘zini «bu chappa dunyodan haqiqat izlab topolmagan, adashgan bandadurmen» deya ta’riflaydi?
A) Mirzo Ulug‘bek B) Ali Qushchi
C) Qalandar Qarnoqiy D) Abdulatif
23. Qaysi qatordagi gapda yetakchi qismi qo‘shma fe’l bo‘lgan ko'makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan?
A) Birpasgina bo‘lsa ham gaplashib, meni tinchitib qo‘ysang bo‘lgani.
B) Bizni ham taklif qilib qo‘yishni unutmang.
C) Hayotdan saboq olib, yaxshilardan ibrat olib yasha, qizim.
D) Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayira boshladik.
24. Sanodin o‘zga nav atlas to‘quyin,
Qish o‘rtada bahoriyot o‘quyin.
Kim ujmoh tur sening bazming binosi,
Hamisha yoz erur, jannat havosi. Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolag‘aviy tasvirlar yaratdi?
A) Sayfi Saroyi Batxasbekka
B) Rabg‘uziy Nosiriddin To‘qbug‘aga
C) Xo'jandiy Mahmudxonga
D) Xorazmiy Muhammad Xo‘jabekka
25. Qaysi javobda quyida berilgan gap turi to‘g‘ri ko'rsatilgan? U yig‘lamsirab turarmidi, korinishi shundaymi, hech kim bilolmadi.
A) aralash turdagi murakkab qo‘shma gap
B) bog‘langan qo‘shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
D) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap
26. Berilgan gapdagi so‘zlar imlosida necha o‘rinda fonetik o‘zgarish ro‘y bergan?
Sening tug‘ilib o‘sgan shahringdan ayrilib yashashingni bilmasdim.
A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 6 ta
27. Badavlat donishmanddan so‘radilar: «Turmushingiz farovon bo‘lsa ham, nima uchun sizning xursand bo'lib yurganingizni ko‘rgan emasmiz?»
U shunday javob beribdi:
«Chunki och-yalang‘och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman». Keltirilgan parchada olmoshning nechta turi ishtirok etgan?
A) 5 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 3 ta
28. - Men ko'rganman osmonlarning tinig‘ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig‘ini.
Beshikdagi go‘daklarga tig‘ sanchdilar,
Shunda bildim mardlaringning qilig'ini.
Sodda kesimli gaplar sonini aniqlang.
A) 3 B) 6 C) 4 D) 5
29. Qaysi gapda egalik qo‘shimchasi yasama otga qo‘shilgan?
A) Tilagim shuki, hamma baxtiyor bo‘lsin.
B) Osmon kabi tiniq tuyg‘ular mavj uradi bu yosh ko‘nglimda.
C) Shu sevinch ikkovlariga ham dadillik baxsh etgandek bo‘ldi.
D) 0‘rindiqning chetida o'tirgan ayol unga mehribonlik bilan tikilib turar edi.
30. Qaysi shoir Navoiyni «... Manzuri shahanshohi Xuroson» deb ta’riflagan?
A) Munis B) Fuzuliy C) Bobur D) Ogahiy
31. El netib topgay menikim,
Men o‘zimni topmasam.
Gap haqidagi to‘g‘ri hukmlarni aniqlang.
1) hol ergash gapli qo‘shma gap; 2) gapda 3 ta kishilik olmoshi ishtirok etgan; 3) ergash gap va bosh gap o‘rni almashgan; 4) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap; 5) gap faqat ega, kesim, to‘ldiruvchidan tashkil topgan.
A) 1, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 3, 4
32. Qaysi maqolda ikki o'rinda ' shaxs oti qo'llangan?
A) Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka, izzatda bo‘l.
B) Mehmon otangdan ulug‘.
C) Zar qadrini zargar biladi.
D) Arslon izidan qaytmas, yigit-so‘zidan.
33. Bolalikdan boshlangan do‘stlik insonning keyingi ulg‘aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do‘stlari orasida alohida ahamiyatga ega. Gapdagi yasama so'zlardan nechtasi faqat til undoshlari va unli tovushlardan tashkil topgan?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 2
34. Quyida berilgan tez aytishlarning qaysi birida sifat turkumiga oid so‘z egani aniqlab kelgan?
A) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.
B) 0‘tkir o‘tkir o‘roqda, o‘t o‘rdi.
C) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.
D) Noming nordon anori narida.
35. 0‘stir Vataningni bog’ kabi tuyg‘un,
Ishongin-u uni shu aziz yerga –
Hushyor bo‘l - beega qoldirma bir zum –
Farzandingdan boshqa hech kimga berma.
Ushbu she’riy parchada nechta fe’l tarkibida nisbat qo‘shimchasi mavjud?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4
36. Keltirilgan gap turini aniqlang.
Bahor osmonida chaqnasa chaqin,
Ko'ksingdan otilar olovli nafas.
A) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap
B) aralash murakkab qo'shma gap
C) ega ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap
1. Quyidagilardan qaysi birining yetakchi morfemasi omonimlik xususiyatiga ega?
1) bormoq; 2) chopmoq; 3) savalamoq; 4) ivitmoq; 5) changimoq.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4, 5
2. - Noshukurlik,- debdi u,- noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o‘ralgan kishi his

etish,jamiyki narsadan lazzatlanish hissini yo'qotadi. Yuqoridagi gapda nechta o'rinda yasama so'z qatnashgan?
A) 7 o'rinda B) 6 o'rinda
C) 5 o'rinda D) 8 o'rinda
3. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida «Iymon yo'q taqsirimda» degan jumla qaysi qahramonga nisbatan ishlatiladi?
A) Akbarali mingboshi B) sud raisi
C) zakunchi D) domla
4. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh
Siringni fosh etnia, kerak bo'lsa bosh.
Parchada egalar miqdori nechta?
A) 1 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta
5. Yasama ravish ishtirok etgan gapni ko'rsating.
A) Shu vaqt nima uchundir, hamma birdan sharaqlab kulib yubordi.
B) Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
C) Men xuddi shu savolni kutib turgan kabi darrov javob bera qoldim.
D) Ertaga, hurmatli o'rtoqlar, meni shon-u shuhrat kutardi.
6. Quyida berilgan so'zlarning nechtasidan sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan qo'shimcha yordamida ot yasash mumkin?
Arava, o'yin, yosh, kech, oqshom, tayan, bos.
A) yettitasidan B) beshtasidan
C) oltitasidan D) to'rttasidan
7. Qaysi javobdagi gapda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalarga rioya qilinmagan?
A) Uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik - hammasini eplaydi.
B) Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi.
C) Yolg'on o'rmonga o'xshaydi - unga qanchalik kirib boraversang undan chiqib olish ham shunchalik chuqurlashaveradi.
D) 0'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.
8. Berilgan so'zlardan paronim juftiga ega bo'lganlarining barchasi ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) sut; 2) da'vo; 3) ham; 4) mehr; 5) qism.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 5
9. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat til undoshlari va unlilar ishtirok etgan?
A) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.
B) Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.
C) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'p koptok.
D) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.
10. Quyidagi qaysi so'zlardagi nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi yoziladi?
1) a..loq; 2) hol-a..vol; 3) .. atti-harakat; 4) ..okkey; 5) .. ushyorlik; 6) ..iylakor.
A) 1, 2, 5, 6 B) 2, 5, 6
C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 4, 5, 6
11. Qaysi asarda Shayxi Bahlulning xalifa Xorun ar-Rashid taxtiga chiqib o'tirganligi haqidagi hikoyat keltirilgan?
A) «Hayrat ul-abror» B) «Miftoh ul-adl»
C) «Rohati dil» D) «Guliston»
12. Quyidagi gapdagi yasama so'zlar qaysi gap bo'lak(lar)i vazifasida kelgan?
Birdan eshik ochildi. Chalqanchasiga yonboshlab, bag'rini sovuq ko'rpaga burkab yotgan cholning ko'zlari xira tortib qolgan, nursiz edi.
A) hol, aniqlovchi, kesim B) aniqlovchi, ega
C) hol, aniqlovchi, ega D) aniqlovchi, kesim, to'ldiruvchi
13. «...shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munawarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar «...»ni yozib bitirdi».
Adabiyotshunos olim Homil Yoqubov ushbu parchada qaysi ijodkor asari yaratilishi haqida fikr bildirgan?
A) Shuhrat, «Oltin zanglamas»
B) Cho'lpon, «Kecha va kunduz »
C) Oybek, «Qutlug' qon»
D) Abdulla Qodiriy, «0'tkan kunlar»
14. Quyidagi qaysi gapda vazifadoshlik asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?
A) Bosh omon bo'lsa,do'ppi topiladi.
B) Qozonning qulog'i qiyshayib qolgan ekan.
C) Rentgen apparati natijalarini kutyapmiz.
D) Stol oyog'i pishiq yog'ochdan qilingan.
15. «Avesto»da devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi qanday atalgan?
A) visparad B) yashtlar
C) vendidod D) gohlar
16. Qaysi so'z tarkibida lug'aviy shakl yasovchidan so'ng kelgan so'z yasovchi tarkibida ikkita til undoshi ishtirok etgan?
A) maqtanchoq B) naqshlanmoq
C) oydinlashtirmoq D) shodlantirmoq
17. Tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilardim.
Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlarda necha o'rinda sirg'aluvchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?
A) 7 ta B) 9 ta C) 10 ta D) 8 ta
18. Qaysi asar qahramoni serquyosh Kaliforniyadagi apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida o'z xaloskorlariga poyma-poy gapirib beradi?
A) «Yovvoyi yo'rg'a» B) «Gulliverning sayohatlari»
C) «Kichkina shahzoda» D) «Hayotga muhabbat»
19. «Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs,- deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida. - U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi,muxlisi, do'sti edi». Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapning muallif gapi qismida kesim qaysi zamon ma'nosini anglatgan?
A) hozirgi zamon B) o'tgan zamon
C) kelasi zamon D) hozirgi-kelasi zamon
20. Bu gapning butun dahshati shu tobda bilindi. Ushbu gapdagi olmoshlarning vazifasini toping.
A) aniqlovchi, ega, hol
B) aniqlovchi, aniqlovchi
C) aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi
D) aniqlovchi, aniqlovchi, hol
21. Quyida keltirilgan she'riy parchadagi ostiga chizilgan so'z qaysi javobda to'g'ri tahlil qilingan?

Ba’zilar bor go‘yo ho‘l o‘tin,
Tutab yotar ko‘rmaysan o‘tin
Yangilikka qayishmas sira,
Xoh buyur-u, xoh ming bor o‘tin.
A) o’t - asos, -i, -n sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar
B) sodda tub so‘z bo'lib, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha
C) sodda yasama so‘z bo'lib, -in so‘z yasovchi qo'shimcha yordamida yasalgan
D) tub so‘z bo‘lib, ma’noli qismlarga ajralmaydi
22. Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor anga ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.
Ushbu baytda qaysi she’riy san’at qo'llangan?
A) ruju B) tardi aks
C) tarse’ D) tajnis
23. «Ulug‘bek xazinasi» romanida Ulug‘bekka xiyonat qilgan Shohruhiya qal’asi boshlig‘i kim edi?
A) Ibrohim Po'lat og‘li B) Sulton Jondor
C) Abu Said Mirzo D) Mironshoh
24. Asarning bosh g‘oyasi atrofida markazlashgan davlat qurish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, adolat, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli janglarni qo‘zg‘ash, yovuzlik, munofiqlikni qoralash g'oyalari ham ilgari suriladi. Ushbu gapda nechta yasama ot mavjud?
A) 8 B) 7 C) 9 D) 10
25. «Alpomish» dostonida Barchinoy qaysi qahramonni bir qo‘li bilan yoqasidan olib, bir qo‘li bilan belbog‘idan tutib ko‘tarib, chalqaramon qilib yerga qo'ygan edi?
A) Ko‘kaldoshni B) Hakimbekni
C) Ko‘kamanni D) Qorajonni
26. Qaysi shoir umrining oxirgi qismini Samarqand va Buxoroda o‘tkazgan?
A) Muqimiy B) Poshshoxo‘ja Abdulvahobxo‘ja o‘g‘li Xoja
C) Sayfi Saroyi D) Firdavsiy
27. Nodira qaysi g‘azalida yorining tik qomatini yoki, aksincha, ishqiy iztiroblari oqibatida o‘zining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mumtoz she’riyatimizda an’anaviy bo‘lgan daraxtlar («sarvi ozod», «sarvi noz», «naxli oh», «shoxi shamshod») timsollaridan mahorat bilan foydalanadi?
A) «Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...»
B) «Kel, dahrni imtihon etib ket...»
C) «Vasl uyin obod qildim...»
D) «Doda keldim...»
28. Alisher Navoiyning ushbu mashhur bayti qaysi asaridan olingan?
Boshni fido ayla ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh
Birisin oy angla, birisin quyosh.
A) «Hayrat ul-abror» B) «Mahbub ul-qulub»
C) «Saddi Iskandariy» D) «Farhod va Shirin»
29. Qaysi javobdagi gapda sifat asosli sodda yasama fe’l qatnashgan?
A) Ko‘klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.
B) Meni aldamagil, yolg‘onchidan el nafratlanadi.
C) Simcha yil sizni deb yashadim.
D) Izg'irindan ko‘zlar yoshlanadi, oyoq ostidagi qorlar g'ichirlaydi.
30. Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
Gapdagi fe’llar qanday nisbatdaligini aniqlang.
1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat.
A) 1, 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 5
31. Berilgan so‘z birikmalaridan rxechtasida kelishik qoshimchalarini ko'makchilar bilan almashtirish mumkin?
1) olchaning guli; 2) shoshmasdan yurmoq; 3) telefonda gaplashmoq; 4) mashinada kelmoq; 5) ukasiga olmoq; 6) tubdan o‘zgartirmoq.
A) uchtasida B) beshtasida
C) oltitasida D) to'rrtasida
32. -i qo‘shimchasi yordamida sifat yasash mumkin bo‘lgan so‘zni aniqlang.
A) boy B) do‘st C) tinch D) jannat
33. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.
Otli so'z birikmalari nechta?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
34. Alisher Navoiyning qaysi g'azalida har bir baytida kamida bir tazod san’atiga duch kelamiz?
A) «Yo‘q» radifli g'azalida»
B) «Jonga chun dermen: Ne erdi o'lmakim kayfiyati?..» g'azalida
C) «Qilg'il» radifli g'azalida»
D) «Bo'l» radifli g'azalida»
35. Bu o'lkada iqlim o'rtacha, suv mo'l, yer unumdor, quyosh nuri yetarli.
Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) kesimi uyushgan sodda gap
B) kesimi ishtirok etmagan to'liqsiz gap
C) kesimi kengaygan birikma bilan ifodalangan sodda gap
D) sodda ot kesimli murakkab qo'shma gap
36. «O'yla, o'zing,
Gunoh kimda?
Kimdan oldim, tarbiyat?
Sen uyg'otding yuragimda
Toj-u taxtga muhabbat.
Bu, tuyg'uni berib, nega
Qaro qilding baxtingni?
So'ng qarib ham,
Nechun menga
Bo'shatmading taxtingni?..» Ushbu parcha qaysi qahramon tilidan kimga aytilgan?
A) Suhrob Rustamga (Firdavsiy, «Shohnoma»)
B) Avrangzeb Shohi Jahonga (Erkin Vohidov, «Ruhlar isyoni»)
C) Sheruya Xisravga (Alisher Navoiy, «Farhod va Shirin»)
D) Abdulatif Mirzo Ulug'bekka (Maqsud Shayxzoda, «Mirzo Ulug'bek»)